

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

**POCHTA ALOQASI TEXNOLOGIK
JARAYONLARI**

**(1-QISM. ICHKI POCHTA JO‘NATMALARI
VA PUL O‘TKAZMALARI)**

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

UO'K: 656.8(075)
KBK: 65.38-2
A-18

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Mualliflar:

**G.S. ABDULAZIZOVA, G.N. NAZAROVA,
R. ADXAMOV, A.A. ABDULAZIZOV**

Ushbu o'quv qo'llanmada pochta, kuryerlik jo'natmalarini turlari bo'yicha qabul qilish, ishlov berish, tashish va yetkazib berish (topshirish), pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini to'lash va ishlab chiqarish jarayonlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatadigan milliy operatorning pochta aloqasi obyektlari tomonidan bajarilishi misolida tavsiflangan.

O'quv qo'llanma boshlang'ich kasb-hunar ta'limi o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Taqrizcchilar: **M.M. MAXMUDOV** — O'zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi direktori, t.f.n.
N.G. XUSYAYENOVA — «O'zbekiston pochta» AJ «Toshkent pochta» filiali direktorining birinchi o'rinbosari.

**1-BOB. MILLIY OPERATOR POCHTA
ALOQASI OBYEKTLARINING
NOMLI BUYUMLARI**

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari o‘z faoliyatlarida o‘zlarining nomli buyumlarini qo‘llaydilar.

Pochta taqvim shtempellari (keyingi o‘rinlarda taqvim shtempellari deb yuritiladi), maxsus hisobdan chiqarish shtempellari, sug‘urta muhrlari, plombir puansoni, iz tushirish moslamalari, termopayvandlash mashinasining plastinalari, nazorat-geraldli muhrlar, frankirlash mashinalarining klishe si milliy operatorning nomli buyumlaridir.

Taqvim shtempeli pochta markalarini hisobdan chiqarish va (yoki) pochta, kuryerlik jo‘natmalariga, pul o‘tkazmalari blanklariga va (yoki) ilova qilinadigan hujjatlarga, kvitansiyalarga tegishli obyektning nomini, pochta vagoni, avtotrakt yo‘nalishini, sanani tushirish uchun mo‘ljallanadi.

Maxsus hisobdan chiqarish shtempeli esdalik maxsus shtempel hisoblanadi va davlat miqyosidagi muhim voqealarga, tarixiy va xotira joylariga hamda sanalariga, ko‘rgazmalarga va shu kabilarga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishda pochta markalarini hisobdan chiqarish uchun qo‘llaniladi.

Sug‘urta muhri qiymati e‘lon qilingan xatlarni, qiymati e‘lon qilingan banderollarni, posilkalarni, sug‘urta qoplarini, brezent sumkalarni, konteynerlarni, shuningdek, boyliklar saqlanadigan omborlarni surg‘uch bilan muhrlash uchun mo‘ljallanadi.

Plombir puansoni pochta aloqasi obyektini nomining izini pochta buyumlari, pochta, kuryerlik jo‘natmalari, shuningdek, boyliklar saqlanadigan omborlar va magistral pochta yo‘nalishlari bo‘ylab pochta tashiydigan pochta avtomashinalari kuzoviga plombalanadigan plastmassa yoki qo‘rg‘oshin plombalarga tushirish uchun mo‘ljallanadi.

Iz tushirish moslamasi pochta aloqasi obyektini nomi va pochta indeksi izini qiymati e‘lon qilingan posilkalar va banderollarni o‘rovlashda, shuningdek, xalqaro pochta almashinuvi joylarida


keladigan mayda paketlarni o‘rovlashda foydalaniladigan qog‘oz tasmalarga tushirish uchun mo‘ljallanadi.

Termopayvandlash mashinasining plastinasi — pochta aloqasi obyektining nomi o‘yib yozilgan metall plastina bo‘lib, banderollarni o‘rab joylashda termopayvandlash mashinalarida polietilen plyonkalarini payvandlash uchun, shuningdek, keladigan mayda paketlarni polietilen paketlarga joylash bilan bir vaqtda ularga pochta indeksi izini va pochta aloqasi obyektining nomini tushirish uchun mo‘ljallangan.

Nazorat-geraldli muhr alohida yo‘riqnomalarga muvofiq, pul o‘tkazmalari blanklarni, 5-shakldagi daftarlarni, 10-shakldagi reyestrlarni, pul o‘tkazmalari bo‘yicha xizmatga oid yozishmalarni va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish uchun mo‘ljallanadi.

Frankirlash mashinasining klisesi oddiy va buyurtma xatlarga, pochta varaqachalariga va banderollarga pochta aloqasi xizmatlariga haq to‘langanlikni, qabul qilish sanasi va boshqa ma‘lumotni tasdiqlovchi klishe izlarini tushirish uchun mo‘ljallanadi.

Nomli buyumlar izlari namunalari 1—8-rasmlarda keltirilgan.



1-rasm. Taqvim shtempellari izlarining namunalari:

- a* — shahar pochta aloqasi obyektlari uchun; *b* — qishloq pochta aloqasi obyektlari uchun; *d* — Qoraqalpog‘iston Respublikasi pochta aloqasi obyektlari uchun; *e* — Xalqaro pochta uchun; *f* — pochta vagonlari uchun.



2-rasm. Maxsus xotira shtempeli izining namunasi.




1




2


3-rasm. Sug'urta muhrlari izlarining namunalari:
a — shahar pochta aloqasi obyektlari;
b — qishloq pochta aloqasi obyektlari.



4-rasm. Plombir izining namunasi.



5-rasm. Iz tushirish moslamasi izining namunasi.



6-rasm. Termopayvandlash mashina plastinasi izining namunasi.



7-rasm. Nazorat-geraldli muhr izining namunasi.

O'zbekiston Respublikasi
100047 Toshkent
Sayilgoh 5
ADLIYA VAZIRLIGI



8-rasm. Frankirlash mashinasi tamg'a izining namunasi.

Pochta aloqasi boshqa operatorlari va provayderlarining nomli buyumlari milliy operator uchun belgilangan nomli buyumlardan farq qilishi kerak. Nomli buyumlar ro'yxati va ulardan foydalanish tartibi pochta aloqasi operatorlari va provayderlari tomonidan belgilanadi.

Pochta aloqasi bo'limlari (bundan keyin matn bo'yicha — aloqa bo'limlari), pochta vagonlari boshliqlari, ularning o'rinbosarlari va pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi) bo'yicha buyruq bilan rasmiylashtirilgan shaxslar sug'urta muhri, plombir, iz tushirish moslamasi, termopayvandlash mashinasi plastinasidan foydalanish huquqiga ega. Shuningdek, buyruq bilan nomli buyumlarning saqlanishi va to'g'ri foydalanishi uchun mas'ul shaxslar ham buyruq bilan tayinlanadilar.

Taqvim shtempellari pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi) rahbarining buyrug'i bilan ish joylariga biriktiriladi. Har kungi hisob aloqa bo'limlarining boshliqlari (o'rinbosarlari) yoki pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari)ning nazorat qiluvchi shaxslari tomonidan yuritiladi.

Aloqa bo'limlarida nomli buyumlar almashtirilganda yoki foydalanishdan olib qo'yilganda, aloqa bo'limi boshlig'i birinchi jo'naydigan pochta bilan ularni qiymati e'lon qilingan banderol bilan bo'ysunuvi bo'yicha pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ga, ular esa xuddi shunday tartibda pochta aloqasining hududiy tashkilotiga jo'natadi.

Nomli buyumlar toza tutilishi va ularning butligi ta'minlagan holda saqlanishi lozim.

Nazorat savollari

1. Milliy operatorning nomli buyumlariga nimalar kiradi?
2. Taqvim shtempelining vazifasini sanang.
3. Sug'urta muhri nima uchun mo'ljallanadi?
4. Plombir puansonini nima uchun mo'ljallanadi?
5. Iz tushirish moslamasi, termopayvandlash mashinasining plastinasi, nazorat-geraldli muhr, frankirlash mashinasining klisesi vazifalarini bayon eting.

2-BOB. POCHTA JO‘NATMALARINI JO‘NATISH UCHUN IDISH (TARA)

Pochta tarasiga qoplar, konteynerlar kiradi.

Konteynerlarga 1 raqamidan boshlab (cheklashsiz) tartib raqamlari beriladi, qiymati e‘lon qilingan xatlar va banderollar, buyurtma mayda paketlar, posilkalarni jo‘natish uchun mo‘ljallangan brezent qoplarga esa, 1001 dan 9999 gacha bo‘lgan tartib raqamlari beriladi. Raqamlar bir vaqtda trafaretli yozuv bilan yoziladi. Oddiy va buyurtma yozma xat-xabarlarini jo‘natish uchun mo‘ljallangan qoplar raqamlanmaydi.

Xalqaro aviapochtani jo‘natish uchun mo‘ljallangan qoplar to‘liq ko‘k rangli yoki «*Postes par avion Tachkent*» trafaretli yozuvi bo‘lgan keng ko‘k rangdagi chiziq tushirilgan bo‘lishi kerak. Xalqaro pochta jo‘natmalarini yerusti transportida jo‘natish uchun mo‘ljallangan qoplar aviaqoplarga nisbatan boshqa rangda (masalan, och jigarrang, jigarrang, oq va h.k. rangli) bo‘lishi kerak. Qoplarda «*O‘zbekistan Postes Tachkent*» trafaretli yozuv bo‘lishi lozim.

Xalqaro xat-xabarlarini jo‘natish uchun mo‘ljallangan qoplar 10 000 gacha bo‘lgan sonlar bilan raqamlanadi.

Pochta jo‘natmalarini shikastlangan tarada, hoshiyalanmagan va o‘lchamlari standartga mos kelmaydigan qoplarda yoki belgilangan trafaretga ega bo‘lmagan, shuningdek, raqamlanmagan brezent qoplarda jo‘natishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Pochta vagonlarida va pochta avtomobil yo‘nalishlari bo‘yicha tashiladigan oddiy va buyurtma yozma xat-xabarlarini jo‘natish uchun foydalanadigan qoplar «qopga qop» tartibida almashinishi kerak.

Pochtani poyezdlar, umumiy foydalanishdagi avtotransportda, shuningdek, havo kemalarida bagaj bilan jo‘natishda, qop-idishlar bo‘yicha hisob-kitob ushbu jo‘natishlar to‘g‘ridan to‘g‘ri ular o‘rtasida amalga oshiriladigan pochta aloqasi obyektlari tomonidan olib boriladi.

Konteynerlar bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblar pochta konteynerlarda tashish tizimiga kiritilgan pochta aloqasi obyektlari o‘rtasida pochta konteynerlarda tashish rejasi bo‘yicha, lekin almashtirish vaqtidan 10 kecha-kunduzdan kechiktirmay o‘tkaziladi.

Xalqaro pochta, PO‘NQM, «O‘zbekiston markasi» ishlab chiqarish uchastkasi tomonidan jo‘natiladigan qoplar, xalqaro pochta qoplar «qopga qop» bo‘yicha almashtirilmaydi.

Qaytariladigan bo'sh qoplar, shu qoplardan birortasiga joylanadi, unga 16-shakldagi yukxat ham solib qo'yiladi. Oddiy va buyurtma yozma xat-xabarlarni jo'natish uchun mo'ljallangan qoplar yukxatga hisobi (soni) bo'yicha, brezent qoplar esa, raqamlar bo'yicha yoziladi.

Yukxatga yozishdan oldin ularga *«Bo'sh idish (tara)»* yozuvi yoziladi.

Qaytariladigan bo'sh idish (tara)li qoplarga 17-shakldagi manzil yorlig'i biriktiriladi, shundan keyin qoplar sug'urta muhri bilan muhrlanadi yoki plombalanadi va 16-shakldagi yukxatga yozilib, jo'natiladi. Agar faqat bitta qop qaytariladigan bo'lsa, unga ham yukxat ilova qilinadi va u yuqoridagi tartibda yoziladi, lekin u muhrlanmagan (plombalanmagan) holda jo'natiladi. Bo'sh qoplarning 17-shakldagi manzil yorliqlarida va 16-shakldagi yukxatda, umumiy belgilangan ma'lumotlardan tashqari, *«Bo'sh» — «Порожний»* yoki *«Bo'sh qoplar bilan» — «С порожними мешками»* yozuvi yozib qo'yiladi.

Muntazam ravishda qatnab turadigan yerusti transportiga ega bo'lmagan pochta aloqasi obyektlari bo'sh qoplarni havo transporti orqali xizmatga oid posilkalarda oddiy o'rab joylangan holda jo'natadi. Bunday posilkalar xuddi avia xat-xabarlar joylangan qoplar kabi berkitiladi. Ularga yorliq biriktiriladi, uning bir tomoniga 17-shakldagi manzil yorlig'i, ikkinchi tomoniga esa, jo'natish joyidagi pochta aloqasi obyektining nomi, posilka raqami va uning og'irligi ko'rsatiladigan 2-shakldagi yorliq yopishtiriladi. Posilkaning bog'lami muhrlanadi, manzil tomondagi yorlig'iga va 2-shakldagi yorliqqa esa *«Bo'sh qoplar bilan» — «С порожними мешками»* yozuvi yoziladi.

Bo'sh qoplar solingan posilkalarning og'irligi 10 kg dan oshmasligi kerak. Bunday posilkalar, ularning sonidan qat'i nazar, butun bosib o'tadigan yo'li davomida 16-shakldagi alohida yukxatlarga yozilgan holda jo'natiladi.

Oraliq punktlar va pochta vagonlari tomonidan jo'natilayotgan bo'sh qoplardan xat-xabarlarni jo'natish hamda boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat savollari

1. Pochta jo'natmalarini raqamlash tartibini izohlang.
2. Xalqaro aviapochta jo'natmalarida qanday belgilar bo'lishi talab etiladi?
3. «Qopga qop» tartibi nima?

3-BOB. ICHKI POCHTA, KURYERLIK JO‘NATMALARINI QABUL QILISHNING UMUMIY TARTIBI

O‘zbekiston Respublikasi hududida adresatga jo‘natish va yetkazib berish (topshirish) uchun qabul qilinadigan pochta jo‘natmalarining quyidagi turlari ichki pochta jo‘natmalariga kiradi:

- a) xatlar (oddiy, buyurtma, qiymati e‘lon qilingan);
- b) pochta varaqchalari (oddiy, buyurtma);
- d) banderollar (oddiy, buyurtma, qiymati e‘lon qilingan);
- e) sekogrammalar (oddiy, buyurtma);
- f) posilkalar (odatdagi, qiymati e‘lon qilingan);
- g) mayda paketlar (oddiy, buyurtma);
- h) tezkor pochta jo‘natmalari;
- i) tegishlicha o‘ramdagi bosma nashrlar.

Ichki pochta jo‘natmalari uchun quyidagi cheklangan o‘lchamlar va og‘irlik o‘rnatilgan (1-jadval).

1-jadval

Ichki pochta jo‘natmalarining cheklangan o‘lchamlari va og‘irligi

T/r	Jo‘natma turi	Og‘irligi (kg)	O‘rovdagi o‘lchamlari
1	2	3	4
1.	Xat	2	229×324 mm; 162×229 mm; 110×220 mm; 114×162 mm
2.	Pochta varaqchasi	—	105×148 mm
3.	Banderol, shu jumladan, bitta kitob joylangan	2	Eng ko‘p: uzunligi, eni va qalinligi yig‘indisi — 900 mm, shu bilan birga eng katta o‘lcham 2 mm og‘ish bilan, 600 mm dan oshmasligi kerak; o‘ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig‘indisi — 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm og‘ish bilan, 900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: 2 mm og‘ish bilan,

1-jadvalning davomi

			900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: 2 mm og'ish bilan, 90×140 mm; o'ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi — 170 mm, shu bilan birga eng katta o'lchami 100 mm dan oshmasligi kerak.
4.	Sekogramma	7	Eng ko'p: uzunligi, eni va qalinligi yig'indisi — 900 mm, shu bilan birga eng katta o'lcham 2 mm og'ish bilan, 600 mm dan oshmasligi kerak; o'ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi — 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm og'ish bilan, 900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: o'lchamlar 2 mm og'ish bilan, 90×140 mm dan kam bo'lmasligi kerak; o'ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi — 170 mm, shu bilan birga eng katta o'lchami 100 mm dan oshmasligi kerak.
5.	Mayda paket	2	O'rovdagi o'lchamga bo'lgan talablar, banderollarga qo'yiladigan talablarga mos keladi.
6.	Posilka a) bo'lina- digan joy- lanma bilan; b) bo'linmay- digan joy- lanma bilan	10 15	Eng ko'p: o'lchamlardan biri uchun 1,50 m yoki uzunligi va uzunlikdan boshqa yo'nalishda olingan eng katta aylana yig'indisi 3 m. Eng kam: 2 mm og'ish bilan, 90×140 mm (eng kam qalinligi 50 mm bo'lganda).
7.	Tezkor pochta jo'natmasi: a) hujjatlar bilan; b) tovarlar bilan	2 20	Har qanday o'lchami — 1500 mm dan ko'p emas. Uzunligi va eng katta ko'ndalang kesimi perimetrining yig'indisi — 3000 mm dan ko'p emas.

8.	Tegishli o'rovdagi bosma nashrlar	2	Eng ko'p: uzunligi, eni va qalinligi yig'indisi — 900 mm, shu bilan birga eng katta o'lcham 2 mm og'ish bilan, 600 mm dan oshmasligi kerak; o'ramlar uchun: uzunlik va ikkilangan diametr yig'indisi — 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm og'ish bilan, 900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: o'lchamlar 2 mm og'ish bilan, 90×140 mm dan kam bo'lmasligi kerak; o'ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi — 170 mm, shu bilan birga eng katta o'lchami 100 mm dan oshmasligi kerak.
----	-----------------------------------	---	---

Jismoniy shaxslar tomonidan jo'natiladigan, ro'yxatga olinadigan ichki pochta jo'natmalari pochta aloqasi obyektlarida ochiq holda qabul qilinadi.

Yuridik shaxslar tomonidan jo'natiladigan, ro'yxatga olinadigan ichki pochta jo'natmalari yuborish uchun, jo'natuvchining muhri yoki plombasi ostida ham ochiq, ham yopiq holda topshirilishi mumkin (buyurtma xatlarni jo'natishda konvert klapanlarida jo'natuvchilarga berilgan muhr izi tushirilgan holda). Pochta jo'natmasida jo'natilishi taqiqlangan predmetlar yoki moddalar borligi to'g'risida shubha paydo bo'lganda, pochta aloqasi xodimiga jo'natuvchi ishtirokida ko'rsatilgan jo'natmalarni, qo'yilmalarni tekshirish uchun ochish huquqi beriladi. Jo'natish taqiqlangan qo'yilmalar aniqlanganda, ular qabul qilinmaydi. Agar qo'yilma xususiyati uni pochta jo'natmasining berilgan ko'rinishda (toifada) jo'natishga mos kelmasa, pochta aloqasi xodimi uni pochta jo'natmasining boshqa turi (toifasi) bilan jo'natishni tavsiya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Umumjahon pochta ittifoqi aktlari bilan taqiqlangan va cheklangan predmetlar hamda moddalarning ichki va xalqaro pochta jo'natmalarida jo'natilishi taqiqlanadi va cheklanadi.

Ichki pochta, kuryerlik jo'natmalarida quyidagilarning jo'natilishi taqiqlangan:

a) o'qotar, signalli, pnevmatik, gazli qurollar, o'q-dorilar, sovuq qurol (jumladan, otiladigan), elektroshok qurilmalari va uchqunli razryadniklar, shuningdek, o'qotar qurolning asosiy qismlari,

jihozlanmagan portlash qurilmalari va o'q-dorilar, shu jumladan, jihozlanmagan granatalar, snaryadlar va boshqa o'xshash predmetlar, shuningdek, shunday qurilmalar va predmetlarning mulyajlari;

b) giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta'sir etadigan, radioaktiv, portlaydigan, zaharli, o'yuvchi, oson alanganadigan va boshqa xavfli moddalar;

d) O'zbekiston Respublikasining pul belgilari va xorijiy valuta (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning muassasalari tomonidan yuboriladiganlaridan tashqari);

e) axloqsizlik yoki buzuqlik xususiyatidagi predmetlar;

f) kontrafakt va qaroqchilik predmetlari;

g) olib kirish yoki muomalada bo'lishi tayinlangan mamlakatda taqiqlangan predmetlar (xalqaro pochta jo'natmalari uchun);

h) o'zining xususiyatiga yoki o'rovlanishiga ko'ra, pochta xodimlari yoki oddiy aholi uchun xavf tug'dirishi, boshqa jo'natmalarni va pochta uskunasi iflos qilishi yoki buzishi mumkin bo'lgan predmetlar;

i) joriy va shaxsiy yozishma mazmunidagi hujjatlar, shuningdek, jo'natuvchi va oluvchi bo'lmagan shaxslar yoki ular bilan yashovchi shaxslar almashinadigan oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari va banderollar;

j) tirik hayvonlar.

Ko'chalarda o'rnatiladigan pochta qutilariga o'lchami 114×162 mm va 110×220 mm bo'lgan pochta konvertlaridagi oddiy xatlar va pochta varaqchalari tashlanadi.

Milliy operator pochta aloqasi obyektlarining operatsion zallarida o'rnatiladigan maxsus pochta qutilariga, shuningdek, o'lchami 162×229 mm, 229×324 mm bo'lgan pochta konvertlaridagi oddiy xatlar ham tashlanishi mumkin.

Qiymati e'lon qilingan ichki xatlar jo'natiladigan barcha predmetlar ro'yxati bilan (ularning miqdori va qiymati ko'rsatilgan holda) qabul qilinadi. Qiymati e'lon qilingan ichki banderollar jo'natuvchining xohishiga ko'ra, qo'yilma ro'yxati bilan ham, qo'yilma ro'yxatisiz ham qabul qilinishi mumkin.

Ichki oddiy va buyurtma xatlarda yozma xabarlar, ish qog'ozlari, fotosuratlar, badiiy otkritkalar, sxemalar va boshqa qog'oz mahsulotlari yuboriladi.

Qiymati e'lon qilingan ichki xatlarda foydalanuvchi uchun muayyan qiymatga ega bo'lgan predmetlar va hujjatlar (qimmatli qog'ozlar, diplomlar, pasportlar, haydovchilik guvohnomalari,

pensiya ishlari, lotereya chiptalari, fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to'g'risidagi guvohnoma, yorliqlar, fotosuratlar, badiiy varaqchalar, qo'lyozmalar, pochta to'lovi davlat belgilari va boshqalar) jo'natiladi.

Ichki oddiy va buyurtma banderollarda qimmat bo'lmagan bosma nashrlar (blanklar, broshuralar, plakatlar, gazetalar, jurnallar, kitoblar va boshqalar), ish qog'ozlari, qo'lyozmalar, fotosuratlar, albomlar, daftarlar va boshqalar jo'natiladi.

Buyurtma banderollarda, bundan tashqari, badiiy adabiyot, tasviriy san'at bo'yicha adabiyot jo'natish mumkin.

Qiymati e'lon qilingan ichki banderollarda foydalanuvchi uchun muayyan qiymatga ega bo'lgan predmetlar, mahsulotlar va hujjatlar (madaniy-maishiy va ishlab chiqarishga mo'ljallangan predmetlar, bosma nashrlar, badiiy adabiyot, tasviriy san'at bo'yicha adabiyot, ish qog'ozlari, ovoz yozuvlari, dorilar, uzoq muddat saqlanadigan oziq-ovqatlar va boshqalar) jo'natiladi.

Ichki posilkalarda sanoat mollari, uzoq muddat saqlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari, madaniy-maishiy mollari, bosma nashrlar, o'simliklar, tirik asalarilar, dori-darmonlar, tibbiyot preparatlari va boshqalar yuboriladi.

Ichki oddiy mayda paketlarda dorivor o'tlar, urug'lar, suvenir mahsulotlar (breloklar, magnitlar va boshqalar) yuboriladi.

Ichki buyurtma mayda paketlarda mayda sinmaydigan predmetlar yoki jo'natuvchi uchun muayyan qiymatga ega bo'lgan tovarlarning yagona namunalari, mahsulotning reklama namunalari (atirlar, kremlar va boshqalarning sinagichlari), kompakt kassetalar, kompakt disklar yuboriladi. Yuboriladigan qo'yilmaning qiymati tegishli og'irlikdagi ichki buyurtma banderol yo'qolganda o'rnini qoplaydigan summadan oshib ketmasligi kerak.

Pochta jo'natmalarini o'rovlash qo'yilma xususiyatiga, jo'natish shartlariga va yo'lning uzoqligiga mos kelishi, ishlov berish va tashish paytida qo'yilma shikastlanishi, qobiq, muhrlar, plombalar, bog'lamlar, tasmalar va shu kabilarni buzmasdan unga bemalol kira olish, boshqa pochta jo'natmalarining buzilish va pochta aloqasi xodimlariga qandaydir ziyon yetishi mumkinligining oldini olishi kerak.

Xatlarni o'rovlash uchun pochta konvertlaridan foydalaniladi.

Banderollar va sekogrammalarni o'rab joylash uchun pochta konvertlari, g'iloflar, karton qutilar, yog'och (faner) qutilar qo'llaniladi. Banderollarni o'rab joylash uchun materiallar sifatida pishiq qog'oz, polietilen plyonka, och rangdagi sidirg'a gazlamadan

va sertifikatlashtirilgan o'rovlash materiallarining boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Agar banderolda yoki sekogrammada bir nechta predmet yuboriladigan bo'lsa, bu predmetlar o'rovlashdan oldin shpagat bilan bog'lanadi. Og'irligi 500 g dan ortiq bo'lgan oddiy va buyurtma banderollar hamda sekogrammalar, bundan tashqari, o'rov materiali ustidan xochsimon shaklda shpagat bilan bog'lanadi.

Banderol yoki sekogramma qo'yilmasi nay shaklida o'ralishi va qo'shimcha ravishda qog'oz yoki boshqa tasma bilan mahkamlanishi mumkin, uzunligi 45 sm dan ortiq bo'lgan qo'yilmalar qattiq asosga o'raladi.

Posilkalar jo'natuvchilar tomonidan posilka qutilarga (karton, yog'och, faner va polimer) yoki yumshoq o'rov materialiga o'rab joylashtirilishi kerak.

Yumshoq o'rov materiali (mato) sidirg'a och rangda bo'lib, ichki chok bilan (tikuv mashinasida yoki qo'lda) tikilgan bo'lishi kerak, tashqi (konvertga o'xshash) chok bir xil iplar (quyuq baxya) bilan, faqat posilkaning bir tomonidan (manzil yozilgan joydan chapda) bajariladi.

Metall tasmalar yoki sim bilan mahkamlangan, mixlari yaxshi qoqilmagan va yaxshi qayrilmagan qutilardagi, shuningdek, jo'natish uchun yaroqsiz bo'lgan posilka qutilaridagi posilkalar qabul qilinmaydi.

Posilka qo'yilmasi o'rov ichida siljimasligi kerak.

Jo'natuvchilar posilka joylanmasining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq ravishda quyidagi shartlarga rioya qilishlari kerak:

a) shisha yoki boshqa nozik predmetlar tegishli himoya materiali bilan to'ldirilgan mustahkam qutilarga joylashtirilishi lozim. Tashish paytida predmetlar o'rtasida yoki predmetlar bilan quti devorlari o'rtasida ishqalanish yoki urilishlarga yo'l qo'yilmasligi kerak;

b) kinofilmlar, kinotasmalar, magnit tasmalar maxsus taraga joylanishi zarur;

d) urug'lar, pistalar, yong'oqlar, quruq mevalar, un va boshqa sochiluvchan moddalar pishiq mato, klyonka, plyonkadan tayyorlangan qopchalarga, pishiq qog'oz paketlarga o'rovlanadi va qutilarga yoki karton qutilarga joylanadi;

e) suyuqliklar va suyuq holatga oson o'tadigan moddalar (soklar, siroplar, yog'lar, murabbo, asal, mevalar va boshqalar) zich berkitilgan idishlarga joylashtirilishi kerak. Har bir idish shikastlanganda suyuqlikni shimib olish uchun yetarli miqdordagi tegishli himoya materiali bilan to'ldiriladigan maxsus mustahkam

qutiga joylashtirilishi kerak. Qutining qopqog‘i u oson ochilib ketmaydigan qilib mahkamlanishi shart;

f) malham dori, yumshoq sovun, mum kabi suyuq holatga qiyin o‘tadigan yog‘li moddalar, shuningdek, ipak qurti urug‘i ichidagisi oqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ancha mustahkam materialdan qilingan ikkinchi qutiga keyin solinadigan birlamchi qobiqqa (quti, kanop qop, plastik material va hokazo) bekitilishi kerak;

g) ko‘chatlar usti mato bilan o‘ralgan savatlarga yoki shamolatish uchun teshiklari bo‘lgan qutilarga joylanadi. Savat (quti) tubiga polietilen (plyonka) solinadi;

h) anilin ko‘k bo‘yoq kabi bo‘yovchi quruq kukunlar va shu kabilarni faqat o‘z navbatida, ikkala o‘rov o‘rtasida tegishli himoyalovchi va yutuvchi material bo‘lgan mustahkam qutilarga joylashtiriladigan, metalldan qilingan zich berkiladigan qutilarda jo‘natishga ruxsat etiladi;

i) bo‘yamaydigan quyuq kukunlar mustahkam sig‘imlarga (quti, qop) joylashtirilishi kerak. Bu sig‘imlar mustahkam materialdan qilingan qutiga joylashtirilishi lozim;

j) tirik asalarilar, drozofil (*Drosophilidae*) oilasiga kiradigan mayda pashshalar, zuluklar va parazitlar tuzilishi joylanmaning xavfliligini va saqlanishi oldini oladigan qutilarga joylashtirilishi kerak;

k) fabrikada ishlov berilmagan mo‘yna va kemiruvchilarning terilari, shuningdek, jun, dag‘al jun, soch, par va patlar solingan posilkalar dastlab matoga (qop matoga, polietilen plyonkaga), so‘ngra qutilarga (karton qutilarga) joylashtirilishi kerak;

l) aniq asboblari (o‘lchash asboblari va boshqalar) jo‘natishda joylanmaning siljishi va shikastlanishini istisno qiladigan qistirmali qattiq taraga o‘rab joylashtirilishi kerak. Bunday posilkalar panjarasimon to‘r ko‘rinishida yasalgan qutilarga o‘rab joylashtirilishi mumkin. Panjarasimon to‘r ichiga asbobni qattiq siqib turadigan va uni karkasga urilib ketishdan saqlaydigan maxsus mahkamlovchi tizim o‘rnatiladi;

m) jonli o‘simliklar (tok novdalari, ko‘chatlar va boshqalar), shuningdek, o‘tkir qirralari va g‘adir-budurliklari bo‘lmagan, o‘z o‘lchamlari tufayli belgilangan o‘lchamdagi posilka tarasiga (og‘irligi yo‘l qo‘yiladigan normadan oshmaydigan) o‘rab joylash mumkin bo‘lmagan yirik gabaritli sinmaydigan predmetlar jo‘natish uchun qop matoga (gazlamaga) o‘rovlangan holda qabul qilinadi;

n) sinmaydigan va ifloslanmagan yaxlit predmetlar, shuningdek, o‘lchamlari va og‘irligi belgilangan normalardan oshmaydigan ajralmaydigan predmetlar (chizmachilik taxtalari, bolalar

chanalari, jomadonlar, bidonlar va shu kabilar), o'tkir qirrali predmetlardan tashqari, qutilarga yoki matolarga o'ralmasdan jo'natilishi mumkin;

o) yangi uzilgan sabzavot va mevalarning qattiq navlari solingan posilkalar chetki va yon devorlari shamollatish teshiklari yoki vertikal teshiklar bo'lgan yog'och (faner) qutilarda qabul qilinadi;

p) avtopokrishkalar pochta qoplariga joylanadi.

Bosma nashrlar shaffof polietilen o'rov materialiga o'raladi yoki qog'oz tasma, yoki bo'lmasa boshqa tasma bilan mahkamlanadi (banderol qilinadi). Bosma nashrlar naychasi qilib o'ralishi mumkin, uzunligi 45 sm dan oshganda ular qattiq asosga o'raladi.

Ichki pochta jo'natmalarida, posilkalariga ilova qilinadigan blanklarda, shuningdek, pul o'tkazmalarining blanklarida jo'natuvchi va adresat manzillari jo'natuvchi tomonidan yoziladi. Manzilda qisqartirilgan nomlar, shuningdek, manziliga taalluqli bo'lmagan belgilar bo'lmasligi kerak.

Manzil rekvizitlari quyidagi tartibda yoziladi:

— adresatning nomi (fuqarolar uchun — familiyasi, ismi, otasining ismi, yuridik shaxslar uchun — to'liq nomi);

— ko'chaning nomi, uy raqami, xonadon raqami;

— aholi punktining (shahar, posyolka va shu kabi) nomi;

— tuman nomi;

— pochta indeksi, respublika, viloyat nomi.

Oluvchining manzili pochta konverti, pochta varaqchasi yoki pochta jo'natmasi o'rovining pastki o'ng qismida, jo'natuvchining manzili esa, yuqori chap burchakda yoziladi.

Pochta jo'natmalari, posilkalarga ilova qilinadigan blanklardagi, shuningdek, pul o'tkazmalari blanklaridagi barcha manzil ma'lumotlari siyoh bilan (agar imkoni bo'lsa, bosma harflar bilan) aniq qilib yoziladi yoki bosmaxona usulida yozuv mashinkasida, yoki zarur aniqlik bilan boshqa texnik vositalardan foydalanib yoziladi. Pul o'tkazmasi blankida tuzatish, o'chirib tashlash, raqamlar va harflarning ustidan takror bo'yashga, qalam bilan qilingan yozuvlarga, shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalari manzilida qisqartmalarga yo'l qo'yilmaydi. Blanklarda blanklar matniga kiritilgan belgilardan tashqari, har qanday belgilarni qo'yish taqiqlanadi, xizmatga oid ko'rsatmalar bundan mustasno.

Tezkor pochta jo'natmalarida, pul o'tkazmalari blanklarida, posilkalarga ilova qilinadigan manzillarda, ular kelganligi to'g'risida xabar berish mumkin bo'lgan adresatlarning telefon raqamlari ko'rsatiladi.

Pochta jo‘natmalariga bosmaxona usulida yozuv mashinkasida (yirik shrift bilan), boshqa texnik vositalardan foydalanib bosilgan yoki qo‘lda yozilgan manzil yorliqlarini yopishtirish mumkin. Yorliqlar uchun oq qog‘ozdan yoki och rangdagi qog‘ozdan foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida yuboriladigan pochta jo‘natmalaridagi manzillar davlat yoki rus tillarida rasmiylashtiriladi.

Pochta jo‘natmalari va pul o‘tkazmalari adresatning familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatilgan holda yo‘qlab olinadigan qilib yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi yoki adresatning familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatilgan holda abonement pochta qutisiga yo‘llanishi mumkin. Bunday jo‘natmalar uchun initsiallar, raqamlar, faqat nomlar, soxta nomlar yoki biror shartli belgilarning ko‘rsatilishiga ruxsat etilmaydi.

Jo‘natuvchi ichki pochta jo‘natmalari va pul o‘tkazmalarining manzili tomonida ularning turi, toifasi va turkumiga bog‘liq holda quyidagi belgilarni qo‘yadi:

a) buyurtma xatlarda va pochta varaqchalarida — «*Buyurtma*» — «*Заказное*»;

b) oddiy (buyurtma) sekogrammalarda — «*Oddiy (buyurtma) sekogramma*» — «*Простая (казная) секограмма*»;

d) qiymati e‘lon qilingan xatlar, banderollar va posilkalarda — «*E‘lon qilingan qiymati ... so‘t*» — «*Объявления ценность... сум*». Ustama to‘lov bilan yuboriladigan qiymati e‘lon qilingan xatlarda, banderollarda va posilkalarda bundan tashqari — «*Ustama to‘lov ... so‘t*» — «*Наложённый платеж ... сум*», joylanma ro‘yxati bilan yuboriladiganlarda — «*Ro‘yxati bilan*» — «*С описью*». Bu belgilar, shuningdek, posilkalarga ilova qilinadigan blanklarga ham qo‘yiladi;

e) sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llanmalar solingan qiymati e‘lon qilingan xatlarda, temiryo‘l, aviatsiya chiptalarida va boshqa yo‘l chiptalarida, o‘quv yurtlariga yo‘llanadigan hujjatlarda «*Yo‘llanmalar bilan*» — «*С путевками*», «*Chiptalar bilan*» — «*С билетами*» yoki «*Hujjatlar bilan*» — «*С документами*» belgisi qo‘yiladi;

f) olinganlik to‘g‘risidagi bildirishnoma bilan qabul qilingan jo‘natmalarda va oddiy hamda tezkor pul o‘tkazmalari blanklarida — «*Oddiy (buyurtma, tezkor) bildirishnoma bilan*» — «*С простым (казным ускоренным) уведомлением*». Bu belgi, shuningdek, posilkalarga ilova qilinadigan blanklarda ham qo‘yiladi;

e) yetkazib berish haqi to‘langan jo‘natmalarda va pul o‘tkazmalari blanklarida — «*Eltib berish bilan*» — «*С доставкой*»;

h) tezkor pochta ichki jo‘natmalarida «*Tezkor pochta*» — «*Ускоренная почта*»;

i) adresatga shaxsian topshirish uchun qabul qilingan, ro‘yxatga olinadigan jo‘natmalarda — «*O‘z qo‘liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*»;

j) nozik predmetlar, shu jumladan, aniq asboblar, shuningdek, shunday joylanmali posilkalarga ilova qilinadigan blanklarda — «*Ehtiyot qiling*» — «*Осторожно*»;

k) tanlov komissiyasiga yuborilgan jo‘natmalarda — «*Tanlovga*» — «*На конкурс*»;

l) posilkalar va ularga ilova qilinadigan blanklarda:

— og‘irligi 10 kg dan ortiq posilkalarda — «*Og‘ir vaznli*» — «*Тяжеловесная*»;

— tomonlari o‘lchamlardan biri uchun 1,50 m dan oshadigan hamda uzunlik va uzunlikdan boshqa yo‘nalishda olingan eng katta aylana summasi 3 m dan oshadigan posilkalarda — «*Yirik gabaritli*» — «*Громоздкая*»;

— ko‘chatli posilkalarda — «*Ko‘chat bilan*» — «*С пассадой*»;

— tirik asalarilar solingan posilkalarda — «*Ehtiyot qiling. Asalarilar. Quyoshda tutib turilmasin. Veterinariya guvohnomasi bilan*» — «*Осторожно. Пчёлы. На солнце не держатъ. С ветеринарным свидетельством*»;

— mo‘yna va kemiruvchilar terisi solingan posilkalarda — «*Mo‘yna. Veterinariya guvohnomasi bilan*» — «*Пушнина. С ветеринарным свидетельством*»;

— jun dag‘al jun, soch, pat, momiq solingan posilkalarda — «*Jun (dag‘al jun, soch, pat, momiq). Veterinariya guvohnomasi bilan*» — «*Шерсть (щетина, волосы, перо, пух). С ветеринарным свидетельством*»;

— yangi mevalar va sabzavotlar solingan posilkalarda, tegishli — «*Mevalar*» — «*Фрукты*», «*Sabzavotlar*» — «*Овоощи*»;

m) havo transporti bilan jo‘natiladigan posilkalarda, ularga ilova qilinadigan blanklarda, mayda paketlarda va banderollarda — «*Avia*» — «*Авиа*». Yerusti transporti va havo transporti bilan jo‘natiladigan posilkalarda, ularga ilova qilinadigan blanklarda, mayda paketlarda va banderollarda ular qaysi punktdan jo‘natilayotgani ko‘rsatiladi: «*...dan avia*» — «*Авиа от...*»;

n) foydalanuvchilarning alohida toifalari tomonidan yuboriladigan pochta jo‘natmalarida va posilkalarga ilova qilinadigan blanklarda «*HUKUMATGA OID*»;

o) chaqiruv qog‘ozi bo‘lgan buyurtma xatlarda — «*Chaqiruv qog‘ozi. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Повестка. С заказным уведомлением*»;

p) xizmatga oid pochta jo‘natmalarida — «*Xizmatga oid*» — «*Служебное*»;

q) ustavor jo‘natmalarda — «*Ustavor*» — «*Приоритетное*»;

r) oddiy (buyurtma) mayda paketlarda — «*Oddiy (Buyurtma) mayda paket*» — «*Простой (Заказной) мелкий пакет*»;

s) oddiy (buyurtma) banderollarda — «*Oddiy (Buyurtma)*» — «*Простая (Заказная)*»;

t) bosma nashrlarda — «*Vosma nashrlar*» — «*Печатные издания*».

Posilkalarni topshirishda jo‘natuvchi ularga ilova qilinadigan blanklarda o‘z imzosi bilan «*Jo‘natishga taqirlangan joylanmalar yo‘q. O‘rovga qo‘yilgan talablar bilan tanishdim*» — «*Запрещённых к пересылке вложений нет. С требованиями к упаковке ознакомлен*» matnini tasdiqlaydi.

Posilkalarni topshirishda jo‘natuvchi ilova qilinadigan blanklarda va pul o‘tkazmalari blanklarida shaxsni tasdiqlovchi hujjatlardan biridagi ma’lumotlarni ko‘rsatadi.

Qiymati e‘lon qilingan pochta jo‘natmalari ustama to‘lov bilan yuborilishi mumkin. Ustama to‘lov summasi pochta jo‘natmasining e‘lon qilingan qiymati summasidan oshib ketmasligi kerak.

Ustama to‘lovli xalqaro xatlar va posilkalar faqat ikki tomonlama bitim tuzilgan mamlakatlargagina jo‘natishga qabul qilinadi.

Alohida jo‘natuvchilar va adresatlar uchun ichki pochta jo‘natmalarining quyidagi turkumlari belgilanadi:

a) «*HUKUMATGA OID*» belgisi bo‘lgan pochta jo‘natmalari foydalanuvchilarning alohida toifalari tomonidan jo‘natiladigan pochta jo‘natmalari kiradi;

b) harbiy pochta jo‘natmalari, ularga harbiy qismlar va muassalar, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibi tomonidan jo‘natiladigan va olinadigan pochta jo‘natmalari kiradi;

d) xizmatga oid pochta jo‘natmalari, ularga pochta aloqasi operatorlarining, o‘zlarining pochta aloqasi tarmoqlari orqali to‘lovsiz jo‘natiladigan pochta jo‘natmalari kiradi.

Yangi mevalar va sabzavotlarning qattiq navlari solingan posilkalar tayinlangan joygacha pochta tashiydigan havo kemalari-ning to‘g‘ri reyslari bo‘lgandagina, temiryo‘l va avtomobil transporti bilan jo‘natishda — bunday posilkalar uch kundan ortiq bo‘lmagan

muddatda o'tishi sharti bilan, bu muddatdan o'tib ketganda — jo'natuvchilarning javobgarligi ostida qabul qilinadi.

Ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmasi yoki pul o'tkazmasini qabul qilishda jo'natuvchiga pochta-kassa apparati kvitansiyasi yoki kvitansiya daftaridan olinadigan kvitansiya beriladi. Kvitansiya daftaridan olinadigan kvitansiya berilganda, kvitansiyaning orqa tomonida taqvim shtempeli izi qo'yiladi.

Yetkazib berish uchastkasini aylanib chiqish vaqtida, aloqa xodimi tomonidan buyurtma pochta jo'natmalarini qabul qilishda 3-shakldagi daftardan kvitansiyaga qabul qilish sanasi qo'lda yozib ko'rsatiladi.

Agar pochta, kuryerlik jo'natmasining manzili Toshkent, Nukus shaharlari yoki viloyat markazi bo'lmasa, u holda 1-, 3-shakldagi daftarlar kvitansiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi yoki viloyatning nomi hamda pochta aloqasi obyektining nomi ko'rsatiladi.

Pochta jo'natmasi, shuningdek, pul o'tkazmasi qabul qilinganligi to'g'risidagi kvitansiyaning dublikati berilmaydi.

Qiymati e'lon qilingan ichki xatlar, posilkalarning summasi cheklanmaydi va u jo'natuvchi tomonidan joylanmaning haqiqiy narxiga ko'ra to'liq so'mlarda belgilanadi. Qiymati e'lon qilingan banderol bilan birga e'lon qilingan qiymati O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining (bundan keyin matn bo'yicha — eng kam ish haqining) uch barobaridan ortiq baholangan joylanma jo'natilishi mumkin.

Qog'oz o'rovdagi posilkalarning e'lon qilingan qiymat summasi eng kam ish haqining uch barobaridan oshmasligi kerak.

Jo'natuvchi har bir ichki va xalqaro posilkaga ilova qilinadigan blankni to'ldiradi. Qiymati e'lon qilingan ichki posilkalarni topshirishda jo'natuvchining istagiga ko'ra, qiymati e'lon qilingan xatlarni va banderollarni topshirishda bo'ladigan tartibda, joylanmaning ro'yxati tuzilishi mumkin.

Quyidagilar yetkazib berish to'lovi bilan qabul qilinmaydi.

a) eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ko'p bo'lgan summadagi qiymati e'lon qilingan xatlar;

b) yuridik shaxslarga yo'llangan qiymati e'lon qilingan xatlar va banderollar;

d) posilkalar;

e) ustama to'lovli pochta jo'natmalari;

f) yo'qlab olinadigan, harbiy qismlarga va abonement pochta javoniga yo'llangan pochta jo'natmalari va pul o'tkazmalari.

Jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan topshiriladigan besh dona va undan ortiq bo‘lgan miqdordagi ro‘yxatga olinadigan ichki pochta jo‘natmalari jo‘natuvchi tomonidan belgilangan shakldagi ro‘yxat rasmiylashtirish sharti bilan pochta aloqasi obyektiga tomonidan jo‘natish uchun qabul qilinadi. Jo‘natuvchi tomonidan bitta ro‘yxatga nomma-nom bir turdagi 40 tadan ko‘p bo‘lmagan pochta jo‘natmalari, 50 tagacha pul o‘tkazmalari yoziladi. Ro‘yxat bo‘yicha qabul qilingan pochta jo‘natmalari va pul o‘tkazmalariga bitta kvitansiya beriladi. Bitta jo‘natuvchi tomonidan jo‘natiladigan, bir vaqtda bir nechta ro‘yxat bo‘yicha qabul qilinadigan pochta jo‘natmalari, pul o‘tkazmalariga bitta umumiy yoki har bir ro‘yxatga alohida kvitansiyalar yoziladi.

Tezkor pul o‘tkazmalari jo‘natish uchun belgilangan shakldagi alohida ro‘yxatlar bo‘yicha qabul qilinadi.

«*O‘z qo‘liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*» belgisi bo‘lgan buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar va mayda paketlar adresatga shaxsan topshiriladi. Adresat bo‘lmaganda, abonent pochta javoni qutichasida yoki abonent pochta qutisida adresat pochta jo‘natmasini olish uchun pochta aloqasi obyektiga taklif qilingan xabarnoma qoldiriladi.

«*Chaqiruv qog‘ozi. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Повестка. С заказным уведомлением*» belgisi bo‘lgan buyurtma xatlar adresatga tilxat bilan shaxsan o‘ziga topshiriladi. Adresat bo‘lmaganda, bunday xatlar oilaning birgalikda yashaydigan voyaga yetgan a‘zolaridan biriga, ular bo‘lmaganda esa, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga yoki ish beruvchi (o‘quv yurti ma‘muriyatiga) topshiriladi. Bunda bildirishnomada tegishli belgilari bo‘lgan buyurtma xat topshirilgan shaxs ko‘rsatiladi.

Adresat «*Chaqiruv qog‘ozi. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Повестка. С заказным уведомлением*» belgisi bo‘lgan buyurtma xatni olishni rad etganda, u pochta aloqasi xodimi tomonidan tegishli belgi qo‘yiladigan 20-shakldagi ma‘lumotnoma bilan birga berilgan joyga qaytariladi.

Pochta jo‘natmalari jo‘natuvchi va oluvchining manzillari to‘liq va aniq yozilgan, yaroqli o‘rovda, shuningdek, pochta jo‘natmalarining manzili yoziladigan tomonida kerakli qo‘shimcha yozuvlar bilan, posilkalarni qabul qilishda esa 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida ham qabul qilinadi (9—14-rasmlar).

Jo'natuvchi manzili
Адрес отправителя

Kimdan/Ot kogo ***Islomova Sh.O.***
Qayerdan/Otkuda ***Temur Malik ko'chasi,***
57-uy, 162-xonadon,
Toshkent shahri, 100140

Oluvchi indeksi va manzili
Индекс и адрес получателя

Kimga/Komu ***Xadicha Olimovna***
Islomovaga
Qayerga/Kuda ***Olmazor ko'chasi, 5-uy,***
137-xonadon, Buxoro shahri, 200101

9-rasm. Konvertlar va pochta varaqchalariga
manzil yozish namunasi.

Ro'yxatga olinadigan mahalliy pochta jo'natmalarini qabul qilishda ularning raqamlanishi 1, 3-shakldagi daftarlar bo'yicha yuritiladi.

Shahardan tashqariga yuboriladigan ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalarining raqamlanishi ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalarining noyobligini ta'minlovchi qo'llaniladigan shtrixli

Oddiy banderol

Jo'natuvchi manzili
Адрес отправителя

Kimdan/Ot kogo ***Xafizova A.K.***
Qayerdan/Otkuda ***Shayxontohur tumani,***
Tinchlik ko'chasi,
56-uy, 8-xonadon,
Toshkent shahri,
100169

Oluvchi indeksi va manzili
Индекс и адрес получателя

Kimga/Komu ***Malika Azimovna Saidovaga***
Qayerga/Kuda ***Usmat qishlog'i,***
41-uy, Zomin tumani,
Jizzax viloyati, 131011

10-rasm. Banderollar o'roviga manzil yozish namunasi.

pochta identifikatorlari (bundan keyin matn bo'yicha — shtrixkod)ga muvofiq yuritiladi, ular pochta jo'natmalariga, 1, 3-shakllardagi kvitansiyalarining birinchi nusxalariga, shuningdek, posilkalar uchun 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanklariga va 2-shakldagi yorliqlarga yopishtiriladi.

Quyidagilar to'langan holda yetkazib berishga qabul qilinmaydi:

— eng kam ish haqining o'n barobaridan ortiq baholangan summadagi qiymati e'lon qilingan xatlar;

— yuridik shaxslar manziliga yo'llangan qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar;

— posilkalar;

— ustama to'lovli pochta jo'natmalari;

— yo'qlab olinadigan, harbiy qismlarga va abonement pochta javonining qutichalariga manzillangan pochta jo'natmalari.

Ichki pochta jo'natmalari ishlov berish va tashish tezligiga bog'liq ravishda ustuvor va ustuvor bo'lmagan pochta jo'natmalariga bo'linadi.

Ustuvor jo'natmalarga eng tez yo'l orqali (havo yoki yer) ustuvor tartibda ishlov beriladi va ular uchun birmuncha yuqori tarif belgilanadi. Ustuvor bo'lmagan jo'natmalarning tarifi birmuncha past va jo'natish hamda yetkazib berish (topshirish) muddati birmuncha uzoq bo'ladi.

Jo'natuvchi manzili Адрес отправителя
Kimdan/От кого <i>Hamdamov X.S.</i>
Qayerdan/Откуда <i>Chilonzor,</i> <i>20-mavze, 15-uy, 42-xonadon,</i> <i>Toshkent shahri, 100156</i>
Oluvchi indeksi va manzili Индекс и адрес получателя
Kimga/Кому <i>Ismat Naimovich</i> <i>Boboyevga</i>
Qayerga/Куда <i>Yo'qlab olinadigan</i> <i>Toshkent sh., pochтамt</i> <i>100000</i>

11-rasm. Yo'qlab olinguncha manzillangan xatlar konvertlariga manzil yozish namunasi.

**Buyurtma bildirishnoma bilan
E'lon qilingan qiymati 15000
(o'n besh ming) so'm**

Jo'natuvchi manzili
Адрес отправителя

Kimdan/От кого **Haydarov Akbar**

Sardorovich

Qayerdan/Откуда **Uchtepa tumani,**

Ko'kchinor ko'chasi, 132-uy,

Toshkent shahri, 100151

Oluvchi indeksi va manzili
Индекс и адрес получателя

Kimga/Кому **Aliyev Sulaymon**

Ergashevichga

Qayerga/Куда **Oqqo'rg'on shahri,**

Oxunboboyev ko'chasi, 52-uy

Toshkent viloyati, 110408

12-rasm. Olinganligi to'g'risidagi buyurtma bildirishnomali
qiymati e'lon qilingan xatlar konvertlariga manzil va
qo'shimcha yozuvlar yozish namunasi.

**E'lon qilingan qiymati 5000
(besh ming) so'm
ustama to'lov 4950 so'm**

Jo'natuvchi manzili
Адрес отправителя

Kimdan/От кого **Komilov Zoir**

Komilovich

Qayerdan/Откуда **Komil Yashin ko'chasi,**

6-uy, 52-xonadon,

Toshkent shahri, 100100

Oluvchi indeksi va manzili
Индекс и адрес получателя

Kimga/Кому **Olim Akbarovich**


Jo'rayevga

Qayerga/Куда **At-Termiziy**

ko'chasi, 157-uy,

Termiz shahri, 190112

13-rasm. Qiymati e'lon qilingan va ustama to'lovli banderollar o'rovlariga
manzil va qo'shimcha yozuvlar yozish namunasi.

V	Toshkent 17 № _____	 *RB155833057UZ*
Buyurtmali O'z qo'liga topshirilsin Buyurtma bildirishnoma bilan		
<div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;"> Jo'natuvchi manzili Адрес отправителя </div>		
Kimdan/От кого Jumayev Sohib <hr/> Shokirovich Qayerdan/Откуда Qiyalik ko'chasi, 4- uy, Toshkent shahri, 100007		
<div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;"> Oluvchi indeksi va manzili Индекс и адрес получателя </div>		
Kimga/Кому Saida Akbarovna <hr/> Murodovaga Qayerga/Куда Olmazor ko'chasi, 35-uy, 52-xonadon, Samarqand shahri 140116		

14-rasm. «O'z qo'liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan» belgili buyurtma xatlarning manzil tomonini rasmiylashtirish namunasi.

Nazorat savollari

1. Ichki pochta jo'natmalariga nimalar kiradi?
2. Ichki pochta kuryerlik jo'natmalarida qaysi buyumlarning jo'natilishi taqiqlanadi?
3. Manzil rekvizitlarining yozilish tartibini bayon eting.
4. O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida yuboriladigan pochta jo'natmalaridagi manzillar qaysi tilda rasmiylashtiriladi?

**4-BOB. ICHKI POCHTA JO‘NATMALARINI
QABUL QILISH, ISHLOV BERISH VA
YETKAZIB BERISH (TOPSHIRISH)**

**4.1. Ichki oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari,
banderollar, mayda paketlar, sekogrammalar,
tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar**

**4.1.1. Xatlar, pochta varaqchalari, banderollar,
mayda paketlar, sekogrammalar, tegishli o‘rovdagi
bosma nashrlarni qabul qilish**

Tashqi pochta qutilariga faqat 114×162 mm va 110×220 mm o‘lchamdagi konvertlarga joylangan oddiy xatlar va 105×148 mm o‘lchamdagi pochta varaqchalari tashlanishi mumkin. Pochta aloqasi obyektlarining operatsion zallarida o‘rnatiladigan maxsus pochta qutilariga 162×229 mm, 229×324 mm o‘lchamdagi pochta konvertlarida oddiy xatlar ham tushirilishi mumkin.

Banderollar, sekogrammalar, tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar, oddiy mayda paketlar, shuningdek, frankirlash mashinalarida rasmiylashtirilgan xatlar va pochta varaqchalari pochta aloqasi obyektlariga topshiriladi. Taqvim shtempeli izining sanasi pochta aloqasi obyektida ularni topshirish sanasiga muvofiq bo‘lishi kerak.

Barcha oddiy banderollar va oddiy mayda paketlar, buyurtma pochta jo‘natmalari jo‘natuvchilar tomonidan pochta aloqasi obyektlariga topshiriladi.

Oddiy banderollar va oddiy mayda paketlar, buyurtma xatlar, buyurtma banderollar, buyurtma mayda paketlar jismoniy shaxslardan aloqa xodimi tomonidan, joylanmani tekshirib, ochiq holda qabul qilinadi.

Oddiy banderollar va oddiy mayda paketlar, buyurtma xatlar, buyurtma banderollar, buyurtma sekogrammalar, oddiy va buyurtma mayda paketlar yuridik shaxslardan ochiq holda hamda jo‘natuvchining muhri yoki plombasi ostida ham ochiq, ham yopiq holda qabul qilinishi mumkin. Pochta jo‘natmasida jo‘natilishi taqiqlangan predmetlar borligi to‘g‘risida shubha paydo bo‘lganda, pochta aloqasi xodimiga, jo‘natuvchi ishtirokida ko‘rsatilgan

jo‘natmalarni, joylanmani tekshirish uchun ochish huquqi beriladi.

Buyurtma xatlar, buyurtma banderollar, buyurtma sekogrammalar, buyurtma mayda paketlarda jo‘natish mumkin bo‘lmagan joylanmalar aniqlanganda, ular qabul qilinmaydi. Aloqa xodimi bunday holatda, ushbu joylanmani pochta jo‘natmalarining tegishli turi (toifasi) bilan jo‘natishni taklif etishi kerak.

Tegishli o‘rovdagi bosma nashrlarni jo‘natishda jo‘natuvchi tomonidan oluvchi va jo‘natuvchining manzillari yoziladigan bosma usulda tayyorlangan yoki qo‘lda yozilgan va «*Bosma nashrlar*» — «*Печатные издания*» yozuvi yozilgan manzil yorlig‘i rasmiylashtiriladi.

Tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar qabul qilinishini tasdiqlash uchun aloqa xodimi qabul qilish sanasi bo‘lgan taqvim shtempeli izini manzil yorlig‘ining o‘ng yuqori burchagiga tushiradi. Rasmiylashtirilgan manzil yorlig‘i bosma nashr o‘ralgan qog‘oz tasmaga yopishtiriladi yoki shaffof polietilen qobiq ichiga joylanadi. Shaffof polietilen qobiqning ochiq tomonlari termopayvandlash mashinasida, choklarda pochta indeksi va pochta aloqasi obyektining nomini tushirgan holda kavsharlanadi.

Qabul qilinadigan buyurtma pochta jo‘natmasi (xat, pochta varaqchasi, banderol)ga yopishtirilgan pochta markalari qabul qilish sanasi bo‘lgan taqvim shtempeli izi bilan hisobdan chiqariladi.

Mahalliy buyurtma pochta jo‘natmasi (xat, pochta varaqchasi, banderol, sekogramma)ni qabul qilishda manzil tomonining yuqori chap qismidagi bo‘sh joyga aloqa xodimi pochta jo‘natmasini qabul qilgan pochta aloqasi obyektining nomi ko‘rsatilgan 3-sh. yorliqni (15-rasm) yopishtiradi va 3-sh. daftar bo‘yicha jo‘natmaning raqamini ko‘rsatadi. 3-sh. yorliq o‘rniga uning o‘rnini bosuvchi shtamp izi tushirilishi mumkin.

Shahardan tashqariga yuboriladigan buyurtma pochta jo‘natmani qabul qilishda, 3-shakldagi daftar bo‘yicha raqam o‘rniga

B	Toshkent 100 № _____
----------	--------------------------------

15-rasm. Buyurtma jo‘natmalar uchun yorliq yoki 3-shakldagi shtamp izining namunasi.



RB101234567UZ


16-rasm. Buyurtma pochta jo‘natmalari uchun shtrixkod namunasi.

buyurtma pochta jo‘natmasining manzil tomonining yuqori chap qismidagi bo‘sh joyga shtrixkod yopishtiradi (16-rasm).

Shaffof polietilen qobiqda qabul qilinadigan buyurtma banderol, buyurtma sekogramma, buyurtma mayda paketga manzil yorlig‘i ham xuddi shu tartibda rasmiylashtiriladi. Bunda manzil yorliq polietilen o‘rov ostiga qo‘yiladi.

Buyurtma mayda paketlar qiymati e‘lon qilingan banderollar uchun belgilangan tartibda o‘rovlanaadi, sug‘urta muhri bilan muhrlanaadi.

Buyurtma pochta jo‘natmalari (xat, pochta varaqchasi, banderol, sekogramma)ni qabul qilishda jo‘natuvchiga 3-shakldagi daftardan (17-rasm) nusxasiz yozilgan kvitansiya, buyurtma mayda


		3-sh.	
«O‘zbekiston pochtasi» aksiyadorlik jamiyati			
44-son KQUITANSIYA			
		RB105004157UZ	
buyurtma _____	<i>b/ x</i>	<i>b/bild</i>	qabul qilishda
	(jo‘natma turi)	(alohida belgisi)	
Qayerga _____	<i>Quvasoy, Farg‘ona</i>		
Kimga _____	<i>Qo‘ldoshevg</i>		
Og‘irlik _____	<u>20</u>	g	
Jo‘natish uchun to‘lov	<u>400</u>	so‘m	<u>00</u> tiyin
	Qabul qildi	<u>A‘loyeva</u>	(imzo)

17-rasm. Buyurtma bildirishnomali shahardan tashqariga yuboriladigan buyurtma xat qabul qilishda 3-shakldagi daftardan kvitansiyanini to‘ldirish namunasi.

paketni qabul qilishda — 1-shakldagi daftardan (18-rasm) nusxa ko‘chiruvchi qog‘oz yordamida yozilgan kvitansiya beriladi.


3-shakldagi daftardan kvitansiyada qabul qilingan pochta jo‘natmasining turi (xat, pochta varaqchasi, banderol, mayda paket, sekogramma), jo‘natmaning belgilangan joyi, adresat familiyasi yoki nomi, pochta jo‘natmasining og‘irligi, jo‘natish uchun to‘lov summasi ko‘rsatiladi. Zarur holatlarda «*Oddiy bildirishnoma bilan*» — «*С простым уведомлением*», «*Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*С заказным уведомлением*» yoki «*O‘z qo‘liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*» belgilari bo‘lgan buyurtma pochta jo‘natmalari (xat, pochta varaqchasi, banderol, mayda paket, sekogramma)ni qabul

1-sh.



«O‘zbekiston pochta» aksiyadorlik jamiyati

45-son KVITANSIYA



RB223265479UZ

p/kart.

buyurt. m/ p ni qabul qilishda **b/ bild**
 (jo‘natma turi) (alohida belgisi)

E‘lon qilingan qiymati so‘mda _____
 (so‘zlar bilan)

E‘lon qilingan qiymati MO‘Hda _____
 (raqamlar bilan)

Ustama to‘lov _____
 (raqamlar bilan)

Qayerga **Olmaliq, Toshkent viloyati**

Kimga **Azizovaga**

	To‘lov	Og‘irlik uchun	1800		Qabul qildi
1 kg 200 g		E‘l.qilingan qiymati uchun	—		Shorasulov
		buyurtma uchun b/bild	250 450		(imzo)
		Jami	Ikki ming besh yuz so‘m		
			(so‘m so‘zlar, tiyin raqamlar bilan)		

18-rasm. Buyurtma bildirishnomali mahalliy buyurtma mayda paketni qabul qilishda 1-shakldagi daftardan kvitansiyaning to‘ldirish namunasi.

qilishda «Alohida vazifasi» satrida aloqa xodimi mos ravishda «*od/bild*», «*b/bild*» yoki «*o'z qo'liga/top.*» ko'rsatishi kerak.

SHKda buyurtma pochta jo'natmalarini qabul qilish rasmiylashtirilganda belgilangan namunadagi kvitansiya beriladi.

Shahardan tashqariga yuboriladigan buyurtma pochta jo'natmasini qabul qilishda, 3-shakldagi daftardan (SHK) kvitansiyaning bo'sh joyiga shtrixkod yopishtiriladi.

Yuqorida keltirilgan yozuvlardan tashqari, 1-shakldagi daftardan kvitansiyada aloqa xodimi tomonidan xizmatlar to'lovining naqd pullar «*naqd*», naqd pulsiz «*naqdsiz*», plastik kartochka bilan «*p/kart.*» shakli ko'rsatiladi.

Buyurtma mayda paketni qabul qilishda qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov summasi 1-shakldagi daftardan kvitansiyada alohida satrda ko'rsatiladi, buyurtma banderol, buyurtma sekogrammani qabul qilishda 47-shakldagi daftardan kvitansiya yoziladi.

Buyurtma pochta jo'natmalarini qabul qilishni amalga oshirgan aloqa xodimi, 1, 3-shakldagi daftardan (SHK) kvitansiya yozadi va qabul qilish sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izini tushiradi.

4.1.2. Jo'natiluvchi va tranzit xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, sekogrammalar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlarga ishlov berish

Pochta qutilaridan chiqarib olingan, pochta aloqa obyektlari va yetkazib berish uchastkasi aloqa xodimi tomonidan qabul qilingan yozma xat-xabarlar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlar manzillari bo'yicha tanlanadi, turlari bo'yicha (oddiy xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, sekogrammalar va tegishli o'rovdagi bosma nashrlar) ajratiladi.

Agar pochta qutilaridan olingan xatlar orasida o'rovi shikastlangan xat bo'lsa, u ehtiyotlik bilan yopishtirib bekitiladi. Bunday xatning orqa tomoniga (manzili yozilmaydigan tomoniga), shuningdek, g'ijimlangan yoki ifloslangan xatning o'roviga aniq qilib «*Pochta qutisidan shikastlangan (g'ijimlangan yoki ifloslangan) holda olindi*» deb yozib qo'yiladi. Bu yozuv pochta jo'natmalariga ishlov beruvchi aloqa xodimi tomonidan, familiyasi va lavozimini ko'rsatgan holda imzolanadi va taqvim shtempelining izi tushirilib tasdiqlanadi.

Barcha jo'natiluvchi yozma xat-xabarlarga taxlovdan o'tgandan so'ng darhol shtempel izi tushiriladi. Markalar esa, ulardan



19-rasm. Portretli markalarni hisobdan chiqarish namunasi.


ikkinchi marta foydalana olmaslik uchun taqvim shtempeli izi bilan hisobdan chiqariladi. Portretli pochta markalarini taqvim shtempeli izi bilan hisobdan chiqarishda yuz tasvirining ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik kerak (19-rasm).

MXSH izi tushirilgan jo'natiluvchi xatlarga, agar jo'natuvchi tomonidan maxsus hisobdan chiqarish o'tkazilgan kundan keyingi ikkinchi kuni yoki keyingi kunlarda topshirilsa yoki MXSH o'tkazish sanasiga ega bo'lmasa va undan bir kundan ortiq muddatlarda foydalanish ko'zda tutilgan bo'lsa, maxsus hisobdan chiqarish amalga oshirilgan pochta aloqasi obyektida oddiy taqvim shtempeli izi bilan qo'shimcha tarzda shtempel izi tushiriladi. Pochta aloqasining boshqa obyektlarida bunday xatlar oddiy taqvim shtempeli izi bilan umumiy asoslarda shtempel izi tushiriladi. Taqvim shtempeli izi MXSH izining ustiga tushirilmasligi kerak.

Pochta qutilaridan olingan va markalari to'lanmagan (muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy qismning shaxsiy tarkibi nomiga jo'natiladigan 20 g gacha bo'lgan og'irlikdagi xatlar va pochta varaqchalaridan tashqari) va markalarni to'lash uchun yaroqsiz xatlar, pochta varaqchalari qo'l bilan ishlov berishda shtempel izi tushirilmaydi va jo'natuvchining manziliga qaytariladi. To'lash uchun yaroqsiz markalar qalam bilan aylana ichiga olinadi va bunday marka yoniga nol (0) raqami yozib qo'yiladi (20-rasm).

Yozma xat-xabarlarga shtempel izi tushirilgandan keyin saralash uchun topshiriladi.

Aloqa bo'limlarida oddiy yozma xat-xabarlar mahalliy xat-xabarlarni ajratgan holda birma-bir saralamasdan jo'natmalar yig'indisiga shakllantiriladi.



20-rasm. To'lash uchun yaroqsiz markalar belgilanishi.

Pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari)ning ish joylarida qabul qilingan buyurtma pochta jo'natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar) nomma-nom tekshirilib va ikki nusxada tuziladigan yoki SHKdan bosib chiqariladigan 11-shakldagi reyestrda imzo qo'ydirilib, ishlov berish va jo'natish uchun jadval bilan belgilangan muddatlarda beriladi. Reyestrda shtrixkod yoki 3-shakldagi daftar bo'yicha ularning raqamlari va umumiy miqdori so'zlar bilan yoziladi.

Bunda mahalliy buyurtma jo'natmalar alohida yig'indilarga ajratiladi.

Buyurtma mayda paketlar, qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar uchun belgilangan tartibda 16-shakldagi yukxatga yozilib, ishlov berish va jo'natish uchun beriladi. Bunda «Qiymati e'lon qilingan summa» ustunida chiziq chizib qo'yiladi.

Buyurtma pochta jo'natmalarini qabul qiluvchi aloqa xodimi imzo qo'yishdan oldin o'rovning butunligiga e'tibor bergan holda ularning tashqi holatini ko'zdan kechirishi kerak.

Buyurtma pochta jo'natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar) 11-shakldagi reyestrda nomma-nom yozilib jo'natiladi, ular dastlab jo'natmalar yig'indisiga joylanadi va jo'natiladi.

Buyurtma mayda paketlar 16-shakldagi yukxatga nomma-nom yozilib, sug'urta qoplarda qiymati e'lon qilingan xatlar, qiymati e'lon qilingan banderollar bilan birga jo'natiladi. Bunda «Qiymati e'lon qilingan summa» ustunida chiziq chizib qo'yiladi.

Buyurtma pochta jo'natmalari maxsus ajratilgan ish joylarida saralanadi.

Pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari, almashinuv punktlari)da oddiy va buyurtma yozma xat-

xabarlar viloyatlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) bo‘yicha viloyat markazlari, Toshkent shahri uchun yozma xat-xabarlarini ajratgan holda saralanadi.

Mahalliy yozma xat-xabarlar yetkazib beruvchi aloqa bo‘limi yoki yetkazib berish uchastkalari bo‘yicha saralanadi.

Saralangan yozma xat-xabarlar yig‘indilarga joylanadi. Bunda xatlar shunday joylanishi kerakki, yig‘indilar o‘rab joylanganda ular shikastlanish ehtimoli imkonini bermasligi kerak.

Quyidagilar alohida yig‘indilarga ajratiladi:

- katta hajmdagi pochta jo‘natmalari;
- oddiy xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, sekogrammalar;
- tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar;
- buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar.

Viloyat va/yoki ularning viloyat markazlari manziliga sakkizta va undan ortiq xat mavjud bo‘lganda belgilangan manzilga manzillangan to‘g‘ridan to‘g‘ri yig‘indilarga joylanadi. Sakkiztadan kam bo‘lgan xatlar batafsil saralanmaydi va yig‘indilar Xalqaro pochta manziliga yuboriladi.

Bir manzilga beshta va undan ortiq oddiy va buyurtma banderollar, oddiy mayda paketlar, oddiy va buyurtma sekogrammalar mavjud bo‘lganda, ular pochta aloqasi obyektigacha manzillangan qopga joylanishi kerak.

Buyurtma yig‘indilar, buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalarni 11-shakldagi reyestruga yozish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) jo‘natiladigan buyurtma pochta jo‘natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar) — 3-shakldagi daftar (SHK) bo‘yicha yoki shtrixkod bo‘yicha belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlarining raqami ko‘rsatilgan holda, tranzit — ularni qabul qilish joyi va belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlari, raqamlari ko‘rsatilgan holda;


b) tranzit pochta aloqasi obyektlari o‘rtasidagi buyurtma pochta jo‘natmali (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar) yig‘indilar alohida turlari bo‘yicha raqamlari va berkitish joyining pochta aloqasi obyektlarini ko‘rsatgan holda.

Buyurtma mayda paketlarni 16-shakldagi yukxatga yozib qo‘yish, qiymati e‘lon qilingan xatlar, qiymati e‘lon qilingan banderollar uchun o‘rnatilgan tartibda bajariladi.

Buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar, buyurtma xatlar va pochta varaqchalari bo‘lgan yig‘indilarni yozishda yozuvdan avval «b/x», «b/b», «b/sek.», «b/yig‘.b/x b-n» kabi sarlavhalar yoziladi (21, 22-rasmlar). Har bir jo‘natma turining yozuvidan keyin raqamlar va so‘zlar bilan yoziladigan yakun chiqariladi.

Buyurtma mayda paketlarni 16-shakldagi yukxatga yozishda yozuvdan oldin «buyurt.m/p» sarlavhasi yoziladi.

11-shakldagi reyestrlar avtomatlashtirilmagan aloqa bo‘limlarida nusxa ko‘chiruvchi qog‘oz yordamida qo‘lda ikki nusxada tuziladi va

<p>Toshkent 47 _____ dan Toshkent 100 _____ manziliga _____ -son qopda</p> <p>jo‘natiladigan pochta jo‘natmalari, pul o‘tkazmalarini yozish uchun</p> <p style="text-align: center;"><u>12</u> - son R E Y E S T R</p>	<p>11-sh.</p> <div style="text-align: center;">  </div> <p>(jo‘natish joyi taqvim shtempeli izi)</p>
<p>Pul o‘tkazmalari _____</p>	
B/x 4402	Toshkent 100
4403	-II-
4404	-II-
4405	-II-
4406	-II-
4407	-II-
4408	-II-
4409	-II-
4410	-II-
4411	-II-
4422	-II-
4413	-II-
<p>Jami 12 (o‘n ikkita)</p> <p>Opr Zokirova</p>	

21-rasm. Mahalliy buyurtma pochta jo‘natmalarini 11-shakldagi reyestrga yozish namunasi.

11-sh.


Toshkent 47 dan

Toshkent pochтамt PSAU manziliga

-son qopda

**jo'natiladigan pochta jo'natmalari, pul
o'tkazmalarini yozish uchun**

15 - son R E Y E S T R



(jo'natish joyi
taqvim
shtempeli izi)

Pul o'tkazmalari

B/x 1445 / RC102573980UZ	Qo'qon
1446 / RC102573993UZ	Chirchiq
1447 / RC102574000UZ	Samarqand
1448 / RC102573959UZ	Namangan
1449 / RC102573945UZ	Navoiy
1450 / RC102574027UZ	Andijon
1451 / RC102573708UZ	Yakkabog'
1451/ RC102573725UZ	Olmalik
Jami 8 (sakkizta)	
Opr Ergasheva	

22-rasm. Shahardan tashqariga yuboriladigan buyurtma pochta jo'natmalarini 11-shakldagi reyestrda yozish namunasi.

oy davomida tartib raqamlari bilan raqamlanadi. Har kuni yig'indilarni ko'p miqdorda jo'natadigan pochta aloqasi obyektlari besh kunlik yoki bir kecha-kunduz bo'yicha, shuningdek, alohida ish joylari bo'yicha ketma-ket raqamlashni olib borishi mumkin.

Avtomatlashtirilgan aloqa bo'limlarida 11-sh. ro'yxat buyurtma pochta jo'natmalariga yopishtirilgan shtrixkodlarni skanerlash jarayonida SHKda avtomatik ravishda tuziladi. Skaner bo'limiganda, buyurtma pochta jo'natmalarining shtrixkod bo'yicha raqami, shuningdek, barcha yetarli bo'limagan ma'lumotlar SHKga 11-sh. ro'yxatga qo'lda kiritiladi.

Reyestr, uni tuzgan aloqa xodimi tomonidan, lavozimini ko'rsatgan holda, (aniq) imzolanadi. 11-shakldagi reyestrning ikkala

nusxasiga tuzilgan sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi. Birinchi nusxasi buyurtma yig'indi ichiga solib qo'yiladi.

Oddiy yig'indi bog'ichi ostiga 9-shakldagi manzil yorlig'i qo'yiladi, buyurtma pochta jo'natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar) bo'lgan buyurtma yig'indining manzil yorlig'i bo'lib 11-shakldagi reyestr hisoblanadi.

9-shakldagi manzil yorlig'ida yig'indilarning belgilangan va berkitish punktlari, jo'natma yig'indisini bekitgan xodimning familiyasi ko'rsatiladi hamda ularga yig'indini bekitish sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi. Avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berishda yig'indilarni shakllantirish sanasi SHKda bosib chiqariladi.

Har kuni bir punktning o'ziga ko'p miqdorda yozma xat-xabarlarini jo'natuvchi pochta aloqasi obyektlari, o'zlarining va yuborilishi belgilangan punktning nomlari bosmaxona yoki boshqa usullarda yozilgan 9-shakldagi manzil yorliqlarini tayyorlab olishlari mumkin.

Oddiy va buyurtma yig'indilar pochta aloqasi obyektlari o'rtasida qoplarda jo'natiladi, bunda oddiy yig'indilar qopning pastki qismida, bitta yiriklashgan paket bilan bog'liq bo'lgan buyurtma yig'indilar ustki qismida joylashtiriladi.


Yerusti transporti bilan jo'natiladigan katta o'lchamdagi oddiy va buyurtma banderollar (xaritali, sxemali va h.k.) shikastlanishining oldini olish maqsadida qog'ozga o'rab joylanadi va 16-shakldagi yukxatga yozib, qoplarga o'rab joylanmasdan (oddiylarining soni ko'rsatilgan, buyurtmalari esa, tartib raqami va qabul qilish joyi ko'rsatilgan holda) jo'natiladi.

Buyurtma yig'indilar joylangan har bir qopga 11-shakldagi yig'ma reyestr solib qo'yiladi. Agar qopda bitta buyurtma yig'indi jo'natiladigan bo'lsa, ushbu yig'indining 11-shakldagi reyestri yig'ma reyestr (23-rasm) sifatida rasmiylashtiriladi.

11-shakldagi yig'ma reyestr raqamlanmaydi. Unga 10-shakldagi manzil yorlig'idagi raqamga mos keladigan qopning raqami yoziladi. 11-shakldagi yig'ma reyestr ikki nusxada tuziladi va uni tuzgan aloqa xodimi tomonidan, lavozimini ko'rsatgan holda imzolanadi. 11-shakldagi reyestrning ikkala nusxasida uni tuzish sanasi bo'lgan taqvim shtempelining izi tushiriladi. Birinchi nusxasi buyurtma yig'indilardan birining bog'ichi ostiga joylanadi.

Agar qoplarda faqat oddiy yig'indilar jo'natilayotgan bo'lsa, 11-shakldagi yig'ma reyestr tuzilmaydi.

Yozma xat-xabarlar joylangan har bir qopga 10-shakldagi manzil yorlig'i yopishtiriladi, unda qop qayerdan va qayerga

<p>Toshkent 47</p> <hr/> <p>Toshkent pochтамt PSAU</p> <hr/> <p>15 -son qopda</p> <hr/> <p style="text-align: center;">jo'natiladigan pochta jo'natmalari, pul o'tkazmalarini yozish uchun</p> <p style="text-align: center;"><u>yig'ma</u>-son R E Y E S T R</p> <hr/> <p>Pul o'tkazmalari _____</p> <hr/> <p><i>B/yig'. b/x b-n 10 Toshkent 20</i></p> <hr/> <p><i>B/yig'. b/x b-n 12 Toshkent 100</i></p> <hr/> <p><i>B/yig'. b/x b-n 12 Toshkent 100</i></p> <hr/> <p><i>B/yig'. b/x b-n 15 Toshkent pochтамt PSAU</i></p> <hr/> <p style="text-align: center;"><i>Jami uchta buyum</i></p> <hr/> <p style="text-align: center;"><i>Opr Azizov</i></p> <hr/>	 <p>(jo'natish joyi taqvim shtempeli izi)</p>
--	--


23-rasm. 11-shakldagi yig'ma reyestrni tuzish namunasi.

jo'natilayotganligi, qopning og'irligi, shuningdek, unga birlashtirilgan raqam ko'rsatiladi.

10-shakldagi manzil yorliqlari bir oy davomida tartib raqamlar bilan raqamlanadi va qoplarni berkitgan aloqa xodimi tomonidan imzolanadi. Har bir 10-shakldagi manzil yorliqqa qop berkitilgan sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izi bosiladi.

Qopda faqat oddiy yig'indilar jo'natilganda manzil yorliqqa «Oddiy» — «Простой» yozuvi yozib qo'yiladi. Bunday hollarda qoplar muhrlanmaydi. Agar qoplarga oddiy yoki buyurtma yig'indilar joylangan bo'lsa, u holda 10-shakldagi manzil yorlig'ida «Buyurtma» — «Заказной» yozuvi yozib qo'yiladi, qop sug'urta muhri bilan muhrlanadi yoki plombalanadi.

Yozma xat-xabarlar joylangan qoplar quyidagi tartibda berkitiladi. Qopning tepa qismi mahkam o'raladi va kanop ip bilan ikki marta aylantirib bog'lanadi, uning ostiga oldindan 10-sh. manzil yorlig'i qo'yiladi. Kanop iplari qattiq kesishtirib, bitta uchi kanop



24-rasm. Kanop ip yordamida qoplarni berkitish namunası.



25-rasm. Sug'urta va xalqaro qoplarni berkitishda qo'llaniladigan berkitish qurilmasining umumiy ko'rinishi.

ipning ikkala aylanasi tagidan o'tkaziladi, shundan keyin qattiq tortiladi va ikki marta bog'lab qo'yiladi (24-rasm). Bog'lov shunday hisob bilan bajariladiki, qopdagi joylanma siljimasligi kerak.

Qoplarni berkitishda yopish moslamalaridan foydalanish mumkin (25-rasm). Qoplarni berkitish uchun yopish moslamasining bo'sh uchi maxsus tirqishga kiritiladi, oxirigacha tortiladi va mahkamlash uchun ikkinchi tirqishga kiritiladi.

Qoplarni berkitish va jo'natish ishlari turli ish joylarida o'tkaziladigan pochta aloqasining yirik obyektlarida berkitilgan qoplar raqamdan raqamgacha yozilgan 16-shakldagi yukxat bo'yicha jo'natish uchun topshiriladi. 16-shakldagi yukxat ikki nusxada tuziladi. Qoplarni qabul qiluvchi aloqa xodimi 16-shakldagi yukxatning ikkinchi nusxasiga qabul qilish vaqtini va qabul qilingan buyumlarning sonini ko'rsatgan holda imzo qo'yadi.

4.1.3. Belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari)da keluvchi xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlar, mayda paketlarga ishlov berish

Pochta aloqasi obyektı (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ga kelgan yozma xat-xabarlar joylangan keluvchi qoplar ochiladi.

Ulardagi buyurtma yig'indilar 11-shakldagi yig'ma reyestr bilan solishtiriladi. 9-shakldagi manzil yorliqlari bo'yicha kelgan yig'indilarning soni va ularning yo'nalishi to'g'riligi tekshiriladi. Shundan so'ng, ushbu pochta aloqasi obyektiga manzillangan buyurtma va oddiy yig'indilar ochiladi.

Yig'indilar ochilgandan keyin xatlar, banderollar, sekogrammalar, oddiy mayda paketlar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlar o'rovlarining butunligi tekshiriladi. Shikastlangan pochta jo'natmalari o'roviga «*Shikastlangan holda olindi*» deb yozib qo'yiladi, ushbu yozuv yozma xat-xabarlar to'plamiga ishlov bergan aloqa xodimining lavozimi va familiyasi ko'rsatilgan holda, aniq yozilgan imzosi va taqvim shtempelining izi bilan tasdiqlanadi. Shikastlangan joylari ehtiyotlik bilan yopishtiriladi yoki o'rab bog'lanadi.

Pochta jo'natmalarida hisobdan chiqarilmagan markalar mavjudligi aniqlangan holatda, markalar ruchka bilan chizib hisobdan chiqariladi. Portretli markalar yuz tasvirini ifloslamagan holda chiziladi.

Buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar 11-shakldagi reyestrlar bo'yicha tekshiriladi, unga tekshiruvchi imzo qo'yadi hamda taqvim shtempeli izini tushiradi.

Keluvchi 11-shakldagi reyestrlar tekshiruvni o'tkazuvchi har bir aloqa xodimi tomonidan tikiladigan pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari)da taqvim shtempeli izini tushirish va tekshirilganligi to'g'risidagi yozuvni yozish har bir reyestrda emas, balki ushbu ish kuni uchun hujjatlar to'plamining o'rovida amalga oshiriladi.

Pochta aloqasi obyektini (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ga kelib tushgan xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, oddiy mayda paketlar va sekogrammalar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlar ushbu pochta aloqasi obyektini (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi) tomonidan yetkazilishi kerak bo'lgan, shuningdek, noto'g'ri yuborilgan pochta jo'natmalariga darhol shtempel izi bosiladi.

Pochta aloqasi obyektini (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)da xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, oddiy mayda paketlar, sekogrammalar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlarga dastlabki ishlov berilganidan so'ng, o'zlarining yetkazib berish uchastkalari, ish joylari va tasarrufidagi yetkazib berish aloqa bo'limlari bo'yicha saralanadi.

Pochta jo'natmalarini saralash jarayonida jo'natish xizmati uchun ortiqcha to'lov olinganligi aniqlanganda, barcha jo'natish

yo'lida qarshiliksiz ishlov beriladi va adresatga o'rnatilgan tartibda yetkazib beriladi, qabul qilingan pochta aloqasi obyektining manziliga esa 30-shakldagi xabarnoma yuboriladi.

Saralangan yozma xat-xabarlar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlar yig'indilariga, so'ng har bir yetkazib berish aloqa bo'limigacha qoplanga berkitiladi va belgilangan joyga pochta transportining navbatdagi reysi bilan yuboriladi.

Buyurtma pochta jo'natmalarini yig'indilarga joylanmasdan oldin raqami va qabul qilish joyi ko'rsatilgan holda 11-shakldagi reyestrغا yozib qo'yiladi. Avtomatlashtirilgan ishlov berilganda 11-shakldagi reyestr SHKda tuziladi.

Xuddi shu tartibda pochta aloqasi obyektini (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamosi)ning ish joyiga beriladigan, yo'qlab olingunga qadar va abonement pochta javonining qutichasiga manzillangan keluvchi buyurtma pochta jo'natmalari 11-shakldagi reyestrغا yozib qo'yiladi.

Buyurtma mayda paketlar belgilangan joyning pochta aloqasi obyektini (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamosi)ga qiymati e'lon qilingan xatlar, qiymati e'lon qilingan banderollar bilan birga sug'urta qoplarda kelib tushadi. Buyurtma mayda paketlarga ishlov berish, qiymati e'lon qilingan xatlar, qiymati e'lon qilingan banderollar uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.1.4. Pochta aloqasining yetkazib berish obyektlarida keluvchi xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlar, mayda paketlarga ishlov berish

Pochta aloqasining yetkazib berish obyektlariga kelib tushgan yozma xat-xabarlar solingan qoplar ochiladi.

Keluvchi yozma xat-xabarlar joylangan qoplar ochilgandan keyin uning ichidagi yig'indilar, pochta jo'natmalari 11-shakldagi yig'ma reyestr va 11-shakldagi alohida reyestrning yozuvlari bilan solishtiriladi.

Barcha keluvchi yozma xat-xabarlarga pochta aloqasining yetkazib berish obyektlarida albatta shtempel izi bosiladi.

Yozma xat-xabarlar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlar yetkazib berish uchastkalari, abonement pochta javonining qutichalari, «Yo'qlab olinadigan» kartoteka va boshqa ajratilgan ish joylari bo'yicha saralanadi. Buyurtma xatlar alohida kataklarga saralab

joylanadi yoki shu kataklarning o‘zida yonlamasiga (ko‘ndalang ravishda) joylashtiriladi.

Buyurtma pochta jo‘natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar) 11-shakldagi reyestrlarga nommanom yoziladi va ajratilgan ish joylariga tilxat bilan beriladi.

Keluvchi buyurtma mayda paketlarga ishlov berish qiymati e‘lon qilingan xatlar, qiymati e‘lon qilingan banderollar uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Buyurtma pochta jo‘natmalari, (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar), oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, «*HUKUMATGA OID*» belgili banderollar, pochta jo‘natmalari olinganligi to‘g‘risidagi buyurtma bildirishnomalar, buyurtma mayda paketlar, shuningdek, barcha 22-shakldagi ikkilamchi xabarnomalar aloqa bo‘limi boshlig‘i (o‘rinbosari) yoki pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi) nazorat qiluvchi shaxsi tomonidan har bir yetkazib berish uchastkasi bo‘yicha va pochta aloqasining yetkazib berish obyektlarida berilishi kerak bo‘lgan pochta jo‘natmalariga alohida yuritiladigan 8-shakldagi daftarga (26-rasm) yozib qo‘yiladi.

8-shakldagi daftarning ikkinchi ustuniga quyidagicha yoziladi:

— olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomali buyurtma pochta jo‘natmalarini yozishda qo‘shimcha tarzda «*Bild*» va aynan qaysi biri ko‘rsatiladi;

— «*O‘z qo‘liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*» — «*SH/topsh.*» belgisi bo‘lgan buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar;

— «*Chaqiruv qog‘ozi. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Повестка. С заказным уведомлением*» — «*Chaqiruv.*» yozuvi bo‘lgan buyurtma xatlar.

Qaytarilgan yoki qayta jo‘natilgan buyurtma pochta jo‘natmalari kelganda 4-ustunga mos ravishda «*Q*» yoki «*QJ*» harflari yoziladi, qabul qilish joyi va buyurtma pochta jo‘natmasi qayerdan qaytganligi yoki qayta jo‘natilganligi ko‘rsatiladi.

Yetkazib berish uchun topshiriladigan pochta jo‘natmalari har kuni 8-shakldagi daftarda ro‘yxatga olinadi, pochta aloqasi obyektlarida topshirilishi kerak bo‘lgan pochta jo‘natmalari esa — o‘y davomida ro‘yxatga olinadi.

Bir yuridik shaxs manziliga ko‘p miqdorda buyurtma pochta jo‘natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekog-

(8-shakldagi daftarning ichki varaqlari)

T/r	Pochta jo'natilishi va alohida belgisi (bildirishnoma)	Pochta jo'natmasining 3-shakldagi daftar yoki shtrixli pochta identifikatori bo'yicha raqami, xabarnoma, bildirishnoma raqami	Qabul qilish joyi	Kinga manzillangan	Olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma jo'natilgan sana	Sana, olinganligi to'g'risida imzosi hamda xizmatga oid belgilar	Shtrixli pochta identifikatori bo'yicha buyurtma bildirishnoma raqami
1	2	3 2016. 27.05.	4	5	6	7	8
1	b/x b/bild	RB121234567UZ	Jizzax 7	Alimovga	6		
2	b/b	RB127654321UZ	Zomin 2	Shomurodovga			
3	b/x b/bild	RB111237654UZ	Guliston 4	Islomovga	2016. 01.06.		RB215623412UZ
4	b/x	RB107744556UZ	Toshkent 5	Xo'jayevga			
5	ikkil.xabaroma	120	Nukus pochta.	11-son maktab direktoriga			
			Opr	Umarxo'jayeva			

26-rasm. 8-shakldagi daftarga buyurtma pochta jo'natmalarini yozish namunasi.

rammalar) kelganda ularni 11-shakldagi reyestrga imzo qo'yish bilan berishga ruxsat etiladi, unda ham 8-shakldagi daftarga yozilgan ma'lumotlar ko'rsatiladi. Reyestrning oxirida barcha pochta jo'natmalarining yakuni chiqariladi.


Reyestr bir nusxada (tayanch punktlari orqali yetkazib berish uchun — ikki nusxada) tuziladi va aloqa xodimi tomonidan imzolanadi. Pochta jo'natmalari topshirilgandan so'ng, reyestrlar ish hajmiga bog'liq ravishda o'n kunlik, oylik yoki boshqa davrlar bo'yicha to'plam qilib tikiladi.

Yo'qlab olinadigan va abonement pochta javonlarining qutichalariga manzillangan, pochta aloqasining yetkazib berish obyektlarida beriladigan buyurtma pochta jo'natmalariga, oluvchining nomi, jo'natmalar turi, ularning raqami ko'rsatilgan 22-shakldagi xabarnoma (27-rasm) yoziladi. Har bir xabarnomaga,

22-sh.

15-son X A B A R N O M A

+998 71 2911882 telefoni bo'yicha qo'ng'iroq qiling va pochta jo'natmasi (pul o'tkazmasi) uyningizga yetkazib beriladi.

Kimga	<i>Abdurasul Rahmatovich Sultonovga</i>	
Manzil	<i>Toshkent 72, yo'qlab olinadigan</i>	

(taqvim shtempeli izi)

Sizning nomingizga -__so'm -__tiyin baholangan **Denov 1** dan **RB195623487UZ** -raqamli -__so'm -__tiyin ustama to'lovli **b/xat** olindi. Jo'natish uchun to'lov ___so'm ___tiyin, og'irlik kg ___g

Pochta jo'natmasi (pul o'tkazmasi)ni olish uchun ushbu xabarnoma va shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilishi kerak. Xabarnomada oldindan ushbu hujjat to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsating.

Berish **Furgat ko'chasi, 14-uy** _manzili bo'yicha amalga oshiriladi
 ___8__ soat ___daqiqadan **18** soat ___daqiqagacha

Xabarnomani topshirdi _____
(imzo)

Yetkazib berish uchun to'lov _____so'm _____tiyin

27-rasm. 22-shakldagi xabarnomani to'ldirish va rasmiylashtirish namunasi.

(55-shakldagi daftarning ichki varaqlari)

Yetkazib berish uchun berildi	Qaytarildi		Qaytarilgan pul summasi (soʻzlar bilan) koʻrsatilgan holda toʻliq hisob-kitobi bajarganligi toʻgʻrisidagi imzo. Hisobot sanasi
	Toʻlangan pul oʻtkazmalari, yetkazib berilgan (topshirilgan) pochta joʻnatmalari	Toʻlanmagan pul oʻtkazmalari (soni), topshirilmagan roʻyxatga olinadigan joʻnatmalar (16-shakldagi yukxat boʻyicha keluvchi tartib raqami), xalqaro, buyurtma joʻnatmalar, chaqiruv qogʻozli, «HUKUMATGA OID» belgili joʻnatmalar	
Pochtaloning familiyasi, ismi-sharifi; pul oʻtkazmalari (raqam, summa, miqdor va umumiy summa); roʻyxatga olinadigan joʻnatmalar (16-shakldagi yukxat boʻyicha kirish raqami); xalqaro, buyurtma joʻnatmalar, chaqiruv qogʻozli buyurtma xatlar, «HUKUMATGA OID» belgili joʻnatmalar (soni), 22-shakldagi xabarnomalar	Pochtaloning pochta joʻnatmalari, pul oʻtkazmalari (soni oʻtkazmalari bilan) va pullar (summasi soʻzlar bilan) qabul qilganligi toʻgʻrisidagi imzosi	soni umumiy summa soʻm tiyin	
15.09 L.D.Rasulovaga			
15, 17-son q.e.g. xatlar	3 roʻyxatga olin. joʻnatma	2 — —	Yetkazib
14-son q.e.g. banderol			berilmagan pochta
«HUKUMATGA OID» — 1,	1 «HUKUMATGA OID»	1 — —	joʻnatmalari
xalqaro — 1,	1 xalqaro,	1 — —	va hisobotni
buyurtma — 7,	7 buyurtma joʻnatma	4 — —	ABB Tursunova oldi
22-shakldagi xabarnoma — 5	5 22-shakldagi xabarnoma	5 — —	Rasulova topshirdi
	qabul qildi Rasulova		2016-yil
			15-sentabr

28-rasm. 55-shakldagi daftarni yuritish namunasi.

shuningdek, 8-shakldagi daftar bo'yicha pochta jo'natmasi yozuvining raqami yozib qo'yiladi va xabarnomani yozish sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili jo'natmalardan tashqari, barcha oddiy xat-xabarlar, tegishli o'rovdagi bosma nashrlar aloqa xodimlariga yetkazib berish uchun tilxatsiz topshiriladi.

Buyurtma pochta jo'natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar), oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, «*HUKUMATGA OID*» belgili banderollar, pochta jo'natmalari olinganligi to'g'risidagi buyurtma, bildirishnomalar, shuningdek, pochta aloqasining yetkazib berish obyektlaridagi barcha ikkilamchi xabarnomalar 55-shakldagi daftarga (28-rasm) aloqa xodimlariga imzo qo'ydirilib beriladi.

Yetkazib berish uchun beriladigan pochta jo'natmalari va xabarnomalar 55-shakldagi daftarga turlari bo'yicha miqdori alohida qilib yoziladi. Pochta jo'natmalari yo'nalishining hisobi kelib tushadigan pochta uchun 16-shakldagi yukxat bo'yicha yoki 11-shakldagi reyestrlar bo'yicha olib boriladi.

Ish kunining oxirida aloqa xodimi aloqa bo'limining boshlig'i (o'rinbosari)ga yoki pochta aloqasi obyekti (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamas)ning nazorat qiluvchi shaxsiga 20-sh. ma'lumotnomalar (29-rasm) biriktirilgan barcha topshirilmagan pochta jo'natmalarini, shuningdek, «*O'z qo'liga topshirilsin*» — «*Вручить лично*» va «*Chaqiruv qog'ozi*» — «*Судебная повестка*» belgili buyurtma pochta jo'natmalari topshirilganligi to'g'risidagi bildirishnomalarni taqdim etadi.


Aloqa xodimlari ishini nazorat qiluvchi shaxslar, pochta jo'natmalarini yetkazib (topshirish) berishda quyidagilarni bajarishga majburdir:

a) 8-shakldagi daftar (11-shakldagi reyestr) bo'yicha pochta jo'natmalari olinganligi to'g'risida adresatlarning imzolari yoki abonent pochta qutilariga joylanganligi to'g'risidagi yozuvlari mavjudligini tekshirish;

b) pochta jo'natmalarining topshirilmaganlik sabablarini aniqlash va zarur bo'lganda ularning yetkazib berilishini ta'minlash;

d) 8-shakldagi daftarlarning oxirgi ustuniga topshirilmaganlik sababi to'g'risida yozib qo'yish;

e) uchastkada aloqa xodimi tomonidan qabul qilingan buyurtma pochta jo'natmalarini olish;

Topshirilmaganlik sababi		20-sh.
<input type="checkbox"/> Foydalanuvchi arizasi <input type="checkbox"/> Saqlash muddati tugadi <input type="checkbox"/> Adresat ko'chib ketgan <input type="checkbox"/> Boshqa vaziyatlar	<input type="checkbox"/> Adresat olishdan bosh tortdi <input checked="" type="checkbox"/> Adresat ko'rsatilgan manzil bo'yicha yashamaydi	
_____ (qaysi biri ko'rsatilsin)		
Qayta jo'natiladi _____ Toshkent 72 ga		
Qaytariladi Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 126-uy, 3-xonadon		
O'rovning tashqi holati _____ buzilmagan		
Og'irlik _____ 2 kg _____ 600 g Pochtalon _____ Abdumalikova (imzo)		
Tosheva _____ (pochta aloqasi bo'limi boshlig'ining imzosi)		(taqvim shtempeli izi)

29-rasm. 20-shakldagi ma'lumotnomani rasmiylashtirish namunasi.

f) «O'z qo'liga topshirilsin» va «Chaqiruv qog'ozi» belgili buyurtma pochta jo'natmalari topshirilganligi to'g'risidagi bildirishnoma to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish;

g) 55-shakldagi daftarning oxirgi ustuniga qaytarilgan topshirilmagan pochta jo'natmalarining miqdori va hisobot sanasini ko'rsatgan holda hisobotni qabul qilish to'g'risida yozuv yozib qo'yish. Ko'rsatilgan yozuv nazorat qiluvchi shaxs va aloqa xodimi imzolari bilan tasdiqlanadi.

Ko'rsatilgan tekshiruvlardan so'ng nazorat qiluvchi shaxs 8-shakldagi daftar (11-shakldagi reyestr)ga imzo qo'yadi va barcha olinganligi to'g'risidagi bildirishnomalarni rasmiylashtiradi.

Kelgan yo'qlab olinadigan yoki abonement pochta javonlarining qutichalariga manzillangan pochta jo'natmalari 22-shakldagi

xabarnomalar «Yo‘qlab olinadigan» kartotekasiga qo‘yiladi yoki abonement pochta javonining qutichalari bo‘yicha ajratiladi, pochta jo‘natmalarining o‘zi esa, ularning 8-shakldagi daftardagi yozuvlari raqamlar bo‘yicha ajratib olinib alohida saqlanadi. Ushbu raqamlar pochta jo‘natmasining orqa tomoniga yoziladi.

Yo‘qlab olinadigan yoki abonement pochta javonining qutichasiga manzillangan buyurtma pochta jo‘natmalari 8-shakldagi daftarga olish sanasini ko‘rsatgan holda, imzo qo‘ydirilib beriladi. Bunday pochta jo‘natmalari berilgandan so‘ng xabarnomalar yo‘q qilib yuboriladi.

Buyurtma mayda paketlar, qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollar uchun belgilangan tartibda beriladi.

Oddiy pochta jo‘natmalari, tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar, shuningdek, pochta aloqasining yetkazib berish obyektlarida berilishi lozim bo‘lgan pochta jo‘natmalari uchun xabarnomalar saralanadi va abonement pochta javonlarining qutichalari bo‘yicha hamda «Yo‘qlab olinadigan» kartotekasiga alifbo bo‘yicha taxlab qo‘yiladi.

Pochta aloqasining yetkazib berish obyektlarida kerakli pochta jo‘natmalarini izlashni tezlashtirish uchun «Yo‘qlab olinadigan» kartotekasi adresatlar familiyasining uchta birinchi harflari bo‘yicha shakllantiriladi. «Yo‘qlab olinadigan» kartotekasidan faqat xat-xabarlarini beradigan aloqa xodimi va nazorat qiluvchi shaxs foydalanishiga ruxsat etiladi. Kartoteka ishdan tashqari vaqtda uning joylanmasi ta‘minlangan tartibda saqlanadi.

Buyurtma pochta jo‘natmalari abonement pochta javonlarining qutichalari bo‘yicha, oluvchining yozma roziligi bilan taxlanishi mumkin, 8-shakldagi daftarga abonement pochta javonlarini boshqaruvchi aloqa xodimi tomonidan imzolanadigan «*A/j ga solindi*» yozuvi sanani ko‘rsatgan holda belgi qo‘yadi.

Pochta aloqasining yetkazib berish obyektlaridagi abonement pochta javonlari alohida ichki qulflar bilan jihozlanadi, har bir qutichaga tartib raqami qo‘yiladi.

Foydalanuvchilardan arizalarni qabul qilishda aloqa xodimi arizada ko‘rsatilgan manzilni ro‘yxatda qayd etilgan manzil bilan solishtiradi. Abonentlarga kalitlar arizaga imzo qo‘ydirilib beriladi.

Abonement pochta javonining qutichalaridan foydalanishga taqdim etish to‘g‘risidagi arizalar to‘plam qilib tikilgan holda saqlanadi va ular bo‘yicha qutichalarda foydalanishni nazorat qilish amalga oshiriladi. O‘ndan ortiq abonentlar mavjud bo‘lganda,

T/r	Abonent nomi va uning manzili	Abonentga biriktirilgan qutichaning raqami	Abonentga biriktirilgan sanasi	Abonentga biriktirilgan muddati	To‘langanligi to‘g‘risidagi yozuv va kvitansiya raqami	Hisobdan olish sanasi
1	<i>Islomov S.</i>	<i>2261</i>	<i>01.02.16</i>	<i>31.12.16 gacha</i>	<i>55-son kv.</i>	
	<i>Buyuk ipak</i>					
	<i>yo‘li ko‘ch.,</i>					
	<i>12-uy, 7-xon.</i>					
2	<i>Tosheva M.R.</i>	<i>2262</i>	<i>01.02.16</i>	<i>01.08.16 gacha</i>	<i>56-son kv.</i>	
	<i>O‘rikzor ko‘ch.</i>					
	<i>55-uy, 36-xon.</i>					

30-rasm. Abonement pochta javonining qutichalaridan foydalanuvchi abonentlarni ro‘yxatga olish daftarining namunasi.

arizalar 30-rasmda keltirilgan shakl bo‘yicha abonentlarni ro‘yxatga olish daftarida ro‘yxatga olinadi.

Abonent abonement pochta javonining qutichalaridan keyinchalik foydalanishdan voz kechganda, quticha ariza berilgan vaqtdan bir oy o‘tganidan yoki foydalanishga berilgan muddat tugaganidan so‘ng boshqa abonentga foydalanish uchun berilishi mumkin.

Rad etish arizasi berilgandan so‘ng keladigan yozma xat-xabarlar qayta jo‘natiladi (qaytariladi) yoki (jo‘natuvchining manzili ko‘rsatilmagan bo‘lsa) tarqatilmaganlar qatoriga o‘tkaziladi.

4.1.5. Xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar, tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar, mayda paketlarni yetkazib berish (topshirish)

Turar joy bo‘yicha yo‘llangan quyidagi jo‘natmalar adresatlarga yetkazib berilishi kerak:

a) pochta varaqchalari, oddiy va buyurtma xatlar va banderollar, oddiy mayda paketlar, pochta jo‘natmalari va pul o‘tkazmalari olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomalar;

b) yetkazib berish to‘lovi bilan qabul qilingan pul o‘tkazmalari, buyurtma mayda paketlar, qiymati e‘lon qilingan xatlar va banderollar;

d) ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalari va pul o'tkazmalari to'g'risidagi xabarnomalar;

e) tezkor pochta jo'natmalari.

Abonent pochta javonlari qutichalariga va abonent pochta qutilariga uyga yo'llangan quyidagilar tashlanadi:

a) oddiy xatlar;

b) oddiy pochta varaqchalari;

d) oddiy banderollar;

e) oddiy mayda paketlar;

f) pochta jo'natmalari va pul o'tkazmalari olinganligi to'g'risidagi oddiy bildirishnomalar;

g) ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalari va pul o'tkazmalari to'g'risidagi dastlabki xabarnomalar;

h) o'lchamlari abonent pochta javonlarining qutichalariga va (yoki) abonent pochta qutilariga tashlash imkonini bermaydigan oddiy pochta jo'natmalari to'g'risidagi dastlabki xabarnomalar.

Pochta aloqasi obyektlarida quyidagilar beriladi:

a) eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan oshadigan summadagi qiymati e'lon qilingan xatlar, shuningdek, yetkazib berish haqi to'lanmasdan qabul qilingan, qiymati e'lon qilingan xatlar va banderollar;

b) ustama to'lov bilan jo'natilgan pochta jo'natmalari;

d) posilkalar;

e) «M» belgisi qoplar;

f) qiymati e'lon qilingan xalqaro va mayda paketlar («Express» («С нарочным»)) belgisi bo'lgan pochta jo'natmalaridan tashqari;

g) nuqsonli pochta jo'natmalari;

h) yuridik shaxslarga yo'llangan qiymati e'lon qilingan xatlar va banderollar;

i) yetkazib berish paytida topshirish imkoni bo'lmagan pochta jo'natmalari.

Adresatlar pochta jo'natmasini va pul o'tkazmasini olish uchun kelmaganlarida, ularga ikkinchi marta xabarnoma yetkaziladi va tilxat orqali topshiriladi, abonent pochta javoniga yo'llangan pochta jo'natmalaridan tashqari:

a) dastlabki xabarnomalar yetkazilgandan keyin uch ish kuni mobaynida:

— yangi mevalar (sabzavotlar) solingan posilkalar uchun;

— «Yo'llanmalar bilan» — «С нумёвками», «Chiptalar bilan» — «С билетами», «Hujjatlar bilan» — «С документами» belgilari bo'lgan xatlar uchun;

b) dastlabki xabarnomalar yetkazilgandan keyin besh ish kuni mobaynida — pochta jo‘natmalarining qolgan barcha turlari uchun.

Pul o‘tkazmalari, buyurtma mayda paketlar, qiymati e‘lon qilingan pochta jo‘natmalari, shuningdek, posilkalar shaxsan adresatlarga yoki ularning ishonchnomasi bo‘lgan vakillariga beriladi.

Pochta jo‘natmalari va pul o‘tkazmalarini yuborish va (yoki) olish uchun zarur bo‘lgan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lib:

a) O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining fuqarolik yoki diplomatik pasporti;

b) muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisi va harbiy ta‘lim muassasalarining kursanti (tinglovchisi)ning harbiy guvohnomasi yoki tegishli vazirliklar va idoralar bilan shartnoma bo‘yicha xizmat qiladigan zobitlarning shaxsiy guvohnomasi;

d) xorijiy fuqaroning milliy yoki diplomatik pasporti;

e) O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqaro yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning yashash guvohnomasi hisoblanadi.

16 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslarga yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarga yo‘llangan pochta jo‘natmalari va pul o‘tkazmalari shaxsni tasdiqlovchi hujjatlardan birini va ularning voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarga aloqadorligini tasdiqlovchi hujjatlar (bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi, tegishli davlat organi tomonidan berilgan guvohnoma yoki ushbu davlat organining shu shaxsni vasiy yoki homiy qilib tayinlash to‘g‘risidagi qarorining nusxasi) taqdim etilganda ota-onalarga (farzand qilib olganlarga, vasiylarga, homiylarga) beriladi.

Maktab-internatlarda, bolalar uylarida va boshqa shunga o‘xshash muassasalarda bo‘lgan (yashaydigan) 16 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslarga yo‘llangan pochta jo‘natmalari ishonchnomalar orqali ushbu muassasalarning vakolatli shaxslariga beriladi.

Qiymati e‘lon qilingan pochta jo‘natmasini, pul o‘tkazmasini, posilkani, buyurtma mayda paketni olishda adresat taqdim etilgan hujjatdagi ma‘lumotlarni xabarnomada ko‘rsatadi.

Ro‘yxatga olingan manzil pochta jo‘natmasida ko‘rsatilgan manzil bilan mos kelmaganda va pochta jo‘natmasi fuqarolarga ularning ish, o‘qish joyi bo‘yicha yoki yotoqxonalarda, internatlarda, bolalar uylarida, mehmonxonalarda yashovchi yoki

sogʻlomlashtirish va davolash muassasalarida boʻlgan fuqarolarga yoʻllanganda, adresat xabarnomada oʻzining roʻyxatdan oʻtgan manzilini, olingan sanani koʻrsatishi va imzo qoʻyishi kerak.

Ustama toʻlov bilan joʻnatilgan pochta joʻnatmalari, adresatlar ustama toʻlovning toʻliq summasini va uni pul oʻtkazmasi bilan joʻnatish uchun toʻlovni toʻlaganidan keyin adresatga beriladi. Toʻlovni toʻlagunga qadar adresat joʻnatuvchining manzili toʻgʻrisida maʼlumot olish huquqiga ega boʻladi. Ustama toʻlov bilan yuborilgan pochta joʻnatmasi adresatga berilgandan soʻng koʻrsatilgan pochta joʻnatmasi qaytarib olinmaydi, ustama toʻlov summasi va uni pul oʻtkazmasi bilan joʻnatish uchun toʻlov qaytarilmaydi.

Ustama toʻlov bilan yuborilgan, nuqsonli va joylanma roʻyxati boʻlgan pochta joʻnatmalari adresatga topshirish paytida pochta aloqasi xodimi tomonidan ochilishi kerak. Bunday hollarda, ustama toʻlov summasi pochta joʻnatmasi ochilgunga qadar undirilmaydi.

Joylanmani tekshirish paytida uning butligi aniqlansa yoki roʻyxatga mos kelsa, dalolatnoma tuzilmaydi. Adresat ustama toʻlov summasini va uni pul oʻtkazmasi bilan joʻnatish uchun haq toʻlaydi, shundan keyin pochta joʻnatmasi belgilangan tartibda beriladi.

Roʻyxatga olinadigan pochta joʻnatmasi pochta aloqasi obyektida bir ish kunidan ortiq saqlanganligi uchun, ikkinchi xabarnoma topshirilgandan keyin (topshirilgan kun hisoblanmaydi) adresatdan oʻrnatilgan tariflarga muvofiq haq olinadi.

Abonent pochta javoni yoki abonent pochta qutisi pochta joʻnatmalarining saqlanishiga taʼsir etadigan darajada buzilganda, oddiy xatlar, pochta varaqchalari, banderollar va mayda paketlar ularga tashlanmaydi, adresat esa ularni yetkazib berish mumkin emasligi toʻgʻrisida xabardor qilinadi. Bunda oddiy xatlar, pochta varaqchalari, banderollar va mayda paketlar adresatga pochta aloqasi obyektida beriladi.

Adresat kelib tushgan pochta joʻnatmalarini olishdan voz kechganda, u pochta joʻnatmasida va (yoki) xabarnomada bu toʻgʻrida belgi qoʻyishi kerak. Adresat bunday belgi qoʻyishni rad etganda, uni pochta aloqasi xodimi amalga oshiradi. Bunday joʻnatmalar qaytarilganligi uchun haq joʻnatuvchidan qaytarilgan pochta joʻnatmasini unga berish paytida olinadi.

Buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, pochta joʻnatmalari va pul oʻtkazmalari olinganligi toʻgʻrisidagi bildirishnomalar (*«Oʻz qoʻliga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan» — «Вручить лично. С заказным уведом-*

лением» belgisi boʻlgan xatlar va pochta varaqchalaridan tashqari), tezkor pul oʻtkazmalari olinganligi toʻgʻrisidagi tezkor bildirishnomalar, tezkor pochta joʻnatmalari oilaning voyaga yetgan aʼzolariga ishonchnomasiz, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlardan biri va ularning adresatga aloqadorligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinganda berilishi, adresatning yozma murojaati boʻyicha esa — uy boʻyicha qoʻshnilarga berilishi, abonent pochta javoni qutichalariga yoki abonent pochta qutilariga tashlanishi mumkin.

Adresat va oilaning voyaga yetgan aʼzolari boʻlmaganda, abonent pochta javoni qutichasida yoki abonent pochta qutisida adresat pochta joʻnatmasini olish uchun pochta aloqasi obyektiga taklif qilingan xabarnoma qoldiriladi.

Adresat yoki joʻnatuvchi boshqa shaxsni, unga belgilangan tartibda ishonchnoma rasmiylashtirib, pochta joʻnatmalarini olishga, pul oʻtkazmalarini yuborish yoki olishga vakolat berishi mumkin.

Vakolatli shaxs pochta joʻnatmasini olishda, pul oʻtkazmasini joʻnatish yoki olishda ishonchnomani va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlardan birini taqdim etadi. Ishonchnoma koʻpi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat koʻrsatilgan boʻlmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida oʻz kuchini saqlaydi. Berilgan kuni koʻrsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas.

Taqdim etilgan ishonch qogʻozi pochta aloqasi obyektida saqlanadi.

Roʻyxatga olinadigan pochta joʻnatmalari yetkazib beriladigan yuridik shaxslar bu pochta joʻnatmalarini olish uchun ishonchnomani pochmani olishga vakolati boʻlgan shaxs nomiga rasmiylashtiradi. Pochta joʻnatmalari birinchi marta berilgandan soʻng ishonchnoma pochta aloqasi obyektida qoladi.

Jismoniy shaxslarning nomiga manzillangan oddiy pochta joʻnatmalari, tegishli oʻrovdagi bosma nashrlar va pochta joʻnatmalari olinganligi toʻgʻrisidagi birlamchi xabarnomalar abonent pochta javonlarining qutichalari yoki abonent pochta qutilari orqali tilxatsiz topshiriladi.

Oʻlchamlari abonent pochta javonlari qutichalariga yoki abonent pochta qutilariga tushirish imkonini bermaydigan oddiy banderollar, sekogrammalar, oddiy mayda paketlarga 22-shakldagi xabarnoma adresatni pochta joʻnatmalarini olish uchun pochta aloqasi obyektiga taklif etgan holda yoziladi.

Buyurtma pochta jo‘natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar), «*HUKUMATGA OID*» belgili oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari va banderollar, pochta jo‘natmalari olinganligi to‘g‘risidagi buyurtma bildirishnomalar, shuningdek, barcha ikkilamchi xabarnomalar adresatlarga 8-shakldagi daftarga imzo qo‘ydirilib topshiriladi. Adresat yoki oilaning katta yoshdagi a‘zolari bo‘lmaganligi sababli ko‘rsatilgan pochta jo‘natmalarini topshirishning imkoni bo‘lmaganda abonent pochta javoni qutichasiga yoki abonent pochta qutisiga pochta jo‘natmalarini olish uchun pochta aloqasi obyektiga adresatni taklif etib, 22-shakldagi xabarnoma qoldiriladi. Bunda 8-shakldagi daftarga «*22-sh.xabar.*» yozuvi yoziladi.

Adresat va oilaning katta yoshdagi a‘zolari bo‘lmaganda barcha ikkilamchi xabarnomalar adresatning yozma roziligi arizasiga ko‘ra qo‘shnilarga topshiriladi, abonent pochta javonining qutichasiga yoki abonent pochta qutisiga tushiriladi.

Agar buyurtma pochta jo‘natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar), «*HUKUMATGA OID*» belgili oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari va banderollar, olinganligi to‘g‘risidagi buyurtma bildirishnomalar adresatning yozma roziligi bilan abonent pochta javonlarining qutichalariga yoki abonent pochta qutilariga tushirilgan bo‘lsa, aloqa xodimi 8-shakldagi daftarga «*A/j ga solindi*» yoki «*A/q ga solindi*» yozuvi yozib qo‘yiladi, sanasini ko‘rsatadi va uni imzolaydi.

Ikkilamchi xabarnoma yetkazib berilgandan keyin uch kun o‘tgandan so‘ng pochta aloqasining yetkazib berish obyektiga adresatning kelmaganlik sabablarini aloqa xodimi og‘zaki ravishda so‘rov o‘tkazish yo‘li bilan yoki telefon ro‘yxatlari mavjud bo‘lganda, telefon orqali aniqlashtiradi.

Yuridik shaxsning vakolatlangan vakili, bir vaqtning o‘zida bir necha pochta jo‘natmalarini yoki 8-shakldagi daftar (11-shakldagi reyestr)ga yozilgan xabarnomalarni olayotganda, olingan pochta jo‘natmalari (xabarnomalari)ning umumiy sonini so‘zlar bilan yozib, lavozimi va familiyasini ko‘rsatib imzo qo‘yadi.

Agar adresat pochta jo‘natmasida ko‘rsatilgan manzilda yashamasa, vaqtincha bo‘lmasa yoki yangi turar joyga ko‘chib ketgan bo‘lsa, 20-shakldagi ma‘lumotnoma tuziladi, ushbu ma‘lumotnoma aloqa xodimining imzosi bilan yetkazib berilmagan xat, banderol, sekogramma, mayda paket, tegishli o‘rovdagi bosma nashr manzil

tomonining orqasiga yoki pochta varaqchani manzil yoziladigan tomoniga yopishtiriladi. Pochta jo'natmalari unda ko'rsatilgan jo'natuvchining manziliga qaytariladi. Agar jo'natuvchining manzili ko'rsatilmagan bo'lsa, pochta jo'natmalari 20-shakldagi ma'lumotnoma bilan birga tarqatilmaganlar qatoriga o'tkaziladi.

Buyurtma mayda paketlar adresatlarga qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar uchun belgilangan tartibda beriladi.

Avtomatlashtirilmagan aloqa bo'limlari boshliqlari keluvchi 11-shakldagi reyestrlar va 16-shakldagi yukxatlar bo'yicha har kuni buyurtma pochta jo'natmalarining yetkazib berilganligi (topshirilganligi) sanasini belgilab boradi va pochta aloqasi obyekti (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasiga)ga shu ma'lumotlar ATga kiritish uchun beriladi.

Avtomatlashtirilgan aloqa bo'limlari boshliqlari (o'rinbosarlari) belgilangan tartibda buyurtma pochta jo'natmalarining yetkazib berilganligi (topshirilganligi) to'g'risidagi ma'lumotlarni ATga har kuni kiritadi.

4.2. Ichki qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar

4.2.1. Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarni qabul qilish


Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar jismoniy shaxslardan faqat ochiq holda, joylanma tekshirilib qabul qilinadi.

Yuridik shaxslar tomonidan jo'natiladigan, qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar yuborish uchun jo'natuvchining muhri yoki plombasi ostida ham ochiq, ham yopiq holda topshirilishi mumkin. Pochta jo'natmasida jo'natilishi taqiqlangan predmetlar yoki moddalar borligi to'g'risida shubha paydo bo'lganda, pochta aloqasi xodimiga jo'natuvchi ishtirokida ko'rsatilgan jo'natmalarni joylanmani tekshirish uchun ochish huquqi beriladi. Jo'natilishi taqiqlangan joylanmalar aniqlanganda, ular qabul qilinmaydi. Agar joylanma xususiyati uni pochta jo'natmasining ushbu turi (toifasi)da jo'natishga mos kelmasa, aloqa xodimi uni pochta jo'natmasining boshqa turi (toifasi) bilan jo'natishni tavsiya qiladi.

Qiymati e'lon qilingan xatlar barcha jo'natilayotgan predmetlarning ro'yxati bilan qabul qilinadi. Qiymati e'lon qilingan banderollar, jo'natuvchining xohishiga ko'ra, joylanmaning ro'yxati bilan va joylanmaning ro'yxatisiz qabul qilinishi mumkin.

107-shakldagi joylanma ro'yxati (31-rasm) jo'natuvchi tomonidan, adresatning to'liq pochta manzilini va nomi (familiyasi, ismi-sharifining bosh harflari yoki yuridik shaxsning nomi)ni albatta ko'rsatgan holda, ikki nusxada tuziladi.

Jo'natilayotgan joylanma ro'yxatga e'lon qilingan qiymatning

qiymati e'lon qilingan xat		dagi joylanma	107-sh.
R O' Y X A T I			
S.A.Sharipovga			
(adresatning nomi)			
Kimga	Mustaqillik ko'chasi, 55-uy, 123-xonadon		
Qayerga	Buxoro, 200122		
(belgilangan joy)			
T/r	Predmetlar nomi	Predmetlar soni	E'lon qilingan qiymat, so'm
1	Fotosurat	1	500
2	Risolat Yoqubovna		
	Yoqubova nomiga berilgan		
	haydovchilik guvoynomasi	1	50000
3	Risolat Yoqubovna		
	Yoqubova nomiga	1	130000
	pasport		
E'lon qilingan qiymatning umumiy yakuni so'mda			180500
			(raqamlar bilan)
E'lon qilingan qiymatning umumiy yakuni MO'Hda			(raqamlar bilan)
Jo'natuvchi Vohidova			
(imzo)			
		Tekshirdi Opr Rixsiyeva	
		(pochta aloqasi xodimining lavozimi, imzosi)	
(qabul qilish joyi taqvim shtempeli izi)		Tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi	

31-rasm. 107-shakldagi ro'yxatni to'ldirish namunasi.

summasini ko'rsatgan holda nomma-nom yoziladi. Ro'yxatning ikkala nusxasi jo'natuvchi tomonidan imzolanadi. Jo'natuvchining xohishiga ko'ra, qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderol ichiga solinadigan 107-shakldagi ro'yxatning birinchi nusxasida predmetlarning e'lon qilingan qiymat summasi ko'rsatilmaligi mumkin.

Qiymati e'lon qilingan xatlar yoki qiymati e'lon qilingan banderollarni qabul qilishda aloqa xodimi joylanma asosida 107-shakldagi to'ldirilgan ro'yxat bilan, joylanmaning e'lon qilingan qiymat summasi, shuningdek, pochta jo'natmasi va ro'yxatning ikkala nusxasida ko'rsatilgan belgilangan joyning aynan o'xshashligi, adresatning nomi, e'lon qilingan qiymat summasi hamda alohida belgilarini solishtiradi. Aloqa xodimi 107-shakldagi ro'yxatning ikkala nusxasiga imzo qo'yadi va pochta jo'natmasi qabul qilingan sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izini tushiradi. 107-shakldagi rasmiylashtirilgan ro'yxatning birinchi nusxasi qiymati e'lon qilingan xat va qiymati e'lon qilingan banderol ichiga solinadi, ikkinchi nusxasi esa jo'natuvchiga beriladi.

Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar jo'natuvchining ishtirokida o'rab joylanadi, yopishtiriladi va sug'urta muhri bilan shunday muhrlanadiki, bunda xatning barcha qopqoqlari yoki banderolning barcha o'rovlari joylanma saqlanishini ta'minlaydigan qilib, sug'urta muhrining surg'uch izlari bilan surg'uchlab berkitiladi.

O'lchami 114×162 mm, 110×220 mm bo'lgan standart konvertlarda jo'natiladigan, eng kam ish haqining bir baravarigacha qiymati e'lon qilingan xatlarni konvertning barcha qopqoqlarini birlashtirgan holda sug'urta muhrini bir marta bosish bilan muhrlashga ruxsat etiladi. Bahosi yuqori bo'lgan yoki o'lchami 162×229 mm va 229×324 mm bo'lgan standart konvertlarda jo'natiladigan xatlarda tushirilgan muhr izining soni beshtadan kam bo'lmasligi kerak.

Qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderol rasmiylashtirilgandan va muhrlangandan keyin tarozida tortiladi hamda jo'natuvchidan belgilangan to'lov undiriladi. Xat yoki banderol o'rovi old tomonining bo'sh joyiga raqamlar bilan uning og'irligi va aloqa xodimining imzosi bilan tasdiqlangan olingan to'lovning umumiy summasi yozib qo'yiladi (32-rasm).

E'lon qilingan qiymati 25000 (yigirma besh ming) so'm



Q Tashkent 47
№ _____



VA104701209UZ

Hasanova Saida Izzatullayevna

Olmazor tumani, Sebzor ko'ch., 30-uy, 6-xonadon

Toshkent, 100019

Og'irlik — 800 g

To'lov *2600 so'm 00 tiyin*

Muslimov
(imzo)

Soliyeva Aziza Isayevna

Navoiy ko'ch., 5-uy, 3-xonadon

Beshkent, Qashqadaryo

180200

32-rasm. Qiymati e'lon qilingan banderolning old tomonini rasmiylashtirish namunasi.

Banderolni shaffof polietilen o'rovda jo'natish uchun qabul qilishda uning ichiga rasmiylashtirilgan manzil yorlig'i yopishtirilib, o'rab joylangan joylanma solinadi. Polietilen o'rovning ochiq tomonlari jo'natuvchining ishtirokida termopayvandlash mashinasida payvandlanadi. Banderolni qabul qilib olgan joydagi pochta aloqasi obyektining pochta indeksi va nomi chokka tushiriladi.

Banderolning qopqoqlariga jo'natuvchilar tomonidan to'ldirilgan manzil yorliqlarini yopishtirishga ruxsat etiladi.

Manzil yorliqlari aloqa xodimi tomonidan banderolga yopishtirilgunga qadar rasmiylashtiriladi.

Mahalliy qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderolni qabul qilishda, manzil tomonining yuqori chap qismiga aloqa xodimi, pochta jo'natmasini qabul qilgan pochta aloqasi obyektining nomi va 1-shakldagi daftar bo'yicha jo'natmaning raqami ko'rsatilgan 1-shakldagi yorliqni (33-rasm) yopishtiradi va unga pochta jo'natmasining 1-shakldagi daftar bo'yicha kvitansiya-

Q	Toshkent 52 № _____
----------	-------------------------------

33-rasm. Qiymati e'lon qilingan xatlar, qiymati e'lon qilingan banderollarga yopishtiriladigan 1-shakldagi yorliq namunasi.

sining tartib raqamini yozib qo'yadi. 1-shakldagi yorliq o'rniga unga muvofiq keladigan shtamp izini tushirishi ham mumkin.

Shahardan tashqariga yuboriladigan qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderolni qabul qilishda 1-shakldagi daftar bo'yicha raqam o'rniga shtrixkod yopishtiriladi.

Xat, banderol manzil tomonining yuqori o'ng burchagiga yoki manzil yorlig'iga qabul qilish sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi.

Mo'rt predmetlar joylangan qiymati e'lon qilingan banderollarni qabul qilishda unga «*Ehtiyot qiling*» belgisi 8-shakldagi yorliq (34-rasm) yopishtiriladi. Qiymati e'lon qilingan «*Ehtiyot qiling*» belgisi banderollar havo kemalarida jo'natish uchun jo'natuvchining javobgarligi ostida qabul qilinadi.

Agar manzil ma'lumotlari banderolga to'g'ridan to'g'ri yozilgan bo'lsa, u holda unga taqvim shtempeli izi tushirilmaydi, qabul qilish sanasi qo'lda yozib ko'rsatiladi.

Qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderolni qabul qilishda 1-shakldagi daftardan (35-rasm) nusxa ko'chiruvchi qog'oz orqali kvitansiya yoziladi va jo'natuvchiga beriladi.

1-shakldagi daftardan yozilgan kvitansiyada qabul qilingan pochta jo'natmasining turi (xat, banderol), jo'natmaning belgilangan joyi, adresat nomi, pochta jo'natmasining og'irligi, jo'natish uchun to'lov summasi ko'rsatiladi. Alohida satrda qo'shimcha xizmatlar uchun olingan to'lov summasi ko'rsatiladi.



34-rasm. 8-shakldagi «Ehtiyot qiling» yorlig'ining namunasi.



«O'zbekiston pochta» aksiyadorlik jamiyati

34 -son **KVITANSIYA**

VA108977561UZ

*p/kart.**q.e.q. band.*

(jo'natma turi)

ro'yxat bilan

qabul qilishda

(alohida belgisi)

O'n ming besh yuz so'm

E'lon qilingan summasi so'mda

(so'zlar bilan)

E'lon qilingan qiymati MO'Hda

(raqamlar bilan)

Ustama to'lov

(raqamlar bilan)

Qaerga ***Qo'qon, Farg'ona***Kimga ***Jo'rayeva***

Og'irlik

_ kg 300 g

To'lov

Og'irlik uchun

550

Qabul qildi

E'l.qil.qiymati uchun

525***Shoyusupov******Ro'yxatni tuzish uchun*****200**

(imzo)

Jami

***Bir ming ikki yuz yetmish besh so'm
00 tiyin***

(so'mlar so'zlar, tiyin raqamlar bilan)

35-rasm. Qabul qilingan qiymati e'lon qilingan banderol uchun
1-shakldagi daftar kvitansiyasini to'ldirish namunasi.

Olinganligi to'g'risidagi bildirishnomali, uyga yetkazib berish bilan, «*HUKUMATGA OID*» belgili jo'natiladigan, joylanma ro'yxati bilan, «*Ehtiyot qiling*» — «*Осторожно*» belgili qiymati e'lon qilingan xatlar yoki qiymati e'lon qilingan banderollarni, shuningdek, «*O'z qo'liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*», «*Yo'llanmalar bilan*» — «*С пультёвками*», «*Chiptalar bilan*» — «*С билетами*», «*Hujjatlar bilan*» — «*С документами*» belgili qiymati e'lon qilingan xatlarni, qiymati e'lon qilingan aviabanderollarni qabul qilishda 1-shakldagi daftar kvitansiyasining «Alohida belgisi» satriga tegishli yozuvlar yozib qo'yiladi.


Yuqorida keltirilgan yozuvlardan tashqari, 1-shakldagi daftarlardan kvitansiyalarda aloqa xodimi tomonidan xizmatlar to'lovining

shakli: naqd pullar «*naqd*», naqd pulsiz «*naqdsiz*», plastik kartochka bilan «*p/kart.*» ko'rsatilishi kerak.

Qiymati e'lon qilingan xatlar yoki qiymati e'lon qilingan banderollarni qabul qilishni SHKda rasmiylashtirish vaqtida jo'natuvchiga belgilangan namunadagi kvitansiya beriladi (36-rasm).

Shahardan tashqariga yuboriladigan qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderolni qabul qilishda 1-shakldagi daftar kvitansiyasining (SHK) bo'sh joyiga shtrixkod yopishtiriladi. 1-shakldagi daftardagi kvitansiyaning nusxasiga shtrixkod raqami qo'lda yoziladi.

Qabul qiluvchi aloqa xodimi 1-shakldagi daftardan kvitansiyaga imzo qo'yadi va qabul qilish sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izini tushiradi.

TOSHKENT POCHTAMTI	
Naqd KVITANSIYA	15.05.2016
QAYERGA	Qarshi
KIMGA	Jo'rayevaga
OPERATOR	Shoyusupov
Qiymati e'lon qilingan banderol	
146-son	 *VA100201209UZ*
Og'irlik:	1990 g
	1000 Baholash summasi
	2050 Banderollar
	500 E'l.qilingan qiymat uchun
	1000 Qog'ozga o'rovlash
Jami.....	3550

36-rasm. SHKda qabul qilingan qiymati e'lon qilingan banderolga kvitansiyaning to'ldirish namunasi.

4.2.2. Jo‘natiluvchi va tranzit qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarga ishlov berish

Pochta aloqasi obyektlarida qabul qilingan qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollar jadvalda belgilangan muddatlarda qabul qiluvchi tomonidan ikki nusxada tuziladigan 16-shakldagi yukxatga imzo qo‘yilib, nomma-nom tekshirilib, unga ishlov berish va jo‘natishga beriladi. AIJda 16-shakldagi yukxat tuziladi va SHKda bosib chiqariladi. 16-shakldagi yukxatda 1-shakldagi daftar yoki shtrixkod bo‘yicha ularning raqamlari, belgilangan

		16-sh.
<p>Pochta jo‘natildi ___ soat ___ daqiqada _____ kuzatuvda (familiya) _____ - son guvoohnoma Almashinishi kerak _____ qop</p> <p style="text-align: center;">Jo‘natilgan pochta uchun YUKXAT</p> <p style="text-align: center;"><u>Namangan 1</u> dan _____ <u>Namangan</u> manziliga _____</p> <p style="text-align: center;">OP</p> <p>1356-son qop _____ konteynerda _____</p> <div style="text-align: center;">  <p>(jo‘natma joyining taqvim shtempeli izi)</p> </div>	<p>Pochta, kuryerlik jo‘natmalari va buyumlarining nomi</p>	<p>Miqdor</p>
	Konteyner.....	
	«HUKUMATGA OID» belgili qoplar.....	
	Ustuvor pochta jo‘natmalari joylangan qoplar.....	
	Kuryerlik jo‘natmalari joylangan qoplar.....	
	Tezkor pochta jo‘natmalari joylangan qoplar.....	
	Sug‘urta qoplar.....	
	Xalqaro jo‘natmalar joylangan qoplar.....	
	Yozma xat-xabarlar joylangan qoplar.....	
	Davriy nashrlar joylangan qop va bog‘lamlar.....	
	Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollar.....	6
	Mayda paketlar.....	
	«Ehtiyot qiling» belgili posilkalar.....	
	E‘lon qilingan qiymati eng kam ish haqining besh barobaridan ortiq baholangan posilkalar.....	
	Odatdagi va e‘lon qilingan qiymati eng kam ish haqining besh barobarigacha baholangan posilkalar.....	
Bo‘sh buyumlar.....		
Jami.....	6	

T/r	Pochta jo'natmalari va buyumlari nomi	1-shakldagi daftar bo'yicha yoki shtrixli pochta identifikatori bo'yicha raqam	E'lon qilingan qiymati, so'm	Ustama to'lov summasi, so'm	Qayerga, qayerdan	Alohi-da belgisi	Pochta jo'natmalarining keluvchi tartib raqami
1	<i>Q.e.q. band.</i>	<i>VA165125313UZ</i>	<i>5000</i>		<i>Toshkent 97</i>		
2	- -	<i>VA165125323UZ</i>	<i>7500</i>		<i>Qiziltepa 2</i>		
3	- -	<i>VA165125333UZ</i>	<i>15000</i>	<i>14950</i>	<i>Taxiatosh 3</i>		
4	- -	<i>VA165125423UZ</i>	<i>11500</i>	<i>14950</i>	<i>Qarshi 6</i>	<i>b/bild</i>	
5	<i>Q.e.q. xat</i>	<i>VA165125473UZ</i>	<i>7000</i>		<i>Olmazor</i>		
6	- -	<i>VA165125383UZ</i>	<i>10000</i>		<i>Nukus 13</i>	<i>b/bild</i>	
		<i>Oltita</i>					
					<i>ABB Rahimov</i>		
					<i>Opr Aliyeva</i>		

37-rasm. Qoplarda jo'natiladigan qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarga 16-shakldagi yukxatni tuzish va rasmiylashtirish namunasi.

joyi va umumiy miqdori so'zlar bilan ko'rsatiladi. E'lon qilingan qiymati eng kam ish haqining bir barobaridan ortiq bo'lgan xatlar 16-shakldagi yukxatda 1-shakldagi daftar yoki shtrixkod bo'yicha raqamlari, e'lon qilingan qiymat summasini ko'rsatgan holda yoziladi. Ustama to'lovli qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar 16-shakldagi yukxatga raqami, e'lon qilingan qiymati va ustama to'lov summasini ko'rsatgan holda yoziladi.

16-shakldagi yukxatning nusxasiga imzo qo'yilganda qabul qilingan qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarning umumiy soni so'z bilan va qabul qilish vaqti yoziladi. Pochta jo'natmalarini qabul qilgan aloqa xodimining imzosi qo'yilgan 16-shakldagi yukxatning bir nusxasi qabul qilish kassasida qoladi.

Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarni qabul qiluvchi aloqa xodimi imzo qo'yishdan avval, o'rovlar, muhrlar, plombalar, bog'ichlar, tasmalarning butligiga ahamiyat bergan holda, ularning tashqi holatini ko'zdan kechirishi kerak.

Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar saralanadi va butun o'tish yo'lida sug'urta qoplarda jo'natiladi.

Avtomatlashtirilmagan aloqa bo‘limlarida qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarni sug‘urta qoplarga joylashdan avval nusxa ko‘chiruvchi qog‘oz orqali ikki nusxada tuziladigan 16-shakldagi (37-rasm) alohida yukxatlarda yoziladi.

Avtomatlashtirilgan aloqa bo‘limlarida qiymati e‘lon qilingan xatlar yoki qiymati e‘lon qilingan banderollarga yopishtirilgan shtrixkodlarni skanerlash jarayonida 16-shakldagi yukxatlar avtomatik ravishda tuziladi. Skaner bo‘lmaganda qiymati e‘lon qilingan xatlar yoki qiymati e‘lon qilingan banderollarning raqamlari, shuningdek, barcha zarur ma‘lumotlar SHKga kiritiladi, 16-shakldagi yukxatga aloqa xodimi tomonidan qo‘lda yoziladi.

Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarni 16-shakldagi yukxatga yozishda ularning raqamlari 1-shakldagi daftar (SHK) bo‘yicha yoki shtrixkod bo‘yicha, e‘lon qilingan qiymat summasi va belgilangan joyi yozib qo‘yiladi. Agar qiymati e‘lon qilingan xat yoki qiymati e‘lon qilingan banderol ustama to‘lov bilan qabul qilingan bo‘lsa, unda 16-shakldagi yukxatga ustama to‘lov summasi ham yozib qo‘yiladi. Tranzit qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarga, bundan tashqari, qabul qilish joyi ham qo‘shib yoziladi.

16-shakldagi yukxatlarda qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollar sonining yakuni so‘zlar bilan yoziladi, ular ishlov berishda ishtirok etgan ikkita aloqa xodimi tomonidan imzolanadi. Shtatida bitta xodimi bo‘lgan (yetkazib berishni amalga oshiruvchi aloqa xodimlarini hisobga olmaganda) pochta aloqasi obyektlarida yukxat faqat o‘sha xodim tomonidan imzolanadi. Bundan tashqari, qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarning yakuni «Pochta jo‘natmalari va buyumlarining nomi» ustunidagi tegishli qatorga raqamlar bilan yozib qo‘yiladi.

16-shakldagi har bir yukxat va uning nusxalariga, yukxat tuzilgan sanasi bo‘lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi. Avtomatlashtirilgan ishlov berishda yukxatni tuzishdagi sanasi SHKda bosib chiqariladi.

16-shakldagi yukxatning asl nusxalari qop ichiga solinadi, nusxalari esa, pochta aloqasi obyektida qoladi.

Ish hajmi katta bo‘lmagan aloqa bo‘limlaridan pochta aloqasi obyekti (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi, almashinuv punkti)gacha qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan

banderollar 16-shakldagi yukxatga yozilgan holda kichik posilkalar bilan birga jo‘natilishi mumkin.

Agar qopda ikki va undan ortiq qiymati e‘lon qilingan xat jo‘natilayotgan bo‘lsa, u holda ular kanop ip bilan xochsimon qilib bog‘lanadi.

«Sug‘urtali» — «Cmpaxoβoū» yozuvi qayd qilingan 17-shakldagi manzil yorliq (38-rasm) qopning og‘ziga qo‘yiladi. 17-shakldagi manzil yorliqda sug‘urta qopini jo‘natadigan pochta aloqasi obyektining nomi, belgilangan joy pochta aloqasi obyektining nomi, sug‘urta qopi og‘irligi va unga biriktirilgan raqam ko‘rsatiladi. 17-shakldagi manzil yorliqda sug‘urta qopini jo‘natish sanasi bo‘lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi.


4.2.3. Keluvchi qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarga ishlov berish

Keluvchi qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollar kelgan joylarida tuzilgan 16-shakldagi yukxatga imzo qo‘yilib, ish joylari (omborxonaga) o‘tkaziladi. Agar sug‘urta qoplarni ochish va qiymati e‘lon qilingan xatlar hamda qiymati e‘lon qilingan banderollarni berish ish joylari bir xonada bo‘lmasa hamda bu ishlar turli aloqa xodimlari tomonidan bajarilsa, qiymati e‘lon qilingan pochta jo‘natmalarini uzatish uchun 16-shakldagi yukxat to‘liq ma‘lumotlar va qo‘shimcha belgilarni ko‘rsatgan holda ikki nusxada tuziladi.

Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarni qabul qiluvchi aloqa xodimi ularni 16-shakldagi yukxatdagi yozuvlar bilan nomma-nom solishtiradi, o‘rovlarning, muhrlar, plombalar, bog‘lamlar, tasmalar butunligini, shaffof polietilen o‘rovni termopayvandlash mashinasi yordamida payvandlashda qabul qilish joyining pochta aloqasi obyekti nomi tushirilgan izlarning mavjudligini tekshiradi.

Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollar qabul qilingandan keyin aloqa xodimi pochta xavfsizligi yuzasidan ularning nazoratini Pochta, kuryerlik jo‘natmalari pochta xavfsizligi yuzasidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Qaytarilgan pochta jo‘natmasi kelganda 16-shakldagi yukxatga (qiymati e‘lon qilingan xat va qiymati e‘lon qilingan banderol yozib qo‘yilgan satrga) «Q» harfi yozib qo‘yiladi va ostiga chiziladi hamda



38-rasm. Sug'urta qoplar uchun 17-shakldagi manzil yorlig'ini rasmiylashtirish namunasi.

qabul qilish joyi va pochta jo'natmasi qayerdan qaytarilganligi ko'rsatiladi.

16-shakldagi yukxatning old tomonida har bir qiymati e'lon qilingan xat va qiymati e'lon qilingan banderolning yozuvi qarshisidagi tegishli qatorda keluvchi tartib raqamlari yozib qo'yiladi. Ushbu raqamlar 16-shakldagi yukxatning orqa tomoniga maxsus ajratilgan joyda raqamdan raqamgacha yozib ko'rsatiladi. Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarni tartib bilan raqamlash bir oy davomida yuritiladi.

Qiymati e'lon qilingan xatning orqa tomoniga kelib tushgan sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi, qiymati e'lon qilingan banderolda esa, kelgan sanasi qo'lda yozib ko'rsatiladi. O'sha yerning o'zida, 16-shakldagi yukxat bo'yicha keluvchi tartib raqamlari yozib qo'yiladi.

Tekshiruv vaqtida aniqlangan qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarni o'rab joylash va rasmiylashtirishda yo'l qo'yilgan nuqsonlar 30-shakldagi xabarnoma yoki 51-shakldagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Har bir qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderolga 22-shakldagi xabarnoma tuziladi, unga pochta jo'natmasining keluvchi tartib raqami, adresatning manzili (familiyasi, ismi, otasining ismi yoki yuridik shaxsning to'liq nomi), pochta jo'natmasining turi, e'lon qilingan qiymat summasi (zarur hollarda ustama to'lov summasi), qabul qilish joyi va 1-shakldagi daftar bo'yicha yoki shtrixkod bo'yicha raqam yozib qo'yiladi. Agar qiymati e'lon qilingan xatlarda «O'z qo'liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan» — «Вручить лично. С заказным уведомлением», «Yo'llanmalar bilan» — «С путёвками», «Chiptalar bilan» — «С билетами», «Hujjatlar bilan» — «С документами», «Bildirishnoma bilan» — «С уведомлением» va aynan qaysinisi bilan, «Yetkazib berish bilan» — «С доставкой» belgilari bo'lsa, u holda bunday belgilar xabarnoma old tomonining yuqori qismiga ham qo'yiladi, shuningdek, berish amalga oshiriladigan manzil va pochta aloqasi obyektining ish vaqti ham ko'rsatiladi. Yozilgan 22-shakldagi xabarnomalar yetkazib berishga, «Yo'qlab olinadigan» kartotekaga, abonement pochta javonlari qutichalariga qo'yish uchun beriladi.

4.2.4. Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarni yetkazib berish (topshirish)

Yetkazib berish to'lovi to'langan qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar 22-shakldagi xabarnomalar bilan birga yetkazib berish uchun aloqa xodimlariga turlari va keluvchi tartib raqamlari bo'yicha yozilgan 55-shakldagi daftarga imzo qo'ydirilib topshiriladi (29-rasm).

Aloqa xodimlarga yetkazib berish uchun topshiriladigan xatlar va banderollar e'lon qilingan qiymatining umumiy summasi pochta

aloqasi obykti (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi)ning rahbari tomonidan belgilanadi.

Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarni yetkazib berish uchun qabul qilishda aloqa xodimi ularning o‘rovi, muhri, plombasi, bog‘lami, tasma-sini diqqat bilan ko‘rib chiqadi, og‘irligining to‘g‘riligini tekshiradi va 55-shakldagi daftarga qabul qilingan pochta jo‘natmalarining sonini ko‘rsatib imzo qo‘yadi.

«Yo‘llanmalar bilan» — «С нymевкаму», «Chiptalar bilan» — «С билетаму», «Hujjatlar bilan» — «С документами» belgili qiymati e‘lon qilingan xatlarga 22-shakldagi birlamchi xabarnomalar adresatga 8-shakldagi daftarga imzo qo‘ydirilib, topshiriladi.

Adresat yoki oilaning katta yoshdagi a‘zolari bo‘lmaganda «Yo‘llanmalar bilan» — «С нymевкаму», «Chiptalar bilan» — «С билетаму», «Hujjatlar bilan» — «С документами» belgili qiymati e‘lon qilingan xatlar uchun 22-shakldagi birlamchi xabarnomalar va barcha 22-shakldagi ikkilamchi xabarnomalar adresatning yozma ravishdagi roziligi bilan qo‘shnilariga topshiriladi yoki abonent pochta javoni qutichasiga, yoki bo‘lmasa abonent pochta qutisiga tushiriladi.

Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollar adresatlarga 22-shakldagi xabarnomaning orqa tomoniga taqdim etilgan hujjatlarning ma‘lumotlari ko‘rsatilishi bilan, imzo qo‘ydirilib, beriladi. 22-shakldagi xabarnomaga imzo qo‘yishdan tashqari, adresat familiyasini bosh harflarda yozishi yoki imzo qo‘ygan shaxsni xatosiz aniqlab olish imkonini beradigan har qanday aniq va tushunarli yozuvni qo‘shimcha tarzda yozib qo‘yishi kerak.

Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarni topshirishdan avval, aloqa xodimi, 22-shakl xabarnomasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni, taqdim etilgan hujjat bilan solishtirishi kerak. Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarning topshirilganligini aloqa xodimi o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Joylanmalarining ro‘yxati bilan qabul qilingan qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarni adresatlarga uylarida topshirilganda, ular ochiladi. Jo‘natma o‘rovi shunday kesiladiki, bunda uning muhri va ichidagi joylanma shikastlanmasligi kerak.

Agar qiymati e‘lon qilingan xatlar yoki qiymati e‘lon qilingan banderollarni ochishda ichidagi joylanmaning kamomadi aniqlansa, bunda 107-shakldagi ro‘yxatga aynan nima yo‘qligi haqida yozib qo‘yiladi, 107-shakldagi ro‘yxat mavjud bo‘lmaganda esa,

joylanmaning mavjudligi 22-shakldagi xabarnomaning orqa tomonida ko'rsatiladi va bu yozuv adresat hamda aloqa xodimi tomonidan imzolanadi. Bunday qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderol pochta aloqasining yetkazib berish obyektiga 51-shakldagi dalolatnoma tuzish uchun qaytariladi va joylanma pochta aloqasining yetkazib berish obyektida tuzilgan dalolatnomaning nusxasi bilan birga adresatga topshiriladi.

Qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderol topshirish vaqtida oluvchining xohishiga ko'ra, ochilmasligi mumkin, lekin bu haqda 22-shakldagi xabarnomaga oluvchining imzosi bilan sana ko'rsatilgan holda, tasdiqlangan «*Ochishdan bosh tortaman. Da 'voyim yo 'q*» deb yozib qo'yilishi kerak. Ushbu yozuv joylanmaning yetishmasligi yoki buzilishi (shikastlanishi) to'g'risidagi da'voni qanoatlantirishni rad etish uchun asos bo'lib hisoblanadi, bu haqda aloqa xodimi tomonidan oluvchiga zarur tushuntirishlar beriladi.

Yetkazib berishdan qaytib kelgan aloqa xodimi egalariga topshirilmagan pochta jo'natmalariga 20-shakldagi ma'lumotnomalarni tuzadi va ularga birlashtirib qo'yadi, topshirilgan qiymati e'lon qilingan xatlar, qiymati e'lon qilingan banderollar va topshirilmagan pochta jo'natmalari uchun 20-shakldagi xabarnomalarni topshiradi.

Hisobotni qabul qiluvchi aloqa xodimi topshirilmagan pochta jo'natmalarining o'rovi, muhrlari, plombalari, bog'lamlari, tasmalari butunligini, zarur bo'lganda esa, og'irligini ham tekshiradi. 55-shakldagi daftarda topshirilmagan qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarning raqamlarini ko'rsatadi va hisobotni qabul qilib olganligi haqida imzo qo'yadi.

Pochta aloqasi obyektlarida qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar xuddi uyga yetkazib berilgan tartibda, lekin pochta jo'natmalarining o'rovida ko'rsatilgan haqiqiy og'irligiga muvofiq kelishini tekshirib topshiriladi. Zarur holatlarda ularni saqlaganlik uchun to'lov undiriladi.

Yuridik shaxslarga qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarni bitta 22-shakldagi xabarnoma bo'yicha topshirishda ko'rsatilgan hujjat to'g'risidagi ma'lumotlar, olingan pochta jo'natmalarining soni (so'zlar bilan) 22-shakldagi xabarnomaning orqa tomonida yuridik shaxslarning vakolatlangan vakillari tomonidan ko'rsatiladi va imzolanadi. Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar yuridik shaxsning vakolat-

langan vakiliga berilishini aloqa xodimi o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Avtomatlashtirilmagan aloqa bo'limlari boshliqlari keluvchi 16-shakldagi yukxatlar bo'yicha qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar yetkazib berilgan (topshirilgan) sanasini har kuni belgilaydilar va ushbu ma'lumotlarni ATga kiritish uchun axborotni pochta aloqasi obyekti (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ga beradilar.

Avtomatlashtirilgan aloqa bo'limlari boshliqlari (o'rinbosarlari) qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar yetkazib berilganligi (topshirilganligi) to'g'risidagi axborotni har kuni ATga belgilangan tartibda kiritadilar.

4.3. Ichki posilkalar

4.3.1. Posilkalarni qabul qilish


Posilkalarning o'rovi joylanma xarakteriga, yo'lning davomiy-ligiga, jo'natish shart-sharoitlariga mos kelishi va tashish vaqtida jo'natmaning shikastlanish ehtimoli imkon bermasligini hisobga olib, jo'natuvchining o'zi tomonidan tanlanadi.

Odatdagi va eng kam ish haqining uch baravarigacha baholangan qiymati e'lon qilingan posilkalar «kraft» qog'ozi yoki shunday qalinlikdagi boshqa o'rov qog'ozi bilan ikki qavat qilib, ikki (manzilli va unga qarama-qarshi) tomoniga qattiq kartondan tayyorlangan qistirmadan foydalangan holda o'raladi.


Eng kam ish haqining uch baravarigacha baholangan qiymati e'lon qilingan mayda posilkalar xuddi qiymati e'lon qilingan banderollar kabi o'rab joylanishi mumkin.

Mato bilan qoplab tikilmagan, yog'och (faner) qutilardagi posilkalar aloqa xodimi tomonidan quti qirralaridagi o'yiq joylar orqali yaxlit pishiq kanop ip bilan bog'lanadi. Agar posilkaning uzunligi 30 sm dan oshmasa, posilka xochsimon (39-rasm) qilib bog'lanadi, uzunligi 30 sm dan ortiq bo'lgan posilkalar esa, bir joyidan uzunasiga va ikki joyidan ko'ndalangiga o'tkazib bog'lanadi (40-rasm). Kanop bog'ich tarang qilib tortiladi va tutashgan joylari kanop ipini chiqarib olmaydigan yoki joyidan surilmaydigan holda tugun qilib bog'lanadi. Kanop ipining uchlari posilkaning chap (manzildan) yon tomoniga chiqarib qo'yiladi. Posilkalarning bog'ichi qiyshayishiga yo'l qo'yilmaydi.


Ko‘chatlar va o‘simliklar, tayyorlovchi tomonidan panjarali kataklarga joylangan aniq (o‘lchash va boshqa) asboblار, avtopokrishkalar, qop-qanor tikiladigan matolarga o‘rab joylangan katta hajmli predmetlar solingan posilkalarga, shuningdek, ochiq holda jo‘natiladigan yaxlit sinmaydigan predmetlarga, jo‘natuvchilar tomonidan manzil ma‘lumotlari ko‘rsatilgan qalin karton, faner



39-rasm. Uzunligi 30 sm gacha bo‘lgan posilkalarni bog‘lash namunasi.



40-rasm. Uzunligi 30 sm dan ortiq bo‘lgan posilkalarni bog‘lash namunasi.



41-rasm. Gofrokartonli qutilarga posilkalarni o'rovlash namunasi.

yoki plastikdan tayyorlangan yorliqlari biriktirib qo'yiladi. Bundan tashqari, ushbu ma'lumotlar bevosita o'rovlarida takroran yoziladi.

Kartonli o'rovlarga qog'oz tasmalar yopishtiriladi. Tasma qutining tagi va ustiga hamda qutining metall skobalar bilan tikilgan qirralariga yopishtiriladi (41-rasm).

Posilkalar jo'natuvchilardan faqat ochiq holda qabul qilinadi. Qiymati e'lon qilingan posilkalar jo'natuvchining xohishiga ko'ra joylanmaning ro'yxati bilan ham, ro'yxatsiz ham qabul qilinishi mumkin. Qiymati e'lon qilingan posilkalarni qabul qilishda 107-shakldagi ro'yxat tuziladi.

Har bir posilka uchun jo'natuvchi 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankini to'ldiradi (42-rasm). 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida jo'natuvchi o'z imzosi bilan «*Jo'natishga man etilgan joylanmalar yo'q. O'rovga qo'yilgan talablar bilan tanishganman*» — «*Запрещенных к пересылке вложений нет. С требованиями к упаковке ознакомлен*» matnini tasdiqlaydi.

Posilkalarni qabul qilish vaqtida aloqa xodimi:

a) posilka transportning qaysi turi (yerusti transporti, avia-transport yoki kombinatsiyalangan usul) orqali jo'natilishini aniqlashi;

b) posilkalarning to'g'ri manzillanganligini, 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida va posilka o'rovida ko'rsatilgan oluvchi

«O'zbekiston pochta» ochiq
aksiyadorlik jamiyati

116-sh.

_____ -son

(16-shakldagi yukxat bo'yicha)

**Posilkaga
XABARNOMA**

_____ -son

(1-shakldagi daftar bo'yicha)	Qabul qilish sanasi (taqvim shtempeli izi)	1-shakldagi daftar bo'yi- cha yoki shtrixli pochta identifikatori bo'yicha raqam	Jo'natish uchun to'lov, xizmatlar turi
-------------------------------------	--	---	--

Bir yuz yigirma ming so'm
(e'lon qilingan qiymat summasi so'zlar bilan)

Kimga **Alijon Hasanovich Hasanovga**

Qayerga **Mevazor ko'chasi, 5-uy, 11-xonadon**
(to'liq manzili va pochta indeksi)
Urganch, 220106

Kimdan **Bahodir Rashidovich Karimovdan**

Manzil **Oxunboboyev maydoni, 21-uy, 19-xonadon**
(to'liq manzili va pochta indeksi)
Toshkent shahri, 100021

Jo'natishga man etilgan joylanmalar
yo'q. O'rovga qo'yiladigan talablar **Hasanov**
bilan tanishganman _____
(imzo)

Pasport Seriya **CA** nomer **9564239**
(hujjat nomi)

kim tomonidan **Toshkent shahar Olmazor TIIB**
berilgan **5-aprel 2012-yil**

Tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi

Og'irlik

_____ kg _____ g

To'lov:

og'ir. uchun _____ s. _____ t.

e'lon qil.

qiy. uchun _____ s. _____ t.

_____ s. _____ t.

_____ s. _____ t.

Jami: _____ s. _____ t.

(operator imzosi)

QIRQISH CHIZIG'I

«O'zbekiston pochta»
aksiyadorlik jamiyati

_____ - son

(16-shakldagi yukxat bo'yicha)

_____ -son posilkaga manzil

(1-shakldagi daftar yoki shtrix. poch.
identifikatori bo'yicha)

E'lon qilingan qiymat summasi Bir yuz yigirma ming so'm
Kimga Alijon Hasanovich Hasanovga
Qayerga Mevazor ko'chasi, 5-uy, 11-xonadon (to'liq manzili va pochta indeksi)
Urganch, 220106

Yo'g'on qora chiziq bilan ajratilgan joyni jo'natuvchi to'ldiradi

42-rasm. 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankini
to'ldirish namunasi.

hamda jo‘natuvchining manzillarini solishtirib tekshirishi, tegishli holatlarda esa, qo‘shimcha belgilar va yozuvlarning mavjudligi hamda to‘liqligini tekshirishi;

d) ilova qilinadigan 116-shakldagi manzil blankida «*Jo‘natishga man etilgan joylanmalar yo‘q. O‘rovga qo‘yilgan talablar bilan tanishganman*» — «*Запрещенных к пересылке вложений нет. С требованиями к упаковке ознакомлен*» matnidan so‘ng jo‘natuvchining imzosi mavjudligini tekshirishi;

e) jo‘natuvchining ishtirokida jo‘natiladigan joylanmaning «*Jo‘natishga man etilgan joylanmalar yo‘q*» belgisi bilan muvofiqqligini tekshirishi. Posilkalarda jo‘natilishi taqiqlangan joylanmalar aniqlanganda, ushbu joylanma posilkalardan olib qo‘yiladi.

Zarur bo‘lganda, O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini bo‘yicha bosh davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan fitosanitar sertifikatini mavjudligini tekshirishi;

f) posilkani o‘rab joylashi, posilka o‘rovi va ilova qilinadigan manzil blankidagi belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektining indeksi va nomini rangli qalam (qalam, ruchka, marker) bilan belgilab qo‘yishi;

g) jo‘natuvchining ishtirokida posilkani bog‘lashi, muhr qo‘yishi (plombalashi) va og‘irligini tarozida tortib ko‘rishi. 2-shakldagi yorliqda (43-rasm) qabul qilish joyidagi pochta aloqasi obyektining



43-rasm. 2-shakldagi yorliqni rasmiylashtirish namunasi.

nomi va posilkaning og'irligini ko'rsatishi. 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida og'irlikni jo'natish uchun to'lov summasini ko'rsatishi va imzo qo'yishi;

h) mahalliy posilkani qabul qilishda 2-shakldagi yorliqqa va 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankiga 1-shakldagi daftar bo'yicha raqamini ko'rsatishi. Shahardan tashqariga yuboriladigan posilkani qabul qilishda 2-shakldagi yorliq yopishtirishi, posilkaning manziliga esa shtrixkod bo'yicha raqamini qo'lda ko'rsatishi;

i) 2-shakldagi yorliqqa va 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankiga shtempel izini tushirishi. 2-shakldagi yorliqni posilkaning manzildan yon chap tomoniga yopishtirishi;

j) 1-shakldagi daftardan kvitansiyaning nusxa ko'chiruvchi qog'oz yordamida yozib olishi;

k) 1-shakldagi daftardan kvitansiya imzo qo'yishi, shahardan tashqariga yuboriladigan posilkani qabul qilishda 1-shakldagi daftardan kvitansiyaning birinchi nusxasiga shtrixkod yopishtirishi, orqa tomoniga qabul qilish sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izini tushirishi, jo'natish uchun to'lov olishi va jo'natuvchiga 1-shakldagi daftardan kvitansiyaning berishi kerak. Aloqa xodimi 1-shakldagi daftardan kvitansiya nusxasiga shtrixkod bo'yicha raqamini qo'lda yozib ko'rsatadi.

Posilkalarni qabul qilish SHKda rasmiylashtirilganda jo'natuvchiga belgilangan namunadagi kvitansiya beriladi. Qabul qilib oluvchi aloqa xodimi kvitansiya imzo qo'yadi va qabul qilish sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izini tushiradi. Shahardan tashqariga yuboriladigan posilkani qabul qilishda SHKda kvitansiyaning bo'sh joyiga shtrixkod yopishtiriladi.

SHKda rasmiylashtirilgan 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankining xabarnomasida qabul qilish joyidagi pochta aloqasi obyektining nomi, qabul qilish sanasi va kvitansiyaning tartib raqami, shuningdek, jo'natish uchun to'lov summasi aks ettiriladi. Shahardan tashqariga yuboriladigan posilkani qabul qilishda 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankdagi posilkaga xabarnomasining bo'sh joyiga aloqa xodimi shtrixkod yopishtiradi va imzo qo'yadi. 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankdagi posilkaga manzil qismida shtrixkod bo'yicha raqami qo'lda yozib ko'rsatiladi.

Posilka bog'lamidagi sug'urta muhri (plomba)ning surg'uchli izi bevosita tugun yaqiniga (tugun posilka qirrasida bo'lmasligi kerak) tushiriladi. Mato bilan qoplangan posilkalarda tashqi choklar

shunday muhrlanishi kerakki, bunda tushirilgan sugʻurta muhrining surgʻuchli izi albatta tashqi choklarning chetiga qoʻyilishi shart, tushirilgan muhr izlarining markazi oʻrtasidagi oraliq ortigʻi bilan 10 sm boʻlishi kerak.

Kartonli oʻrovlarga yopishtirilgan qogʻoz tasmalarining kesishgan joyiga maxsus iz tushirish moslamasi yordamida diagonal boʻyicha birining ustiga ikkinchisini koʻndalang qilib, posilka qabul qilingan joydagi pochta aloqasi obyektining nomi koʻrsatilgan izi bosiladi. Tasma bilan yopishtirilgan qutining qirrasiga iz tushirish moslamasining izi tasma uzunasiga, tasmaning ikki tomoni boʻylab shunday joylashtiriladiki, bunda muhrning bir qismi tasmada boʻlsa, ikkinchi qismi posilka qutisida boʻladi.

Yuridik shaxslar tomonidan yopiq turda joʻnatiladigan posilkalar ularga berilgan muhr bilan ular tomonidan muhrlangan yoki belgilangan tartibda plombalangan boʻlishi kerak.

Yuridik shaxslar posilkalarni kartonli oʻrovlarda joʻnatadigan boʻlsa, karton qopqoqlarining ulangan joyi firma qogʻoz tasmasi bilan muhrlanadi yoki oddiy qogʻoz tasmalari bilan kesishgan burchaklariga ushbu yuridik shaxsga tegishli muhr izlari bosiladi. Muhr izlari quti qirralariga yopishtirilgan tasmalarga ham bosiladi.

4.3.2. Joʻnatiluvchi va tranzit posilkalarga ishlov berish

Pochta aloqasi obyektlarida qabul qilingan posilkalar 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanklari bilan birga jadvalda belgilangan muddatlarda, ishlov berishga va joʻnatishga beriladi.

Pochta aloqasi obyektlaridan joʻnatishdan oldin posilkalar quyidagilarga ajratiladi:

- a) «*HUKUMATGA OID*» belgili;
- b) aviaposilkalar;
- d) eʼlon qilingan qiymati eng kam ish haqining bir barobaridan ortiq baholangan «*Ehtiyot qiling*» — «*Осторожно*» belgili aviaposilkalar;
- e) «*Моʻyna. Veterinariya guvohnomasi bilan*» — «*Пушнина. С ветеринарным свидетельством*» belgili;
- f) «*Jun (dagʻal jun, soch, pat, tomiq). Veterinariya guvohnomasi bilan*» — «*Шерсть (щетина, волосы, перо, пух). С ветеринарным свидетельством*» belgili;
- g) «*Ehtiyot qiling*» — «*Осторожно*» belgili;

h) mayda;

i) odatdagi va e'lon qilingan qiymati eng kam ish haqining besh barobarigacha baholangan;

j) e'lon qilingan qiymati eng kam ish haqining besh barobaridan ortiq baholangan;

k) e'lon qilingan qiymati eng kam ish haqining o'n barobaridan ortiq baholangan;

l) katta o'lchamli;

m) «*Ehtiyot qiling. Asalarilar. Quyoshda tutib turilmasin. Veterinariya guvoohnomasi bilan*» — «*Осторожно. Пчёлы. На солнце не держатъ. С ветеринарным свидетельством*» belgili;

n) «*Mevalar*» — «*Фрукты*», «*Sabzavotlar*» — «*Овоци*» belgili;

o) «*Ko'chat*» — «*Rassada*» belgili;

p) og'irligi 10 kg dan ortiq — «*Og'ir vaznli*» — «*Тяжеловесная*».

Avtomatlashtirilmagan aloqa bo'limlarida jo'natiladigan posilkalarni saralashdan keyin ikki nusxada tuziladigan 16-shakldagi yukxatga qo'lda yoziladi (44-rasm). Yukxatda posilkaning 1-shakldagi daftar (SHK) yoki shtrixkod bo'yicha raqami, belgilangan joylari va e'lon qilingan qiymati summasi ko'rsatiladi. Ustama to'lovli posilkalarni yozishda 16-shakldagi yukxatda uning qiymati ko'rsatiladi.

Avtomatlashtirilgan aloqa bo'limlarida posilkalarga yopishtirilgan shtrixkodlarni skanerlashda 16-shakldagi yukxatlar avtomat tarzda tuziladi. Skaner bo'lmaganda posilkaning shtrixkod bo'yicha raqami, shuningdek, barcha zaruriy ma'lumotlar aloqa xodimi tomonidan SHKga 16-shakldagi yukxatga qo'lda kiritiladi.

Pochta aloqasi obyektlari (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi almashinuv punktlari)da posilkalar pochta xavfsizligi bo'yicha nazoratdan o'tkazilgandan so'ng mahalliy posilkalar ajratilishi bilan guruhlar bo'yicha saralanadi.

10 va undan ortiq posilkalar mavjud bo'lganda belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektigacha bevosita manzillangan to'g'ridan to'g'ri guruhlar bitta belgilangan joyga ajratiladi.

Guruhlar belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlarining manzili tuzilmaganda posilkalar tegishli almashinuv punktigacha guruhga kiritiladi.

Bir guruhga 40 tadan ortiq bo'lmagan bir posilkalar kiritiladi, ammo agar bir korxonadan bir manzilga va bir taqvim kunida bir

				16-sh.			
Pochta jo'natildi ___ soat ___ daqiqada _____ kuzatuvda (familiya) _____ - son guvoohnoma Almashinishi kerak _____ qop Jo'natilgan pochtaga YUKXAT <u>Toshkent XR PI-7</u> dan <u>Toshkent pochtaga PSAU</u> manziliga				Pochta jo'natmalari va buyumlarining nomi			Miqdor
_____-son qop konteynerda				Konteyner.....			
				«HUKUMATGA OID» belgili qoplar.....			
<p>(jo'natma joyining taqvim shtempeli izi)</p>				Ustavor pochta jo'natmalari joylangan qoplar.....			
				Kuryerlik jo'natmalari joylangan qoplar.....			
				Tezkor pochta jo'natmalari joylangan qoplar.....			
				Sug'urta qoplar.....			
				Xalqaro jo'natmalar joylangan qoplar.....			
				Yozma xat-xabarlar joylangan qoplar.....			
				Davriy nashrlar joylangan qop va bog'lamlar.....			
				Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar.....			
				Mayda paketlar.....			
				«Ehtiyot qiling» belgili posilkalar.....			
				E'lon qilingan qiymati eng kam ish haqining besh barobaridan ortiq baholangan posilkalar.....			
				Odatdagi va e'lon qilingan qiymati eng kam ish haqining besh barobarigacha baholangan posilkalar.....			12
Bo'sh buyumlar.....							
Jami.....			12				
T/r	Pochta jo'natmalari va buyumlari nomi	1-shakldagi daftar bo'yicha yoki shtrixli pochta identifikatori bo'yicha raqam	E'lon qilingan qiymati, so'm	Ustama to'lov summasi, so'm	Qayerga, qayerdan	Alohida belgisi	Pochta jo'natmalarining keluvchi tartib raqami
1	<i>pos.</i>	<i>SV101125641UZ</i>	<i>15000</i>		<i>Samarqand 8</i>		
2	-«-	<i>SV111145867UZ</i>	<i>12000</i>	<i>11450</i>	<i>Samarqand 30</i>		
3	-«-	<i>SV165156414UZ</i>	<i>15000</i>		<i>Samarqand 47</i>		
4	-«-	<i>SV112157615UZ</i>	<i>10000</i>		<i>Samarqand 51</i>		

5	-«-	SV112158925UZ	20000		Gulobod, Sam. vil.		
6	-«-	SV135164510UZ	23000	22500	Bulung'ur 1, Sam. vil.		
7	-«-	SV195174562UZ	95000		Jomboy, Sam. vil.		
8	-«-	SV217178958UZ	95000	94500	Ishtixon, Sam. vil.		
9	-«-	SV235184213UZ	80000		Urgut 1, Sam. vil.		
10	-«-	SV113191254UZ	40000		Oqtosh 1, Sam. vil.		
11	-«-	SV102200471UZ	50000		Chelak, Sam. vil.		
12	-«-	SV101212345UZ	40000	13800	Payshanba, Sam.vil.		
O'n ikkita			ABB Islomova		Opr. Murodov		

44-rasm. Posilkalar guruhi uchun 16-shakldagi yukxatni tuzish va rasmiylashtirish namunasi.

nechta guruh jo'natilsa, ularga soni bir xil bo'lmagan posilkalar kiritiladi (masalan: 40, 39, 38).

Qabul qilish joylarida miqdoridan qat'i nazar, lekin 10 donadan ortiq bo'lmagan katta o'lchamli va vazni og'ir posilkalar belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlarigacha guruhlariga ajratiladi.

E'lon qilingan qiymati eng kam ish haqining besh barobaridan ortiq baholangan posilkalar, shuningdek, «HUKUMATGA OID», «Avia» — «Авиа», «Mo'yna. Veterinariya guvohnomasi bilan» — «Пушнина. С ветеринарным свидетельством», «Mevalar» — «Фрукты», «Sabzavotlar» — «Овощи», «Jun (dag'al jun, soch, pat, par). Veterinariya guvohnomasi bilan» — «Шерсть (щетина, волосы, перо, пух). С ветеринарным свидетельством» belgili posilkalar qabul qilingan vaqtdan boshlab, butun o'tish yo'li davomida alohida qo'yiladi va boshqa posilkalarning guruhlariga qo'shilmaydi.

«HUKUMATGA OID» va «Ehtiyot qiling. Asalarilar. Quyoshda tutib turilmasin. Veterinariya guvohnomasi bilan» — «Осторожно. Пчёлы. На солнце не держать. С ветеринарным свидетельством»

вом» belgili posilkalar barcha o‘tish bosqichlarida alohida ajratilib, birinchi navbatda saralanadi.

Pochta aloqasi obyektlari (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi)da saralangandan so‘ng jo‘natiluvchi posilkalarga 116-shakldagi ilova manzili blanklariga yopishtirilgan shtrixkodlarni skanerlash yo‘li bilan 16-shakldagi yukxat ikki nusxada tuziladi. 16-shakldagi yukxatda tuzilgan sanasi va pochta aloqasi obyekti (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi)ning nomi ko‘rsatiladi. Barcha yetishmaydigan ma‘lumotlar: 1-sh. daftar (SHK) bo‘yicha raqami, belgilangan joyi, e‘lon qilingan qiymati summasi, zarur hollarda esa — ustama to‘lov summasi aloqa xodimi tomonidan SHKga 16-shakldagi yukxatga qo‘lda kiritiladi.

Qabul qilish joylaridagi pochta aloqasi obyektlarida 16-shakldagi yukxatga posilkalarni yozish o‘svuchi raqamlar tartibida 1-shakldagi daftar (SHK) yoki shtrixkodlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Tranzit posilkalarni 16-shakldagi yukxatga yozishda, bundan tashqari, qabul qilish joyidagi pochta aloqasi obyektining nomi va uning raqami (agar u mavjud bo‘lsa) ko‘rsatiladi.

16-shakldagi yukxatda posilkalarning umumiy soni so‘z bilan yozilib yakunlanadi va aloqa xodimi tomonidan lavozimi ko‘rsatilib imzolanadi. Posilkalar jami «Pochta jo‘natmalari va buyumlarining nomi» ustuniga raqamlar bilan yoziladi.

Mayda posilkalar, «*Ehtiyot qiling*» — «*Осторожно*» belgili posilkadan tashqari, barcha bosqichlarda sug‘urta qoplarda jo‘natiladi. Birlik miqdorlarda mayda posilkalar ochiq holda yerusti transportida jo‘natilishi mumkin.

E‘lon qilingan qiymati eng kam ish haqining o‘n barobaridan ortiq baholangan posilkalar qabul qilish joyidagi pochta aloqasi obyektlari tomonidan pochta aloqasi obyekti manziligacha sug‘urta qoplarga to‘g‘ridan to‘g‘ri joylanadi, «*Ehtiyot qiling*» — «*Осторожно*» belgili posilkalar, shuningdek, standart qop o‘lchamlaridan ortiq bo‘lgan katta o‘lchovli posilkalar bundan mustasno. Bunday posilkalar ochiq holda alohida 16-shakldagi yukxatga yozilgan holda jo‘natiladi.

E‘lon qilingan qiymati eng kam ish haqining o‘ttiz barobaridan ortiq baholangan posilkalar pochta aloqasi obyektlari (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamalari) tomonidan qabul qilinadi va beriladi.

4.3.3. Keluvchi posilkalarga ishlov berish

Keluvchi posilkalar pochtani kuzatib borish vazifasi yuklangan xodim (bundan keyin matn bo'yicha — pochtani kuzatuvchi)dan 16-shakldagi yukxat bilan birga qabul qilinadi. Bunda har bir posilkadagi o'rov, muhrlar, plombalar, bog'lamlarning butunligi tekshiriladi.

Dalolatnoma bilan rasmiylashtirilmagan, nuqsonli posilkalar pochtani kuzatuvchidan qabul qilinmaydi. Qabul qilinmaganligi sababi to'g'risida 16-shakldagi yukxatga tegishli belgi qo'yiladi.

Qabul qilingan pochta uchun tilxat beriladi. Shundan keyin posilkalarni qabul qilgan aloqa xodimi ilova qilinadigan 116-shakldagi manzil blankini 16-shakldagi yukxatdagi yozuv bilan nommanom solishtirib chiqadi, keyin posilkani 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanki bilan solishtiradi va har bir posilkaning og'irligini tekshiradi.

116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankining orqa tomoniga posilkalar kelib tushgan sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi.

16-shakldagi yukxatning old tomonidagi har bir posilka yozuvining tegishli qatori qarshisiga kelib tushgan posilkalarning keluvchi tartib raqamlari qo'yiladi. Shu raqamlar 16-shakldagi yukxatning orqa tomonidagi tegishli joyda raqamdan raqamgacha ko'rsatiladi. Keluvchi posilkalarning tartib raqamlari oy davomida olib boriladi. Keluvchi posilkalarga ishlov beradigan aloqa xodimi 16-shakldagi yukxatning orqa tomonidagi tegishli joyda imzo qo'yadi.

Keluvchi tartib raqamlari xabarnomalarda va posilkaga 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida, shuningdek, posilkalarning yon tomonlarida 2-shakldagi yorliq yaqinida yozib qo'yiladi. Ko'p seksiyali stellajlari bo'lgan yirik pochta aloqasi obyektlarida posilkalarni joylashtirishda ilova qilinadigan 116-shakldagi manzil suratida posilkaning keluvchi tartib raqami, maxrajida esa seksiya raqami ko'rsatiladi. Hajmi katta bo'lmagan pochta aloqasi obyektlarida posilkalarga keluvchi tartib raqamlari qo'yilmasligi mumkin.

Agar 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankini solishtirishda 16-shakldagi yukxatda posilkaning qiymati e'lon qilinganligi to'g'risidagi, ustama to'lov summasi to'g'risidagi yozuvlar yo'qligi aniqlansa, aloqa xodimi tomonidan yetishmayotgan ma'lumotlarni 16-shakldagi yukxatga kiritib qo'yiladi.

Qaytarilgan posilka kelganda, 16-shakldagi yukxatda (posilkalar yoziladigan satrda) «Q» harfi yozib qo'yiladi va tagiga chiziladi hamda qabul qilish joyi va qayerdan qaytarilgani ko'rsatiladi.

Pochta aloqasi obyektida berilishi kerak bo'lgan posilkalar 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanklaridan manzillari ajratiladi va yetkazib berishga, «Yo'qlab olinadigan» kartotekaga, pochta aloqasi obyektlariga o'rnatilgan abonement pochta javonlari orqali jo'natishga beriladi.

Yuridik shaxslarga manzillangan posilkalarga 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanklarining manzillari keluvchi tartib raqamlari bo'yicha umumiy soni ko'rsatilgan holda, 11-shakldagi reyestrda imzo qo'ydirilib, yetkazib berishga uzatiladi.

Posilkalarga 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankidagi xabarnoma qismlari kelgan kuni va keluvchi tartib raqamlari bo'yicha kartotekaga joylanadi.

4.3.4. Posilkalarni yetkazib berish (topshirish)

Posilkalarga ilova qilinadigan 116-shakldagi manzil blanklari bilan birga yetkazib berishga beriladi. Posilkalarga 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankdagi xabarnoma qismining orqa tomoniga yetkazib berish uchun haq va zarur hollarda, saqlanganlik uchun haq yozib qo'yiladi, agar posilka qaytarilgan yoki qayta jo'natilgan bo'lsa, u holda uni qaytarish yoki qayta jo'natish haqining summasi ham yozib qo'yiladi.

Yetkazib berish uchun beriladigan posilkalar 55-shakldagi daftarga keluvchi tartib raqamlari bo'yicha yoziladi.

Posilkalarni yetkazib berish uchun qabul qilayotgan aloqa xodimlari ularning og'irliklarini, o'rovlari, muhrlari, plombalari, bog'lamlari, tasmalarining butligini tekshiradilar, 55-shakldagi daftarga posilkalarning umumiy sonini ko'rsatgan holda, o'z imzolarini qo'yadilar.

Adresatlarga yetkazib berilgan posilkalarni yetkazib berish, saqlash, qaytarish va qayta jo'natishda to'lov undiriladi.

Posilkalarni uyga yetkazib berish tugagandan so'ng, aloqa xodimi nazorat qiluvchi shaxsga hisobot beradi. Nazorat qiluvchi shaxs topshirilmagan posilkalarning o'rovlari, muhrlari, plombalari, bog'lamlari, tasmalari butligini, zarur bo'lganda, ularning og'irligini ham tekshiradi. Hisobot 55-shakldagi daftarda, nazorat qiluvchi shaxs va hisobotni topshiruvchi aloqa xodimining imzolari

bilan topshirilmagan posilkalarning raqami va sanasi ko‘rsatilgan holda tasdiqlanadi.

Posilkalarni qayta jo‘natish, qaytarish, saqlash va yetkazib berish uchun pullar 47-shakldagi daftardan kvitansiya (45-rasm) nusxalari bo‘yicha pochta aloqasi obyektining kassasiga topshiriladi, raqamlari xabarnomaning orqa tomonida ko‘rsatiladi.

Topshirilmagan posilkalarga topshirilmaganlik sabablari ko‘rsatilgan holda, 20-shakldagi ma‘lumotnomalar tuziladi.

Posilkalarga ilova qilinadigan 116-shakldagi manzildagi xabarnomaning orqa tomonida oluvchiga imzo qo‘ydirilib topshiriladi. Agar adresat 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankining xabarnomasi bo‘yicha bir emas, bir nechta posilka oladigan bo‘lsa, u holda posilkalar miqdori so‘zlar bilan yozib ko‘rsatiladi.

Posilkalar to‘plamini oladigan yuridik shaxslarning vakolatlangan vakillari taqdim etilgan hujjat to‘g‘risida yozib qo‘yishlari va posilkani olganligi to‘g‘risida 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanki xabarnoma qismining biriga, qancha posilka olinganligi va ularning «...dan ... gacha» keluvchi tartib raqamlarini ko‘rsatgan holda, imzo qo‘yadilar.



«O‘zbekiston pochta» aksiyadorlik jamiyati

24 - son K V I T A N S I Y A

SS236936251UZ — son posilkani saqlash uchun

Nazarov dan

uch yuz ellik so‘m 00 tiyin olindi

(so‘m so‘zlar, tiyin raqamlar bilan)

Murodova

(imzo)

45-rasm. 47-shakldagi daftardan kvitansiyaning to‘ldirish namunasi.

Aloqa xodimi posilkani adresat ishtirokida tarozida tortib ko‘rishi va uni posilkaga 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankini berishi, tegishli hollarda esa, adresatdan posilkani saqlash, qaytarish yoki qayta jo‘natish uchun haq olishi kerak. O‘z imzosi bilan adresat posilkani olganligini, uning og‘irligi mosligini, o‘rovlar, muhrlar, plombalar, bog‘lamlar, tasmalar butligini tasdiqlaydi. Posilkani bergan aloqa xodimi 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankining xabarnoma qismida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni taqdim etilgan hujjat ma‘lumotlari bilan solishtiradi, pochta aloqasi obyektida qoladigan 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankining xabarnoma qismiga imzo qo‘yadi.

Joylanmalari ro‘yxat qilingan posilkalarni berishda, ular oluvchi ishtirokida ochiladi. Ochish shunday amalga oshiriladiki, bunda muhr shikastlanmasligi shart. Posilkalar adresatlarga joylanmalar 107-shakl ro‘yxatidagi yozuv bilan solishtirilgandan so‘ng beriladi.

Joylanmalar ro‘yxati bo‘lgan posilkalar, agar oluvchi 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankining xabarnoma qismiga «*Ochishdan bosh tortaman. Da ‘voyim yo ‘q*» deb yozib qo‘ygan va o‘z imzosi bilan tasdiqlagan bo‘lsa, ochilmasdan ham berilishi mumkin.

Jo‘natuvchi tomonidan muhrlangan, o‘rovi, muhrlari, plombalari, bog‘lamlari, tasmalari butun bo‘lganda, berilayotganda og‘irligi mos keladigan posilkalar ochilmaydi.

Avtomatlashtirilmagan aloqa bo‘limlari boshliqlari (o‘rinbosarlari) keluvchi 16-shakldagi yukxatlar bo‘yicha posilkalar yetkazib berilgan (topshirilgan) sanani har kuni belgilaydilar va ushbu ma‘lumotlarni ATga kiritish uchun pochta aloqasi obyektiga (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi)ga axborot beradilar.

Avtomatlashtirilgan aloqa bo‘limlari boshliqlari (o‘rinbosarlari) posilkalar yetkazib berilganligi (topshirilganligi) to‘g‘risidagi axborotni ATga har kuni belgilangan tartibda kiritadi.

4.4. «HUKUMATGA OID» belgili ichki pochta jo‘natmalari

4.4.1. «HUKUMATGA OID» belgili pochta jo‘natmalarini qabul qilish, ishlov berish va jo‘natish

«*HUKUMATGA OID*» belgili pochta jo‘natmalarini qabul qilish va ishlov berish pochta jo‘natmalarining tegishli turlari uchun amalga oshiriladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili quyidagi pochta jo‘natma turlari qabul qilinishi mumkin:

- xatlar (oddiy, buyurtma, qiymati e'lon qilingan);
- banderollar (oddiy, buyurtma, qiymati e'lon qilingan);
- posilkalar (odatdagi, qiymati e'lon qilingan).

«*HUKUMATGA OID*» belgili pochta jo'natmalari pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari) rahbarining buyrug'i bilan belgilanib, ajratilgan pochta aloqasi obyekti tomonidan qabul qilinadi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili pochta jo'natmalari faqat rahbarlar nomiga va rahbarlar nomidan Foydalanuvchilarning alohida toifalari ro'yxatiga kiritilgan foydalanuvchilar nomiga jo'natiladi.

Foydalanuvchilarning alohida toifalaridan qabul qilingan pochta jo'natmalari, jo'natuvchidan adresatgacha bo'lgan butun yo'nalishi davomida ishlov beriladi, «*HUKUMATGA OID*» belgi qo'yilishi bilan jo'natiladi va yetkazib beriladi (topshiriladi).

Bunday pochta jo'natmalarining o'lchami, og'irligi va o'roviga nisbatan jo'natmalarining tegishli turlari uchun Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarida belgilangan talablar qo'yiladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili pochta jo'natmalarini jo'natish uchun to'lov jo'natmalarni qabul qilish vaqtida amalda bo'lgan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili pochta jo'natmalarini qabul qilishda aloqa xodimi quyidagilarni tekshiradi:

a) jo'natuvchi va adresat Foydalanuvchilarning alohida toifalari ro'yxatiga kiritilganligi;

b) ularda «*HUKUMATGA OID*» yozuvi mavjudligi. Agar bunday yozuv mavjud bo'lmasa, aloqa xodimi jo'natuvchidan yozib qo'yishni taklif etishi kerak.

1, 3-shakllardagi daftarlarga ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalarini yozishda «Alohida belgilar» satrida «*HUKUMATGA OID*» deb yozib ko'rsatiladi.

162×229 mm va 229×324 mm formatli konvertlarda «*HUKUMATGA OID*» belgili oddiy yozma xat-xabarlar ichki kartonli tag qo'ymalar bilan qabul qilinishi kerak.

«*HUKUMATGA OID*» belgili pochta jo'natmalari jo'natuvchilardan 103-shakldagi ro'yxat bo'yicha jo'natuvchining muhri yoki plombasi ostida yopiq holda qabul qilinadi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili oddiy yozma xat-xabarlarni jo'natish uchun 103-shakldagi ro'yxat bir nusxada tuziladi.

«HUKUMATGA OID»				Ichki pochta jo'natmalarining R O' Y X A T I		103-sh.														
<i>Toshkent pochтамti</i>		dan jo'natilgan		<i>oddiy xatlar</i>																
(pochta aloqasi obyektini nomi)				(pochta jo'natmalari turi)																
Jo'natuvchi		<i>O'zR Bosh prokuraturasi, Akademik Y. G'ulomov ko'ch., 66, Toshkent 47</i>																		
		(yuridik shaxsning to'liq nomi va manzili)																		
Qayerga	Adresatning nomi (adresatning familiyasi, ismi-sharifi yoki yuridik shaxsning nomi)	Pochta jo'natmasining e'lon qilingan qiymati summasi, so'm	Ustama to'lov summasi, so'm	Og'irlik, kg	Jo'natish uchun to'lov, so'm	1, 3-shakldagi daftarlarda bo'yicha pochta jo'natmasining raqami yoki shtrixli pochta identifikatori bo'yicha pochta jo'natmasining raqami														
1	2	3	4	5	6	7														
<i>Navoiy</i>	<i>Viloyat hokimiga</i>	—	—			<i>264/55</i>														
<i>Xiva</i>	<i>Viloyat prokuroriga</i>	—	—			<i>264/56</i>														
<i>Termiz</i>	<i>Viloyat prokuroriga</i>	—	—			<i>264/57</i>														
<i>Qarshi</i>	<i>Viloyat hokimiga</i>	—	—			<i>264/58</i>														
<i>Buxoro</i>	<i>Viloyat hokimiga</i>	—	—			<i>264/59</i>														
<i>Jami beshta odiy xat</i>																				
<table border="0"> <tr> <td rowspan="3" style="border: 1px solid black; width: 100px; height: 100px;"></td> <td style="text-align: center;">Bosh prokuror o'rinbosari Zoirov</td> <td rowspan="3" style="text-align: center; vertical-align: middle;"> </td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">(pochta jo'natmalarini topshiruvchi yuridik shaxsning</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">Ekspeditor Komilov</td> </tr> <tr> <td></td> <td style="text-align: center;">rahbari va mas'ul xodimlarining imzolari)</td> <td></td> </tr> <tr> <td style="vertical-align: top;">(jo'natuvchiga biriktirilgan muhr izi)</td> <td style="vertical-align: top;">Qabul qildi</td> <td style="text-align: center; vertical-align: top;"> Opr G'ulomov (lavozi, imzo) </td> </tr> <tr> <td></td> <td></td> <td style="text-align: center; vertical-align: top;">(qabul qilish joyi taqvim shtempeli izi)</td> </tr> </table>								Bosh prokuror o'rinbosari Zoirov		(pochta jo'natmalarini topshiruvchi yuridik shaxsning	Ekspeditor Komilov		rahbari va mas'ul xodimlarining imzolari)		(jo'natuvchiga biriktirilgan muhr izi)	Qabul qildi	Opr G'ulomov (lavozi, imzo)			(qabul qilish joyi taqvim shtempeli izi)
	Bosh prokuror o'rinbosari Zoirov																			
	(pochta jo'natmalarini topshiruvchi yuridik shaxsning																			
	Ekspeditor Komilov																			
	rahbari va mas'ul xodimlarining imzolari)																			
(jo'natuvchiga biriktirilgan muhr izi)	Qabul qildi	Opr G'ulomov (lavozi, imzo)																		
		(qabul qilish joyi taqvim shtempeli izi)																		

46-rasm. «HUKUMATGA OID» belgili odiy jo'natmalarni qabul qilishda 103-shakldagi ro'yxatni to'ldirish va rasmiylashtirish namunasi.

Ro'yxatga konvertlarda ko'rsatilgan xatlarning jo'natilish raqamlari qo'yiladi (46-rasm).

«*HUKUMATGA OID*» belgili ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalarini jo'natish uchun 103-shakldagi ro'yxat ikki nusxada tuziladi.

Ro'yxatlarda pochta jo'natmalarining belgilangan joyi, adresat nomi, og'irligi, jo'natish uchun to'lov ko'rsatiladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili pochta jo'natmalari boshqa pochta jo'natmalaridan alohida, pochta aloqasining yirik obyektlarida esa — maxsus ish joylarida ishlov beriladi va belgilanishi bo'yicha eng tez usul bilan jo'natiladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili oddiy yozma xat-xabarlarni qabul qilishda kvitansiya berilmaydi, lekin aloqa xodimi 103-shakldagi ro'yxatga imzo qo'yadi, qabul qilingan pochta jo'natmalarining sonini ko'rsatadi va qabul qilish sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izini tushiradi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili oddiy xatlar va banderollar butun o'tish yo'li davomida o'rovlarda ko'rsatilgan raqamlar bo'yicha 11-shakldagi reyestrlarga buyurtmalilardan alohida qilib yozib qo'yiladi. Har bir turi bo'yicha pochta jo'natmalarining jami miqdori so'z bilan yoziladi. Reyestr uni tuzgan aloqa xodimi va nazorat qiluvchi shaxs tomonidan imzolanadi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili yozma xat-xabarlar shunday belgili bir dona pochta jo'natmasi bo'lsa ham boshqa xat-xabarlardan alohida yig'indilarga joylanadi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili yozma xat-xabarlari bo'lgan yig'indilar sonidan qat'i nazar o'tishning barcha bosqichlarida alohida sug'urta qoplarida jo'natiladi.

Sug'urta qoplarga qo'lda yoziladigan yoki «*HUKUMATGA OID*» belgili shtamp izi tushiriladigan 17-shakldagi manzil yorliqlari biriktiriladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili oddiy va buyurtma yozma xat-xabarlar joylangan qoplar sug'urta qoplar uchun belgilangan tartibda berkitiladi va ishlov beriladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgili qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar miqdoridan va e'lon qilingan qiymat summasidan qat'i nazar, belgilangan joydagi pochta aloqasi

obyektigacha alohida sugʻurta qoplarga berkitiladi. Qoplarga «*HUKUMATGA OID*» belgisi qoʻlda yoziladi yoki «*HUKUMATGA OID*» belgisi shtamp izi tushiriladigan 17-shakldagi manzil yorligʻi biriktiriladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgisi posilkalar alohida guruhlariga ajratiladi va belgilangan tartibda 16-shakldagi alohida yukxatga yozib qoʻyiladi. Mayda posilkalar «*HUKUMATGA OID*» belgisi qiymati eʼlon qilingan xatlar va qiymati eʼlon qilingan banderollar joylangan bitta sugʻurta qopiga joylanishi mumkin.

«*HUKUMATGA OID*» belgisi pochta joʻnatmalari yozib qoʻyiladigan barcha 11-shakldagi reyestrlar, 16-shakldagi yukxatlarning yuqori qismida va xuddi shunday yozma xat-xabarli yigʻindilarda «*HUKUMATGA OID*» belgisi qoʻlda yoziladi yoki «*HUKUMATGA OID*» belgisi shtamp izi tushiriladi.

4.4.2. «*HUKUMATGA OID*» belgisi pochta joʻnatmalarini topshirish

Pochta aloqasi obyektiga kelib tushgan «*HUKUMATGA OID*» belgisi pochta joʻnatmalari joylangan sugʻurta qoplari birinchi navbatda ochiladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgisi pochta joʻnatmalari adresatlarga imkoni boʻlgan barcha usul va vositalar yordamida eng qisqa vaqt ichida yetkazib beriladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgisi oddiy pochta joʻnatmalari belgilangan tartibda 8-shakldagi daftarda yoki 11-shakldagi reyestrda imzo qoʻydirilib topshiriladi, ularda qabul qilish joyi, pochta joʻnatmasining oʻroviga qoʻyilgan chiqish raqami (u boʻlmaganda «raqamsiz» deb koʻrsatiladi) va adresatning nomi koʻrsatiladi.

«*HUKUMATGA OID*» belgisi roʻyxatga olinadigan pochta joʻnatmalari joʻnatmalarning tegishli turlari uchun belgilangan tartibda topshiriladi.

Yirik pochta aloqasi obyektlarida «*HUKUMATGA OID*» belgisi pochta joʻnatmalari uchun hujjatlar «*HUKUMATGA OID*» belgisi qoʻlda yoziladigan yoki «*HUKUMATGA OID*» belgisi shtamp izi tushiriladigan alohida bogʻlamlarga tikiladi.

4.5. Olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomali ichki pochta jo‘natmalari

4.5.1. Olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomali pochta jo‘natmalarini qabul qilish

Jo‘natuvchi adresatga jo‘natgan pochta jo‘natmasi topshirilganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma olishni xohlaganda, jo‘natuvchi 119-shakldagi bildirishnoma blankini (47-rasm) to‘ldiradi. 119-shakldagi bildirishnoma blankining old tomonida jo‘natuvchi quyidagilarni ko‘rsatadi:

- bildirishnomaning toifasi (oddiy, buyurtma);
- olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma yuborilgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (yuridik shaxs uchun — to‘liq nomi);
- bildirishnoma yuborilishi kerak bo‘lgan manzil.

Bildirishnoma blankining orqa tomonida jo‘natuvchi quyidagilarni ko‘rsatadi:

Bu tomonga o‘z manzilingizni yozing	119-sh.
	Pochta jo‘natmasi, pul o‘tkazmasi olinganligi to‘g‘risidagi oddiy, <u>buyurtma</u> bildirishnoma (keraklisi chizilsin)
	Kimga <i>Izzatilla Mo‘minovich Abrorovga</i>
	Qayerga <i>Mustaqillik ko‘chasi, 3-uy, 26-xonadon</i> <i>Andijon, 170118</i>
	<div style="border: 1px solid black; width: 100px; height: 100px; margin: 0 auto;"></div> <p>(bildirishnoma kelib tushgan sanasi bo‘lgan taqvim shtempeli izi)</p>

47-rasm. Jo‘natuvchi tomonidan 119-shakldagi olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma blankining old tomonini to‘ldirish namunasi.

- yuborilayotgan pochta jo‘natmasining turi;
- jo‘natish sanasi;
- pochta jo‘natmasi yuborilayotgan manzil hamda oluvchining nomi.

Zarur bo‘lgan holatlarda e‘lon qilingan qiymat va ustama to‘lov summasi ko‘rsatiladi (48-rasm).

Olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomali pochta jo‘natmalarini qabul qilishda aloqa xodimi quyidagilarni bajarishi kerak:

a) pochta jo‘natmasining (116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida) manzil tomonida «*Bildirishnoma bilan*» — «C

(119-shaklning orqa tomoni)		
Andijon dan q.e.q.band. (jo‘natma turi)	_____ - son (pochta jo‘natmasi, pul o‘tkazmasi raqami)	
e‘lon qilingan qiymati 100000 so‘m , ustama to‘lovi __ so‘m __ tiyin, 2016-yil 6-may da (yil, sana, oy)		
Asqarov Alisher Po‘latovichga nomiga		
G‘afur G‘ulom ko‘chasi, 2-uy, 152-xonadon		
Toshkent sh., 100109 manzili bo‘yicha jo‘natilgan		
Topshirildi __ 20__ y. shaxsan _____ (kimga)		
<div style="border: 1px solid black; width: 100%; height: 100%;"></div>	ishonchnoma bo‘yicha Pochta aloqasi obyekti (sex, uchastka) rahbarining imzosi _____ (imzo)	<div style="border: 1px solid black; width: 100%; height: 100%;"></div>
(pochta jo‘natmasi, pul o‘tkazmasi kelib tushgan sanasi bo‘lgan taqvim shtempeli izi)	Qora yo‘g‘on chiziq bilan ajratilgan joyni jo‘natuvchi to‘ldiradi	(bildirishnoma jo‘natilgan sanasi bo‘lgan taqvim shtempeli izi)

48-rasm. Jo‘natuvchi tomonidan 119-shakldagi olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomaning orqa tomonini to‘ldirish namunasi.




уведомлением» yozuvining va aynan qaysi turining mavjudligini tekshirishi (49-rasm). Yozuv bo‘lmagan holatda tegishli shtamp izini tushirishi;

b) 119-shakldagi bildirishnoma blanklarining old va orqa tomonidagi yozuvlar jo‘natuvchi tomonidan to‘g‘ri yozilganligini tekshirishi;

d) mahalliy pochta jo‘natmasini qabul qilishda bildirishnomaning orqa tomoniga pochta jo‘natmasining raqamini 1, 3-shakldagi daftarlar bo‘yicha qo‘yishi, shahardan tashqariga yuboriladigan pochta jo‘natmalarini qabul qilishda — raqam shtrixkod bo‘yicha qo‘yishi;

e) to‘lovning to‘g‘riligini tekshirishi va 119-shakldagi bildirishnomadagi markalarni taqvim shtempeli izi bilan hisobdan chiqarishi;

f) 119-shakldagi bildirishnoma blanki pochta jo‘natmasi (116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanki)ning manzil yozilmaydigan tomoniga shunday biriktirilishi kerakki, pochta jo‘natmalariga ishlov

V	Toshkent 23 № 318	 *RB105823057UZ*
Buyurtmali Buyurtma bildirishnoma bilan		
Aloqa korxonasi indeksi	va jo‘natuvchi manzili	
Prokuratura		
Yakkasaroy tumani		
Usmon Nosir ko‘ch., 142a-uy		
Toshkent sh. 100100		
		Islomova Ra‘no G‘aniyevna
		Oybek ko‘ch., 33-uy, 16-xonadon
		Toshkent sh.
		100023

49-rasm. Olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma bo‘lgan mahalliy buyurtma xatni rasmiylashtirish namunasini.

berish bosqichlarida 119-shakldagi bildirishnoma blanki yo‘qolish ehtimoliga imkon bermasligi kerak. Agar olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomali banderol yoki sekogramma shaffof polietilen o‘rovda qabul qilinsa, 119-shakldagi bildirishnoma blanki o‘rovining ichiga joylanadi;

g) 119-shakldagi bildirishnomaning biriktirilgan blanki bilan pochta jo‘natmasi (xat, banderol, sekogramma, mayda paket)ni tarozida tortib ko‘rishi;

h) pochta jo‘natmasini jo‘natish uchun to‘lov summasini belgilashi;

i) 1, 3-shakllardagi daftarlardan kvitansiyanı yozishi yoki uni SHKda rasmiylashtirishi. «*Oddiy bildirishnoma bilan*» — «*С простым уведомлением*», «*Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*С заказным уведомлением*», «*O‘z qo‘liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*» belgili pochta jo‘natmalarini yoki «*Chaqiruv qog‘ozi. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Повестка. С заказным уведомлением*» belgili buyurtma xatlarni qabul qilishda 1, 3-shakldagi daftarlardan kvitansiyaning «Alohida belgisi» qatorida aloqa xodimi «*o/bild*», «*b/bild*», «*o‘z q/top.*» yoki «*Chaq/q*» yozuvlarni mos ravishda ko‘rsatishi kerak;

j) jo‘natuvchidan to‘lovni undirishi va unga 1, 3-shakldagi daftarlardan kvitansiyanı berishi.

Agar pochta jo‘natmalari 103-shakldagi ro‘yxat bo‘yicha qabul qilinsa, ro‘yxat sarlavhasiga «*Bildirishnoma bilan*» — «*С уведомлением*» so‘zlari va aynan qaysi biri bilan qo‘shib yoziladi. Olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma uchun to‘lovning umumiy summasi 103-shakldagi ro‘yxatda alohida qatorda aks ettiriladi.

Ish joylarida qabul qilingan olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomali pochta jo‘natmalari avtomatlashtirilmagan aloqa bo‘limlarida ikki nusxada tuziladigan 16-shakldagi yukxat, 11-shakldagi reyestrlarga nomma-nom yozib qo‘yiladi va keyingi ishlov berishga uzatiladi. Pochta jo‘natmalarini 16-shakldagi yukxatlar, 11-shakldagi reyestrlarga yozishda «*o/bild*», «*b/bild*», «*o‘z q/top.*» yoki «*Chaq/q*» tegishli yozuvlar yoziladi.

Avtomatlashtirilgan aloqa bo‘limlarida 16-shakldagi yukxatlar, 11-shakldagi reyestrlar pochta jo‘natmalariga yopishtirilgan shtrixkodlarni skanerlashda avtomatik ravishda tuziladi. Skaner

bo'Imaganda pochta jo'natmalarining shtrixkod bo'yicha raqamlari, shuningdek, barcha zaruriy ma'lumotlar va tegishli belgilar aloqa xodimi tomonidan SHKga 16-shakldagi yukxat, 11-shakldagi reyestrqa qo'lda kiritiladi.

4.5.2. Olinganligi to'g'risidagi bildirishnomali pochta jo'natmalarini topshirish. Pochta jo'natmalarini bergan pochta aloqasi obyektlarida 119-shakldagi bildirishnomalarni rasmiylashtirish

Belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlarida olinganligi to'g'risidagi bildirishnomali kelib tushgan buyurtma pochta jo'natmalarini 8-shakldagi daftarga yozishda «*o/bild*», «*b/bild*», «*o'z q/top*» yoki «*Chaq/q*» tegishli yozuvlar yoziladi. 119-shakldagi bildirishnoma blankining orqa tomonidagi pastki chap burchagida pochta jo'natmasi kelib tushgan sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi.

«*O'z qo'liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*» belgili har bir qiymati e'lon qilingan xatga 22-shakldagi xabarnoma yoziladi, uning old tomonidagi yuqori qismiga xuddi shunday yozuv yoziladi.

O'rovida (116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanki) «*Bildirishnoma bilan*» — «*С уведомлением*» belgisi bo'lgan va aynan qaysi biri bilan, lekin 119-shakldagi bildirishnoma blankisiz, shuningdek, yetishmayotgan ma'lumotlar bo'lgan pochta jo'natmalarini qabul qilish joyidagi pochta aloqasi obyekt tomonidan rasmiylashtirilgan 119-shakldagi bildirishnoma blanki bilan pochta jo'natmasi kelib tushganda keluvchi pochta jo'natmalariga ishlov beruvchi aloqa xodimi pochta jo'natmasida mavjud bo'lgan ma'lumotlar bo'yicha «*Xizmatga oid*» — «*Служебное*» belgili 119-shakldagi bildirishnomaga dublikat (asli bilan teng huquqli nusxa) tuziladi yoki pochta jo'natmalarida ko'rsatilgan ma'lumotlarga asosan 119-shakldagi bildirishnoma blankiga yetishmayotgan ma'lumotlar kiritiladi. Bunda yo'l qo'yilgan buzilishlar ko'rsatiladigan 30-shakldagi xabarnoma (2 nusxada) yoziladi. 30-shakldagi xabarnomaning birinchi nusxasi buzilishlar yo'l qo'yilgan pochta aloqasi obyektining manziliga yuboriladi, ikkinchi nusxasi kelib tushgan pochta

jo'natmalarining 11-shakldagi reyestriga yoki 16-shakldagi yukxatiga tikib qo'yiladi.

119-shakldagi bildirishnomaning blanklari yetkazib berish uchun topshirilmaydi. Shaffof polietilen o'rovlaridagi banderollar va sekogrammalarga joylangan 119-shakldagi bildirishnomalar hamda buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar va «*O'z qo'liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*» belgili qiymati e'lon qilingan xatlar, «*Chaqiruv qog'ozini. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Повестка. С заказным уведомлением*» belgili buyurtma xatlar olinganligi to'g'risidagi bildirishnomalar bundan mustasno.

«*O'z qo'liga topshirilsin. Buyurtmali bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*» belgili pochta jo'natmalari «*Chaqiruv qog'ozini. Buyurtmali bildirishnoma bilan*» — «*Повестка. С заказным уведомлением*» belgili buyurtma xatlar olinganligi to'g'risidagi buyurtma bildirishnomaga adresatga shaxsan imzo qo'ydirilib beriladi. Agar adresat uyda bo'lmagan holatda, abonent pochta javonining qutichasi, abonent pochta qutisida pochta aloqasining yetkazib berish obyektida pochta jo'natmasini olish uchun adresat taklif etilganligi to'g'risidagi bildirishnoma qoldiriladi.

Adresat bo'lmaganda «*Chaqiruv qog'ozini. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Повестка. С заказным уведомлением*» belgili buyurtma xatlar oilaning voyaga yetgan birga istiqomat qiluvchi a'zosidan biriga, ular bo'lmaganda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organiga yoki ish beruvchiga (o'quv muassasa ma'muriyatiga) topshiriladi. Bunda bildirishnomada tegishli yozuvlar bilan buyurtma xat topshirilgan shaxs ko'rsatiladi.

«*O'z qo'liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Вручить лично. С заказным уведомлением*» belgili pochta jo'natmalari va «*Chaqiruv qog'ozini. Buyurtma bildirishnoma bilan*» — «*Повестка. С заказным уведомлением*» belgili buyurtma xatlarni olishda adresat 8-shakldagi daftarga va aloqa xodimi pochta aloqasining yetkazib berish obyektiga qaytarib beradigan 119-shakldagi bildirishnoma blankiga imzo qo'yadi. 119-shakldagi bildirishnoma blankida imzoga qo'shimcha tarzda adresat familiyasini ko'rsatishi yoki imzo qo'ygan shaxsni xatosiz aniqlash imkonini beradigan aniq yoki tushunarli yozuvni yozishi kerak.

Shaffof polietilen o‘rovda kelib tushgan banderollar yoki sekogrammalarni topshirishda 119-shakldagi bildirishnoma blanki adresat ishtirokida ular ochilgandan keyin olib qo‘yiladi. Bunda 119-shakldagi bildirishnoma blanki aloqa xodimi tomonidan rasmiylashtiriladi, u blankning orqa tomonida banderollar yoki sekogrammalar berilgan sanani va kimga berilganligini ko‘rsatadi.

Aloqa xodimi yetkazib berishdan qaytgandan keyin 119-shakldagi bildirishnoma blanklarini tekshirish va imzolash uchun aloqa bo‘limining boshlig‘i (o‘rinbosari) yoki pochta aloqasi obykti (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi)ning nazorat qiluvchi shaxsiga topshiradi.

Belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlarida pochta jo‘natmasi topshirilgandan keyin aloqa bo‘limi boshlig‘i (o‘rinbosari) yoki pochta aloqasi obykti (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi)ning nazorat qiluvchi shaxsi quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

— 119-shakldagi bildirishnoma blanklarida adresatlar tilxatlarining mavjudligi va to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirishi;

— 119-shakldagi bildirishnoma blankining orqa tomonidagi maxsus ajratilgan joylarda pochta jo‘natmasi kimga va qachon berilganini belgilashi kerak. Agar pochta jo‘natmasi ishonchnoma bo‘yicha berilgan bo‘lsa, 119-shakldagi bildirishnomada ishonch bildirilgan shaxsning familiyasi, zarur hollarda esa, uning lavozimi ko‘rsatiladi;

— 119-shakldagi bildirishnoma blankining orqa tomonidagi o‘ng pastki burchagida ushbu bildirishnomani (50-rasm) jo‘natish sanasi bo‘lgan taqvim shtempeli izini tushirishi;

— olinganligi to‘g‘risida mahalliy buyurtma bildirishnoma yuborilgan holda, 119-shakldagi bildirishnoma blanki chap old tomonining yuqori qismidagi bo‘sh joyga pochta jo‘natmasini topshirgan pochta aloqasi obyektining nomi yozilgan 3-shakldagi yorliq yopishtirishi yoki uning o‘rnini bosuvchi shtamp izi qo‘yishi, 30-shakldagi daftar bo‘yicha raqamini ko‘rsatishi. Shahardan tashqariga yuboriladigan olinganligi to‘g‘risidagi buyurtma xabarnomani rasmiylashtirishda — shtrixkod yopishtirishi;

— 8-shakldagi daftarning oxirgi ustunida, buyurtma pochta jo‘natmasi yoziladigan tegishli qatorning to‘g‘risiga pochta jo‘natmasini berish uchun 22-shakldagi xabarnomaning orqa tomonidagi bo‘sh joyga 3-shakldagi daftar bo‘yicha bildirish-

(119-shaklning orqa tomoni)

Andijon dan **q.e.q.band.**

(jo'natma turi)

VA174567125UZ

- son

(pochta jo'natmasi, pul
o'tkazmasi raqami)

e'lon qilingan qiymati **100000 so'm**, ustama to'lovi **— so'm —** tiyin,

2016-yil 6-may da

(yil, sana, oy)

Asqarov Alisher Po'latovichga nomiga

G'afur G'ulom ko'chasi, 2-uy, 152-xonadon

Toshkent sh., 100109 manzili bo'yicha jo'natilgan

Topshirildi **14-may** 20 **16-y.** **shaxsan** **Asqarovga**

ishonchnoma bo'yicha



(kimga)

Pochta aloqasi obyeksi (sex,
uchastka) rahbarining imzosi

G'oiyova

(imzo)



(pochta jo'natmasi,
pul o'tkazmasi kelib
tushgan sanasi
bo'lgan taqvim
shtempeli izi)

Qora yo'g'on chiziq bilan ajratilgan
joyni jo'natuvchi to'ldiradi

(bildirishnoma
jo'natilgan
sanasi bo'lgan
taqvim
shtempeli izi)

50-rasm. Pochta jo'natmasi berilgandan keyin 119-shakldagi bildirishnomaning orqa tomonini rasmiylashtirish namunasi.

nomaning raqamini ko'rsatishi yoki shtrixkodning ikkinchi nusxasini yopishtirishi, shuningdek, bildirishnoma jo'natilganligi to'g'risida — «Bild. « » y. da jo'n.» yozuvini yozishi va imzolashi.

Rasmiylashtirilgan 119-shakldagi bildirishnoma, unda ko'rsatilgan manzil bo'yicha yuboriladi.

Olinganligi to'g'risidagi buyurtma bildirishnomalar 11-shakldagi reyestrda buyurtma pochta jo'natmalari uchun belgilangan tartibda nomma-nom yozilib jo'natish uchun beriladi.

4.5.3. Olinganligi to'g'risidagi bildirishnomalarga ishlov berish va topshirish

119-shakldagi bildirishnomalar (oddiy, buyurtma) pochta aloqasi obyektiga kelib tushganda 119-shakldagi bildirishnoma blanki old tomonining o'ng pastki burchagida ularning kelgan sanasi bo'lgan taqvim shtempeli izi tushiriladi. Olinganligi to'g'risidagi buyurtma bildirishnomalar 11-shakldagi reyestrlar bo'yicha nomma-nom tekshiriladi.

Yetkazib berish uchun berishdan avval aloqa bo'limi boshlig'i (o'rinbosari) yoki pochta aloqasi obyekti (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ning nazorat qiluvchi shaxsi yoki aloqa bo'limining boshlig'i (o'rinbosari) 119-shakldagi bildirishnoma blanki to'g'ri rasmiylashtirilganligini sinchiklab tekshirishi kerak. Rasmiylashtirilmagan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan 119-shakldagi bildirishnoma blanklari bo'yicha bildirishnoma blankiga kiritiladigan zarur ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun so'rov eng tezkor usulda zudlik bilan yuboriladi.

Rasmiylashtirilmagan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan 119-shakldagi bildirishnoma blanklarini jo'natuvchilarga topshirish man etiladi.

Olinganligi to'g'risidagi oddiy bildirishnomalar, ularda ko'rsatilgan manzillarga muvofiq abonent pochta javonlarining qutichalari, abonent pochta qutichalari, abonement javon qutichalari, tayanch punktlar javonlariga tushiriladi.

Olinganligi to'g'risidagi buyurtma bildirishnomalar adresatlarga buyurtma pochta jo'natmalari uchun belgilangan tartibda topshiriladi.

Jo'natuvchi pochta jo'natmasini qabul qilgan pochta aloqasi obyektiga bildirishnomani olmaganligi to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda, pochta aloqasi obyekti pochta jo'natmasi va 119-shakldagi bildirishnoma o'tishining nazorat muddatlari tugagandan so'ng, pochta jo'natmasi topshirilgan sanani zudlik bilan aniqlashi va natijasini ariza beruvchiga ma'lum qilish choralari ko'rishi kerak.

4.6. Ichki ustama to'lovli ichki pochta jo'natmalari

Ustama to'lov summasi jo'natuvchining xohishiga ko'ra belgilanadi, biroq u qiymati e'lon qilingan pochta jo'natmasining haqiqiy summasidan oshmasligi kerak.

Ustama to'lov summasini jo'natish pul mablag'larining pochta o'tkazmasi (bundan keyin matn bo'yicha — pul o'tkazmalari) orqali amalga oshiriladi.

Ustama to'lovli qiymati e'lon qilingan xat yoki qiymati e'lon qilingan banderolga jo'natuvchi 114-shakldagi pul o'tkazmasining blankini to'ldiradi. Ustama to'lovli qiymati e'lon qilingan posilkaga 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanki va 114-shakldagi pul o'tkazmasining blanki to'ldiriladi.

114-shakldagi pul o'tkazmasi blankining «Yozma xabar» ustunida jo'natuvchi pochta jo'natmasining qanday turi uchun ustama to'lov yuborilishi kerakligini, pochta jo'natmasi qayerda topshirilgani (pochta aloqasi obyektining nomi), jo'natish sanasi, pochta jo'natmasi qayerga va kimning nomiga yuborilayotganini ko'rsatadi.

Pochta jo'natmalari bir jo'natuvchi tomonidan jo'natilgani va bitta oluvchiga manzillanganidan qat'i nazar, har bir ustama to'lovli pochta jo'natmasi uchun 114-shakldagi pul o'tkazmasi blanki tuzilishi kerak.

114-shakldagi pul o'tkazmasi blankida ko'rsatilgan ustama to'lov summasi oluvchisining manzili va nomi pochta jo'natmasini jo'natuvchining manzili va nomiga muvofiq kelishi kerak.

Ustama to'lovli pochta jo'natmasini qabul qilishda aloqa xodimi quyidagilarni qo'shimcha ravishda tekshiradi:

a) pochta jo'natmasida ustama to'lov summasi ko'rsatilgani va uni jo'natish usuli;

b) ustama to'lov summasi pochta jo'natmasining e'lon qilingan qiymati summasidan oshmaganligi;

d) 114-shakldagi pul o'tkazmasi blankining to'g'ri to'ldirilganligi va pochta jo'natmasida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiq kelishi.

Pochta jo'natmasi rasmiylashtirilgandan va 1-shakldagi daftarga yozib qo'yilganidan so'ng, 114-shakldagi pul o'tkazmasi blankidagi «Yozma xabar» qatorida aloqa xodimi quyidagilarni ko'rsatadi: qaysi pochta jo'natmasi uchun ustama to'lov o'tkazilgan bo'lishi kerak, uning raqami, jo'natish sanasi va joyi, qayerga va kimga pochta jo'natmasi manzillangan. Masalan, «*Toshkent 11 dan Buxoro 2 ga S.R. Azimov nomiga 2016-yil 12-noyabrda VA100201209UZ qiymati e'lon qilingan banderol uchun ustama to'lov*».

Pochta jo'natmasini qabul qilishda 114-shakldagi pul o'tkazmasi blankiga shtempel izi tushirilmaydi. 114-shakldagi pul o'tkazma-

sining blanki qiymati e'lon qilingan xatga yoki qiymati e'lon qilingan banderolga, posilkaga 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankiga shunday mahkamlanadiki, butun yo'nalish davomida yo'qolish ehtimoliga imkon bermasligi kerak.

Ustama to'lovli pochta jo'natmasi 114-shakldagi pul o'tkazmasi blankisiz olinganda pochta aloqasi obyektini pochta jo'natmasida ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida barcha zarur axborotlarni to'ldirib, yangi pul o'tkazmasini tuzishi kerak.

Ustama to'lovli pochta jo'natmalarini adresatga berishdan oldin quyidagilarni bajarishi zarur:

— pochta jo'natmasi o'rovida va 114-shakldagi pul o'tkazmasi blankida ko'rsatilgan ma'lumotlarni solishtirishi;

— 114-shakldagi pul o'tkazmasi blankining «Yozma xabar» qatorida barcha zarur ma'lumotlar ko'rsatilganligini tekshirishi, har qanday ma'lumotlar mavjud bo'lmasa — ularni kiritishi;

— 114-shakldagi pul o'tkazmasi blankining «Yozma xabar» ustunida pochta jo'natmasi topshirilgan sanani ko'rsatishi va imzo qo'yishi.

Ustama to'lovli pochta jo'natmalari ustama to'lovning to'liq summasi va ularni jo'natish uchun to'lov olinganidan so'ng adresatlarga beriladi.

Ustama to'lovli pul o'tkazmalari oddiy pul o'tkazmalari uchun belgilangan tartibda qabul qilinadi va rasmiylashtiriladi. Pul o'tkazmasini jo'natish uchun to'lov summasi va pul qabul qilinganligi to'g'risida oluvchiga kvitansiya beriladi. 22-shakldagi bildirishnomada pochta jo'natmasini bergan aloqa xodimining imzosi bilan ustama to'lovli pul o'tkazmasining raqami va uning jo'natilgan sanasi haqida yozib qo'yiladi.

Ustama to'lovli pul o'tkazmasi, ustama to'lovli pochta jo'natmasi berilgan kun yoki kelgusi kundan kechikmasdan jo'natiladi.

Bitta adresatga bir vaqtning o'zida besh va undan ortiq pochta jo'natmalarini, ustama to'lovli pul o'tkazmalarini jo'natishda qabul qilish kassasiga pul o'tkazmalarini oluvchi tomonidan ikki nusxada tuziladigan 103-shakldagi ro'yxat bo'yicha topshirilishiga ruxsat etiladi.

103-shakldagi ro'yxatning bir nusxasi pochta jo'natmasi berilgan 22-shakldagi xabarnomaning biriga biriktiriladi. Qolgan 22-shakldagi xabarnomalarga, 103-shakldagi ro'yxatda havola qilingan 22-shakldagi xabarnomaning raqami yozib qo'yiladi.

Aloqa bo'limi boshlig'i (o'rinbosari) yoki pochta aloqasi obyektini (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ning nazorat qiluvchi

shaxslari har kuni ustama to'lov summasining o'z vaqtida va to'liq jo'natilishini tekshiradi.

Ustama to'lovli pochta jo'natmalari topshiriladigan kunda yoki keyingi kunda pul o'tkazmalari jo'natilmay qolganligi aniqlanganda, kechikish sabablarini aniqlash va bunday kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'riladi. Suiiste'mol qilish holatlari aniqlanganda aybdorlar javobgarlikka tortiladi.

4.7. Ichki harbiy pochta jo'natmalari

4.7.1. Chiquvchi ichki harbiy pochta jo'natmalarini qabul qilish va ishlov berish

Harbiy pochta jo'natmalari ichki pochta jo'natmalarining tegishli turlari uchun belgilangan tartibda qabul qilinadi, ishlov beriladi va jo'natiladi.

Qabul qilish va topshirish joylaridagi pochta aloqasining hududiy tashkilotlari yoki pochta aloqasi obyektlarida harbiy pochta jo'natmalari belgilangan manzilga jo'natilguncha hamda topshirilguncha ishlov beriladi va ta'minlangan tartibda saqlanadi. Harbiy xat-xabarlar va ishlab chiqarish hujjatlaridan foydalana olish uchun faqat ularga ishlov beruvchi aloqa xodimlari jalb etilishi mumkin.

Harbiy pochta jo'natmalarini qabul qilishda quyidagilarga amal qilish zarur:

a) harbiy qismlar (muassasalar)ga belgilangan joy manzilini ko'rsatgan holda (*masalan: 140155, Juma shahri, Pastdarg'om tumani, Samarqand viloyati, harbiy qism 77777 (yoki Pastdarg'om tumani Mudofaa ishlari bo'yicha bo'limi), Abror Yo'ldoshevich Nasimovga*) barcha turdagi pochta jo'natmalari qabul qilinadi;

b) ro'yxatga olinadigan harbiy pochta jo'natmalari olinganligi to'g'risidagi oddiy yoki buyurtma bildirishnomalari bilan qabul qilinishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarning oddiy xatlari va pochta varaqchalari (pulli va bepul) harbiy pochta tomonidan pochta qutilariga solinmaydi, balki ular tomonidan pochta aloqasi obyektlariga topshiriladi.

Manzili ko'rsatilmagan harbiy qismlar (muassasalar) manziliga yuborilgan pochta jo'natmalari jo'natuvchilarga «*Manzili noto'g'ri ko'rsatilgan*» — «*Адрес указан неправильно*» yozuvi yozilib qayta-

rilishi, jo'natuvchining manzili ko'rsatilmaganda esa, tarqatilmaganlar qatoriga topshirilishi lozim.

Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy qismlarning shaxsiy tarkibi manziliga jo'natiladigan og'irligi 20 g gacha bo'lgan oddiy xatlar va pochta varaqchalari bepul jo'natiladi. Ushbu harbiy xizmatchilar tomonidan jo'natiladigan og'irligi 20 g gacha bo'lgan oddiy xatlar va pochta varaqchalari konvertda yoki pochta varaqchasida «*Muddatli harbiy xizmatchining xati. Bepul*» yozuvli maxsus uchburchakli shtamp izi mavjud bo'lgan hollarda, jo'natma bepul yuboriladi.

Bunday shtamp izi tushirilmagan xat va pochta varaqchalari jo'natilgan manzilga qaytariladi, manzil ko'rsatilmaganda esa, tarqatilmaganlar qatoriga topshiriladi. Og'irligi 20 g dan ortiq bo'lgan oddiy xatlar, shuningdek, harbiy xizmatchilar nomiga va ular tomonidan jo'natiladigan oddiy banderollar va ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalari belgilangan tarif bo'yicha haq to'lash bilan umumiy asoslarda qabul qilinadi.

Harbiy qismlarning shaxsiy tarkibi tomonidan, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan shaxsiy tarkibidan tashqari, harbiy qism shtablari (harbiy muassasalar va bilim yurtlari) tomonidan jo'natiladigan, shuningdek, ularga manzillangan oddiy xatlar va pochta varaqchalari umumiy asoslarda amaldagi tariflar bo'yicha to'lanadi.

4.7.2. Harbiy qismlarga va ularning shaxsiy tarkibiga pochta jo'natmalarini topshirish

Harbiy qismlar (muassasalar)ga hamda ularning shaxsiy tarkibiga manzillangan oddiy va buyurtma jo'natmalar (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar), shuningdek, qiymati e'lon qilingan xatlar, qiymati e'lon qilingan banderollar va posilkalar pochta aloqasining hududiy tashkilotlari yoki pochta aloqasi obyektlaridan adresatlar, harbiy pochtonlarga yoki qism, muassasalarning vakillariga beriladi.

Pochta aloqasining hududiy tashkiloti yoki pochta aloqasi obyektining rahbari harbiy qismlar (muassasalar) qo'mondonligi bilan birgalikda harbiy pochtonlarning (vakolatga ega shaxslar) pochta jo'natmalarini olishi va topshirishi uchun kelish muddatlarini belgilaydi. Belgilangan muddatlarning buzilish holatlari to'g'risida qism qo'mondonligi xabardor qilinadi.

Harbiy pochталон (vakolatga ega shaxs) harbiy qism (muassasa)ning pochтani olish huquqini beradigan, qism qo‘mondoni tomonidan imzolangan va harbiy qism (muassasa)ning gerbli muhr izi bilan tasdiqlangan ishonchnomaga ega bo‘lishi kerak.

Ishonchnoma bir taqvim yilidan ortiq bo‘lmagan muddatga beriladi va u pochтani birinchi marta olishda harbiy pochталон (vakolatlangan shaxs) tomonidan taqdim etiladi. Ishonchnoma pochта aloqasi obyektida qoladi. Ushbu ishonchnoma uchun to‘lov haqi olinmaydi.

Bitta harbiy pochталон (vakolatlangan shaxs) bir nechta harbiy qismlar (muassasalar) uchun xat-xabarlarni olishda, unga ushbu qismlar (muassasalar)ga tegishli bo‘lgan gerbli muhrilar bilan tasdiqlangan har bir harbiy qism (muassasa)dan pochта jo‘natmalarini olish huquqini beruvchi ishonchnomalar bir vaqtda rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak.

Harbiy qismlar (muassasalar) va ularning shaxsiy tarkibi nomiga manzillangan buyurtma yozma xat-xabarlar (xatlar, pochта varaqchalari, banderollar), qiymati e‘lon qilingan xatlarga, qiymati e‘lon qilingan banderollar, buyurtma mayda paketlar, posilkalar va pul o‘tkazmalariga birlamchi va ikkilamchi xabarnomalar ikki nusxada tuziladigan 11-shakldagi reyestrda nomma-nom yoziladi.

Harbiy qismlarning raqamlari 11-shakldagi reyestrda ko‘rsatilmaydi.

Pochта jo‘natmalari harbiy pochталонlarga quyidagi tartibda beriladi:

a) harbiy qismlar (muassasalar) va ularning shaxsiy tarkibi nomiga manzillangan oddiy xat-xabarlar — imzo qo‘ymasdan. Zarur bo‘lgan holatlarda, pochта aloqasining hududiy tashkiloti yoki pochта aloqasi obyektini (pochтамt, pochта aloqa bog‘lamasi)ning rahbari harbiy qismlarga manzillangan oddiy yozma xat-xabarlarni 11-shakldagi reyestrda imzo qo‘yib berish tartibini kiritishi mumkin;

b) harbiy qismlar (muassasalar) va ularning shaxsiy tarkibi nomiga manzillangan buyurtma yozma xat-xabarlar (xatlar, pochта varaqchalari, banderollar), qiymati e‘lon qilingan xatlar, qiymati e‘lon qilingan banderollar, buyurtma mayda paketlar, posilkalar va pul o‘tkazmalariga birlamchi va ikkilamchi xabarnomalar — 11-shakldagi reyestrda, ularning sonini so‘z bilan, olingan sanasi va buyurtma yozma xat-xabarlarning holatini ko‘rsatgan holda imzo qo‘yilib.

Misol — «Sakson beshта buyurtma pochта jo‘natmalari soz holatda, yigirma beshта xabarnomani 2016-yil 12-noyabrda harbiy pochталон Begmetov oldi»

Harbiy qismlar (muassasalar)ning shaxsiy tarkibi nomiga manzillangan qiymati e'lon qilingan xatlarga, qiymati e'lon qilingan banderollar, buyurtma mayda paketlar, posilkalar va pul o'tkazmalari pochta aloqasi obyektlarida shaxsan adresatga yoki ularning bir martalik ishonchnomalari, shuningdek, vakolatlangan harbiy qismlar (muassasalar) orqali tashkil etilgan 2-shakldagi reyestr-ishonchnomalar bo'yicha beriladi.

Harbiy qismlar (muassasalar)ga manzillangan qiymati e'lon qilingan xatlar, qiymati e'lon qilingan banderollar, buyurtma mayda paketlar va posilkalar qism (muassasa) komandiri va moliya idorasining boshlig'i tomonidan imzolangan bir martalik ishonchnomalar bo'yicha beriladi. Ishonchnomalar harbiy qism (muassasa)ning muhr izi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Pul o'tkazmalarini olish uchun bir martalik ishonchnomalar bir yoki bir nechta adresatlardan, faqat bitta shaxs nomiga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Bankda o'z hisob raqamiga ega bo'lmagan harbiy qismlar (muassasalar)ga pul o'tkazmalari adresatlarning yozma arizalari bo'yicha ularni ta'minlovchi qismlar (muassasalar)ning hisob raqamlariga o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

2-shakldagi reyestr-ishonchnoma harbiy qism (muassasa) tomonidan ikki nusxada tuziladi, qism qo'mondoni va moliya idorasining boshlig'i tomonidan imzolanadi, harbiy qism (muassasa)ning gerbli muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda pochta aloqasining hududiy tashkiloti yoki pochta aloqasi obyektiga pochta jo'natmalari uchun xabarnomalar bilan birga taqdim etiladi.

Harbiy qism (muassasa)ning vakolatlangan vakilidan 2-shakldagi reyestr-ishonchnomani qabul qilishda aloqa xodimi reyestr-ishonchnomaning to'g'ri tuzilganligi va rasmiylashtirilganligini hamda reyestrda yozilgan pochta jo'natmalari uchun xabarnomalarining mavjudligini tekshiradi.

Keyin vakolatlangan vakilning shaxsiy guvohnomasidagi yoki harbiy daftarchasidagi imzosi reyestr-ishonchnomadagi imzo bilan, shuningdek, taqdim etilgan hujjat to'g'risidagi ma'lumotlar solishtiriladi.

Harbiy qism (muassasa)ning vakolatlangan vakili pochta jo'natmalarini olganligi to'g'risida 2-shakldagi reyestr-ishonchnomaning birinchi nusxasiga olingan pochta jo'natmalarining sonini so'zlar bilan, olingan sanani ko'rsatgan holda, imzo qo'yadi.

2-shakldagi reyestr-ishonchnomalarining birinchi nusxalari xabarnomalar bilan birga pochta aloqasi obyektida qoladi, pochta

jo‘natmasini bergan aloqa xodimining imzosi bilan tasdiqlangan ikkinchi nusxalari esa, harbiy qism (muassasa)ning vakolatlangan vakiliga qaytarib beriladi.

2-shakldagi reyestr-ishonchnoma berilgan pochta jo‘natmalari uchun xabarnomalarning biriga qo‘shib qo‘yiladi, qolgan xabarnomalarda reyestr-ishonchnoma qo‘shib qo‘yilgan xabarnomaning raqamiga havola qilingan yozuv yozib qo‘yiladi.

Harbiy qismlar (muassasalar) pochta aloqasining hududiy tashkilotlari yoki pochta aloqasi obyektlaridan qabul qilingan ro‘yxatga olinadigan pochta jo‘natmalari uchun to‘liq moddiy javobgardir.

Harbiy xizmatchi vaqtincha bo‘lmagan holatlarda, harbiy qism (muassasa) qo‘mondoni bu haqda pochta aloqasining hududiy tashkilotiga yoki pochta aloqasi obyektiga xabar beradi va pochta jo‘natmasi, pul o‘tkazmasini ma‘lum muddatga, lekin kelib tushgan vaqtdan boshlab, ikki oydan ortiq bo‘lmagan muddatga saqlab turishini so‘raydi.

4.8. Ichki ustuvor va aviajo‘natmalar

Ustuvor pochta jo‘natmalari ajratilgan pochta aloqasi obyektlarida qabul qilinadi.

Aviajo‘natmalar barcha pochta aloqasi obyektlarida qabul qilinadi.

Ro‘yxatga olinadigan ustuvor va aviajo‘natmalarni qabul qilish to‘g‘risidagi 1, 3-shakldagi daftarlarning (SHK) kvitansiyalarida odatdagi ma‘lumotlardan tashqari, «Ustuvor» — «*Приор.*», «Avia» — «*Авиа*» deb yoziladi. Ustuvor kabi yoki aviatarif bo‘yicha haq to‘langan barcha pochta jo‘natmalariga, shuningdek, posilkalarga 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blanklariga «Ustuvor» — «*Приор.*» yozuvli 7-shakldagi yorliq, 6-shakldagi «Avia» — «*Авиа*» yozuvli yorliqlar yopishtiriladi yoki shunday yorliq shakliga ega bo‘lgan shtamp izi tushiriladi (51-rasm).

Kombinatsiyalangan usul bilan jo‘natilishi kerak bo‘lgan posilkalarni qabul qilishda, posilkaning manzil yoziladigan yuqori qismida va 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida posilka qaysi punktlar oralig‘ida havo transporti orqali jo‘natilishi kerakligi ko‘rsatiladi, masalan: «*Avia Toshkentdan Nukusgacha*» — «*Авиа от Ташкента до Нукуса*». Xuddi shunday yozuv 1-shakldagi daftar kvitansiyasiga ham yozib qo‘yiladi.

6-sh.

7-sh.

А В И А
А V I А

a

ПРИОРИТЕТНОЕ
USTUVOR

b

51-rasm. Yorliqlar namunasi:

a—aviajo‘natmalarga yopishtiriladigan 6-shakl;

b—ustuvor pochta jo‘natmalariga yopishtiriladigan 7-shakl.

Havo transporti orqali jo‘natish uchun qabul qilingan posilkalar va qiymati e‘lon qilingan banderollar boshqa pochta bilan birga 16-shakldagi yukxatga qo‘shimcha qilib yozib yuboriladi. 10, 17-shakllardagi manzil yorliqlari va 16-shakldagi yukxatlarga shtamp izi tushiriladi yoki qo‘lda «*Avia*» — «*Авиа*» yozuvi yozib qo‘yiladi.

«*Ustuvor*» — «*Приоритетное*» belgili pochta jo‘natmalari qabul qilish joyidagi pochta aloqasi obyektlaridan eng tezkor yo‘l bilan pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog‘lamalari)ga yuboriladi. 10, 17-shakllardagi manzil yorliqlari va 16-shakldagi yukxatlarga «*Ustuvor*» — «*Приоритетное*» shtamp izi tushiriladi yoki qo‘lda yozib qo‘yiladi.

Pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog‘lamalari)da ustuvor yozma xat-xabarlar bo‘lgan yig‘indilar, miqdoridan qat‘i nazar, belgilangan joydagi pochta aloqasi obyekti (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi)gacha to‘g‘ridan to‘g‘ri qoplarga berkitiladi. Ustuvor pochta jo‘natmalari bo‘lgan qoplar birinchi ketadigan pochta bilan eng yaqin bo‘lgan almashinuv punktigacha yuboriladi. 10, 17-shakllardagi manzil yorliqlariga «*Ustuvor*» — «*Приоритетное*» belgi qo‘yiladi. Xuddi shunday belgi 11-shakldagi reyestrlar va 16-shakldagi ichki yukxatlarga qo‘yiladi.

Havo transporti orqali jo‘natish uchun qabul qilingan jo‘natiluvchi yozma xat-xabarlar bo‘lgan yig‘indilar bitta qopga, qiymati e‘lon qilingan aviajo‘natmalar va mayda posilkalar, qiymati eng kam ish haqining bir barobaridan ortiq bo‘lgan «*Ehtiyot qiling*» — «*Осторожно*» belgili posilkalardan tashqari, sug‘urta qoplarga berkitiladi.

Aviajo‘natmali qoplar havo kemasi bilan pochmani jo‘natishni amalga oshiradigan eng yaqin bo‘lgan almashinuv punktigacha

yuboriladi. 10, 17-shakllardagi manzil yorliqlariga «*Avia*» — «*Авиа*» belgisi qo'yiladi. Xuddi shunday belgi 11-shakldagi reyestrlar va 16-shakldagi ichki yukxatlarga qo'yiladi.

4.9. To'plamli ichki pochta jo'natmalari

To'plamli pochta jo'natmalari pochta aloqasi obyektlariga 103-shakldagi ro'yxatlar (52-rasm) bilan topshiriladi.

Jo'natuvchi tomonidan bitta ro'yxatga 40 tadan ortiq bo'lmagan bir xil turdagi pochta jo'natmalari nomma-nom yoziladi. Bir manzilga 10 ta va undan ortiq posilka mavjud bo'lganda (katta o'lchamli va og'ir vaznli — 10 tagacha) jo'natuvchi ularni belgilangan joygacha to'g'ridan to'g'ri guruhlariga ajratadi va har bir guruhga alohida 103-shakldagi ro'yxatni tuzadi.

Bir vaqtda, bir necha ro'yxat bo'yicha topshiriladigan pochta jo'natmalarining soni, posilkalardan tashqari, cheklanmaydi.

To'plamli posilkalarni qabul qilish pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari) va yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalar bilan tartibga solinadi.

To'plamli posilkalar pochta aloqasi obyektining ishlash tartibini hisobga olgan holda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan jadvalda belgilangan muddatda va hajmda qabul qilinadi. Posilkalarni topshirish jadvali pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari) bilan yiliga ikki marta, pochta tashishning yangi jadvallari amalga kiritilishidan kamida 10 kun oldin kelishib olinadi.

To'plamli aviaposilkalarni qabul qilish aviakorxonalar bilan, odatda, samolyotlarning to'g'ri reyslari bilan jo'natish uchun kelishilgan, kafolatlangan normalar hajmiga qat'iy muvofiq amalga oshirilishi kerak.

103-shakldagi ro'yxatlar yuridik shaxslar tomonidan tayyorlanadi. Ro'yxatlar siyohli ruchka bilan qo'lda (agar mumkin bo'lsa, bosma usulda) to'ldiriladi yoki tipografik usulda zarur aniqlik bilan boshqa texnik vositalardan foydalanib ikki nusxada yoziladi. Ro'yxatning 1–4-ustunlari jo'natuvchilar, 5–7-ustunlari esa aloqa xodimlari tomonidan to'ldiriladi.

Ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalari ro'yxatlarga nomma-nom yoziladi.

R O ' Y X A T

103-sh.

Toshkent pochta

dan yuborilgan






posilkalar

(pochta aloqasi obykti nomi)

(pochta jo'natmalari turi)

Jo'natuvchi **10000 Toshkent sh., Buyuk Turon ko'ch., 36-uy «ART PRESS» MCHJ**

(yuridik shaxsning to'liq nomi va manzili)

Qayer-ga	Kimga (tashkilot nomi yoki oluvchining familiyasi)	Pochta jo'natmasining e'lon qilingan qiymati, so'm	Usta-ma to'lov summasi, so'm	Og'ir-lik, kg	Jo'natish uchun to'lov, so'm	Shtrixli pochta identifikatori yoki pochta jo'natmasining 1, 3-shakldagi daftarlar bo'yicha raqami
1	2	3	4	5	6	7
Jizzax	B.Qodirovga	—	—	5,15	3850 so'm	 *SP101432115UZ*
Xorazm	M.Qayumovga	—	—	3,70	3600 so'm	 *SP101432125UZ*
Buxoro	A.Aliyevga	—	—	4,75	4500 so'm	 *SP101432135UZ*
Navoiy	E.Nabiyevga	—	—	2,30	2250 so'm	 *SP101432145UZ*
Xiva	I.Jo'rayevga	—	—	1,15	1350 so'm	 *SP101432155UZ*

Jami 15550 so'm

Jo'natish uchun man qilingan joylanma yo'q.

Direktor o'rinbosari Zoirov

(pochta jo'natmalarini topshirayotgan yuridik shaxs)

Ekspeditor Rashidov

(rahbari va javobgar xodimlarining imzolari)

Opr Saidov

qabul qildi

(lavozimi, imzo)



(jo'natuvchiga berilgan muhr izi)

(qabul qilish joyi taqvim shtempel izi)

52-rasm. To'plamli pochta jo'natmalariga 103-shakldagi ro'yxatni to'ldirish va rasmiylashtirish namunasi.

«*Harbiy qism*», «*Pochta qutisi*» manzilli pochta jo‘natmalarini berishda birinchi ustunda «*Harbiyga oid*», «*Pochta qutisi*» tegishli belgi qo‘yiladi, ikkinchi ustun esa to‘ldirilmaydi.

103-shakldagi ro‘yxatlar yuridik shaxsning rahbari, shuningdek, ikkinchi shaxs (buxgalteriya, ekspeditsiya, devonxonona xodimi va boshqalar) tomonidan imzolandi. 103-shakldagi ro‘yxatlar yuridik shaxs nomiga berilgan muhr izi bilan tasdiqlandi.

To‘plamli pochta jo‘natmalarini jo‘natishda yuridik shaxslar tomonidan 103-shakldagi ro‘yxatlar yuridik shaxslar uchun belgilangan tartibda to‘ldiriladi va jo‘natuvchining shaxsiy imzosi bilan tasdiqlandi.

Ichki posilkalar to‘plami bitta ilova qilinadigan manzil blanki bilan berilganda, 103-shakldagi ro‘yxat har bir shunday to‘plam uchun uch nusxada tuziladi. Ro‘yxatning bitta nusxasi ilova qilinadigan manzil blankiga qo‘shib qo‘yiladi. 103-shakldagi ro‘yxatda posilkalarning e‘lon qilingan qiymatining umumiy summasi chiqariladi. Ushbu summa ilova qilinadigan manzil blankiga ham yozib qo‘yiladi. Agar bitta ilova qilinadigan manzil blanki bilan aviaposilkalar to‘plami qabul qilinsa, unda bulardan tashqari posilkalarning umumiy og‘irligi ham ko‘rsatiladi. Bitta ilova qilinadigan manzil blankida qabul qilingan to‘plamli posilkalar 16-shakldagi yukxatga raqamdan raqamgacha va ularning umumiy sonini ko‘rsatgan holda yozib qo‘yiladi.

Aloqa xodimi 103-shakldagi ro‘yxatlar bo‘yicha pochta jo‘natmalarini qabul qilib, bundan belgilangan talablar bajarish mustasno, ro‘yxatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi, 103-shakldagi ro‘yxatning barcha nusxalarining ma‘lumotlari aynan o‘xshashligini tekshiradi, pochta jo‘natmalarini ro‘yxatdagi yozuvlar bilan nomma-nom solishtiradi.

Mahalliy ro‘yxatga olinadigan to‘plamli pochta jo‘natmalarini qabul qilishda 103-shakldagi ro‘yxatning ikkala nusxasiga har bir pochta jo‘natmasiga qarama-qarshi bo‘lgan tegishli qatorida aloqa xodimi tomonidan 1, 3-shakldagi daftarlar (SHK) bo‘yicha jo‘natmalarining raqamlarini qo‘yadi.

Shahardan tashqariga yuboriladigan ro‘yxatga olinadigan to‘plamli pochta jo‘natmalarini qabul qilishda 103-shakldagi ro‘yxatning birinchi nusxasiga har bir pochta jo‘natmasining to‘g‘risidagi tegishli qatorga aloqa xodimi shtrixkod yopishtiradi, 1, 3-shakldagi ro‘yxatning ikkinchi nusxasiga esa, shtrixkod

bo'yicha raqamdan raqamgacha jo'natmaning raqamlarini qo'lda ko'rsatadi.

Aloqa xodimi 103-shakldagi ro'yxatning ikkala nusxasida yakun chiqaradi, «*Qabul qildim*» deb aniq yozadi, familiyasi va lavozimini ko'rsatadi, ro'yxatlarni imzolaydi va ularga qabul qilingan sanasi bo'lgan taqvim shtempelining izini tushiradi.

To'plamli qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar, posilkalarni yuridik shaxslardan naqd pulsiz bo'yicha qabul qilishda aloqa xodimi pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamas)ning buxgalteriyasida hisob raqamga mablag'larning kelib tushganini oldindan tekshiradi.

Bir yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan jo'natiladigan 103-shakldagi bir nechta ro'yxat bo'yicha bir vaqtning o'zida qabul qilingan pochta jo'natmalariga bitta umumiy yoki har bir ro'yxatga alohida 1, 3-shakldagi daftarlardan kvitansiya beriladi, ularga kvitansiyalarning tartib raqamlari (... raqamdan ... raqamgacha) yozib qo'yiladi. Shahardan tashqariga yuboriladigan ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalarini qabul qilishda, 1, 3-shakldagi daftarlardagi kvitansiyalarning tartib raqamlari pochta jo'natmalarining raqamlari bo'lib hisoblanmaydi.

1, 3-shakldagi daftarlar kvitansiyasining «Qayerga» satrida ro'yxat bo'yicha qabul qilingan pochta jo'natmalarining soni so'z bilan yoziladi; «Kimga» satrida «*Ro'yxat bo'yicha*» yozuvi yozib qo'yiladi; «To'lov» ustunida olingan to'lovning, shu jumladan, og'irligi va zarur hollarda e'lon qilingan qiymati uchun umumiy summasi yoziladi. Bundan tashqari, kvitansiyada xizmat uchun to'lov shakli ko'rsatiladi, masalan, «*naqdsiz*». Alohida satrda qo'shimcha xizmatlar uchun olingan to'lov summasi yoziladi (53-rasm).

Yirik pochta aloqasi obyektlarida to'plamli pochta jo'natmalarini qabul qilish uchun 1, 3-shakllardagi alohida daftarlar yuritilishi mumkin.

To'plamli pochta jo'natmalarini SHKda qabul qilingan holatlarda, ular rasmiylashtirilgandan so'ng quyidagi ma'lumotlar yoziladigan kvitansiya (54-rasm) beriladi:

a) buyurtma pochta jo'natmalari, qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollarni qabul qilishda — kvitansiyaning tartib raqami, barcha qiymati e'lon qilingan xatlar



«O‘zbekiston pochta» aksiyadorlik jamiyati

52—56 - son **KVITANSIYA**
naqdsiz

(alohida belgisi)		posilka		qabul qilishda
		(jo‘natma turi)		
E‘lon qilingan qiymati so‘mlarda		—		
		(so‘zlar bilan)		
E‘lon qilingan qiymati MO‘Hda		—		
		(raqamlar bilan)		
Ustama to‘lov		—		
		(raqamlar bilan)		
Qayerga	beshta posilka			
Kimga	ro‘yxat bo‘yicha			

Og‘irligi 14 kg 500 g	To‘lov	Og‘irligi uchun	23900		Qabul qildi
		E‘lon qilingan qiymati uchun	—		
		E‘lon qilingan qiymati uchun			
Qog‘oz. o‘rovi uchun 5000					Umarova (imzo)
Jami		Yigirma sakkiz ming to‘qqiz yuz so‘m 00 tiyin			
(so‘m so‘zlar bilan, tiyin raqamlar bilan)					

53-rasm. To‘plamli posilkalar uchun 1-shakldagi daftardan kvitansiyani to‘ldirish namunasi.

va qiymati e‘lon qilingan banderollar uchun to‘lovning umumiy summasi;

b) posilkalarni qabul qilishda — kvitansiyaning tartib raqami, har bir pochta jo‘natmasi uchun to‘lov summasi, barcha qabul qilingan posilkalar uchun to‘lovning umumiy summasi.

1, 3-shakldagi daftarlardan (SHK) kvitansiya va 103-shakldagi ro‘yxatlarning ikkinchi nusxasi jo‘natuvchiga beriladi.

Toshkent pochтамti	
<i>Naqdsiz</i>	
K V I T A N S I Y A	2016. 19. 04.
Qayerga	<u><i>Beshta posilka</i></u>
Kimga	<u><i>Ro'yxat bo'yicha O'zbekiston</i></u>
operator	<u><i>Umarova</i></u>
	0051 . . . 6050 . 00
	0052 . . . 6000 . 00
	0053 . . . 7500 . 00
	0054 . . . 2720 . 00
	0055 . . . 1650 . 00
Jami 23920 . 00*.

54-rasm. To'plamli posilkalarni SHKda qabul qilishda kvitansiyaning to'ldirish namunasi.

Buyurtma pochta jo'natmalari (xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar, mayda paketlar), qiymati e'lon qilingan xatlar, qiymati e'lon qilingan banderollar, posilkalar uchun 103-shakldagi ro'yxatlarning birinchi nusxalari 1, 3-shakllardagi daftarlarda yozilgan tartib bo'yicha alohida (turi bo'yicha) to'plam qilib tikiladi va daftarlar yoki SHK operatsion kundaliklari bilan birga saqlanadi.

Belgilangan joylarda to'plamli pochta jo'natmalari yuridik shaxslarning vakolatlangan vakillariga umumiy asoslarda har bir turdagi pochta jo'natmalari uchun belgilangan tartibda beriladi.

4.10. Xizmatga oid pochta jo'natmalari va pul o'tkazmalari

Xizmatga oid pochta jo'natmalarining o'rovi, o'lchami, og'irligi va manzillanishiga umumiy talablar qo'yiladi.

Xizmatga oid toifadagi pochta jo'natmalari va pul o'tkazmalarini jo'natish huquqidan milliy operator va uning tarkibiy bo'linmalari foydalanadilar.

Barcha xizmatga oid pochta jo‘natmalari, pul o‘tkazma blanklarida, umum belgilangan belgilardan tashqari, manzil tomonining yuqori o‘ng burchagiga identifikatsion belgiga ega bo‘lgan «*Xizmatga oid*» — «*Служебное*» yoki, agar ular chet elga jo‘natilayotgan bo‘lsa, «*Service des postes*» shtamp izi tushiriladi.

Xizmatga oid ro‘yxatga olinadigan pochta jo‘natmalari, pul o‘tkazmalari 1, 3, 5-shakllardagi daftarlardan kvitansiyalar berilib, qabul qilinadi, ushbu kvitansiyalarning «Alohida belgisi» satrida «*Xiz.oid*» — «*Служ.*» deb ko‘rsatiladi.

Xizmatga oid pochta jo‘natmalari, pul o‘tkazmalari quyidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda, umum belgilangan tartibda ishlov beriladi, jo‘natiladi va topshiriladi:

a) keluvchi qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollar, posilkalar bilan birga kelgan 16-shakldagi yukxatga aloqa xodimiga imzo qo‘ydirib, yirik pochta aloqasi obyektlarida esa maxsus tuzilgan 16-shakldagi yukxat bo‘yicha topshiriladi;

b) keluvchi buyurtma pochta jo‘natmalari bilan birga kelgan 11-shakldagi reyestrga imzo qo‘ydirib yoki 8-shakldagi kitob bo‘yicha, yirik pochta aloqasi obyektlarida esa, maxsus tuzilgan reyestr bo‘yicha beriladi;

d) ushbu pochta aloqasi obyektiga manzillangan keluvchi xizmatga oid pochta jo‘natmalari, pul o‘tkazmalariga xabarnoma yozilmaydi.

Nazorat savollar

1. Shahardan tashqariga yuboriluvchi buyurtma jo‘natmani qabul qilishda qanday harakatlar amalga oshiriladi?
2. Buyurtma mayda paketni qabul qilishda qo‘shimcha xizmatlar uchun to‘lov summasi qaysi satrda ko‘rsatiladi?
3. Pochta qutilaridan olingan xatlar orasida o‘rovi shikastlangan xat bo‘lgan taqdirda qanday yo‘l tutiladi?
4. Buyurtma yig‘indilar, buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalarni 11-shakldagi reyestrga yozish tartibini tavsiflang.

5-BOB. ICHKI TEZKOR POCHTA JO‘NATMALARINI JO‘NATISH VA YETKAZIB BERISH (TOPSHIRISH)

Tezkor pochta xizmatlari barcha yuridik va jismoniy shaxslarga taqdim etiladi.

Ichki tezkor pochta jo‘natmalari jo‘natuvchilardan zarur miqdordagi hujjatlar ilova qilingan holda qabul qilinadi. Ichki tezkor pochta jo‘natmalari jo‘natuvchiga kvitansiya bergan holda qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Umumjahon pochta ittifoqi aktlari va Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish qoidalari bilan taqiqlangan va cheklangan predmetlar hamda moddalarning ichki tezkor pochta jo‘natmalarida jo‘natilishi taqiqlanadi va cheklanadi.

Ichki tezkor pochta jo‘natmalari ajratilgan ish joylarida va kuryerlar tomonidan qabul qilinadi.

Ichki tezkor pochta jo‘natmalarini o‘rovlash jo‘natuvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Hujjatlar bo‘lgan tezkor pochta jo‘natmalarini o‘rovlash uchun maxsus konvertlar, posilka qutilari yoki yumshoq o‘rov (mato) qo‘llaniladi.

Tovarlar bo‘lgan tezkor pochta jo‘natmalarini o‘rovlash uchun karton qutilar, g‘iloflar, yog‘och (faner) qutilar yoki yumshoq o‘rov (mato) qo‘llaniladi.

Ichki tezkor pochta jo‘natmalarida va ularga ilova qilinadigan blanklarda jo‘natuvchi va adresatning manzillari jo‘natuvchi tomonidan yoziladi.

Tovarlar bo‘lgan ichki tezkor pochta jo‘natmalarini topshirish paytida jo‘natuvchi ularga ilova qilinadigan blanklarda *«Jo‘natishga taqiqlangan joylanmalar yo‘q. O‘rovga qo‘yilgan talablar bilan tanishdim»* — *«Запрещенных к пересылке вложений нет. С требованиями к упаковке ознакомлен»* matnini o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Tovarlar bo'lgan ichki tezkor pochta jo'natmalarining e'lon qilingan qiymati cheklanmaydi va joylanmaning haqiqiy qiymati bo'yicha to'liq so'mlarda jo'natuvchi tomonidan belgilanadi.

Tezkor pochta jo'natmalari adresatlarga shaxsni tasdiqlovchi hujjatlardan biri taqdim etilganda beriladi.

Jismoniy shaxslarga yo'llangan tezkor pochta jo'natmalari adresatlarga uyda yoki pochta aloqasi obyektlarida beriladi. Bu jo'natmalarni yetkazib berish (topshirish) tartibi pochta aloqasi operatorlari tomonidan belgilanadi.

Yuridik shaxs nomiga yo'llangan tezkor pochta jo'natmalari yuridik shaxs tomonidan pochtni qabul qilish uchun vakil qilingan shaxsga beriladi. Yetkazib berish tartibi yuridik shaxsning xati yoki shartnoma asosida belgilanadi. Xuddi shunday tartibda fuqarolarga ularning ish (o'qish) joylari bo'yicha, yotoqxonalarda, internatlarda, bolalar uylarida, mehmonxonalarda yashovchi yoki sog'lomlashtirish va davolash muassasalarida bo'lgan fuqarolarga yo'llangan tezkor pochta jo'natmalari yetkazib beriladi. Tezkor pochta jo'natmalarini bevosita adresatlarga topshirish, ushbu yotoqxonalar, internatlar, bolalar uylari, mehmonxonalar, sog'lomlashtirish va davolash muassasalari ma'muriyatining kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Hujjatlar bo'lgan tezkor pochta jo'natmalarini o'rovlashda nimalar qo'llaniladi?
2. Tovarlar bo'lgan tezkor pochta jo'natmalarini o'rovlash uchun nimalardan foydalaniladi?
3. Jismoniy shaxslarga yo'llangan tezkor pochta jo'natmalarini yetkazib berish tartibi kim tomonidan belgilanadi?

6-BOB. ICHKI KURYERLIK JO‘NATMALARI

6.1. Kuryerlik xizmatlari

Kuryerlik jo‘natmalarini jo‘natish va yetkazib berish (topshirish) bo‘yicha xizmatlar kuryerlik xizmatlari hisoblanadi.

Quyidagilar ichki kuryerlik jo‘natmalariga kiradi:

- a) pochta varaqchalari;
- b) xatlar;
- d) banderollar;
- e) posilkalar;
- f) tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar.

Ichki kuryerlik jo‘natmalari uchun quyidagi cheklangan o‘lchamlar va og‘irlik o‘rnatilgan (2-jadval):

2-jadval

Ichki kuryerlik jo‘natmalarining cheklangan o‘lchamlari va og‘irligi

№	Jo‘natma turi	Og‘irligi (kg)	O‘rovdagi o‘lchamlari
1	2	3	4
1.	Xat	2	162×229 mm; 229×324 mm; 110×220 mm; 114×162 mm.
2.	Pochta varaqchasi	—	105×148 mm.
3.	3. Banderol, shu jumladan, bitta kitob joylangan	2 3	Eng ko‘p: uzunligi, eni va qalinligi yig‘indisi — 900 mm, shu bilan birga eng katta o‘lcham 2 mm og‘ish bilan, 600 mm dan oshmasligi kerak; o‘ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig‘indisi 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm og‘ish bilan, 900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: 2 mm og‘ish bilan, 90×140 mm; o‘ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig‘indisi — 170 mm, shu bilan birga eng katta o‘lchami 100 mm dan oshmasligi kerak.

1	2	3	4
4.	Posilka a) bo‘linadigan joylanma bilan; b) bo‘linmaydigan joylanma bilan	10 15	Eng ko‘p: o‘lchamlardan biri uchun 1,50 m yoki uzunligi va uzunlikdan boshqa yo‘nalishda olingan eng katta aylana yig‘indisi 3 m. Eng kam: 2 mm dan og‘ish bilan, 90×140 mm (eng kam qalinligi 50 mm bo‘lganda).
5.	Tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar	2	Eng ko‘p: uzunligi, eni va qalinligi yig‘indisi — 900 mm, shu bilan birga eng katta o‘lcham 2 mm og‘ish bilan, 600 mm dan oshmasligi kerak; o‘ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig‘indisi 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm og‘ish bilan, 900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: 2 mm og‘ish bilan, 90×140 mm; o‘ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig‘indisi — 170 mm, shu bilan birga eng katta o‘lchami 100 mm dan oshmasligi kerak.

Ichki kuryerlik jo‘natmalari kuryerlik xizmatlarini ko‘rsatadigan pochta aloqasi operatorlari tomonidan belgilanadigan eng qisqa muddatlarda yuboriladi va qo‘ldan qo‘lga yetkazib beriladi (topshiriladi).

Ichki kuryerlik jo‘natmalarini yo‘llash tartibi pochta aloqasi operatorlari tomonidan va ikki tomonlama bitimlar bilan belgilanadi.

Ichki kuryerlik jo‘natmalarining cheklangan o‘lchamlari va og‘irligi pochta aloqasi operatorlari tomonidan belgilanadi.

6.2. Ichki kuryerlik jo‘natmalarini qabul qilish va ishlov berish

Jismoniy shaxslardan ichki kuryerlik jo‘natmalari pochta aloqasi obyektida yoki jo‘natuvchi ko‘rsatgan manzil bo‘yicha kuryerni chaqirish bilan oldindan berilgan buyurtma bo‘yicha qabul qilinadi.

Ichki tezkor pochta jo‘natmalarini qabul qilish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

— foydalanuvchi bilan shartnoma asosida, bunda tezkor pochta jo‘natmalarini topshirish vaqti va joyi, ularning hajmi, jo‘natish

davriyligi, hisob-kitoblar tartibi va boshqa shartlar oldindan belgilanadi;

— oldindan kelishmasdan.

Kuryerni chaqirishga bir martalik buyurtmani joylashtirish uchun jo‘natuvchi (jismoniy shaxs) telefon orqali kuryerlik xizmati bilan bog‘lanishi kerak.

Buyurtmani bajarish muddati pochta aloqasi obyeksi (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi) tomonidan belgilanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan buyurtmalarni joylashtirish tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Buyurtma joylashtirilganda jo‘natuvchi (jismoniy shaxs) quyidagilarni bajarishga majburdir:

— familiya, ismi, otasining ismi, bog‘lanish uchun telefon, kuryer yetib borishi uchun zarur bo‘lgan manzilni ko‘rsatish;

— kuryerlik jo‘natmalarining belgilanish punkti, joylanma xususiyati, jo‘natmalar miqdori, taxminiy og‘irligi va jo‘natma o‘lchamlarini ko‘rsatish.

Buyurtma joylashtirilganda aloqa xodimi (kuryerning) kelish vaqti, jo‘natish uchun to‘lov usuli, zarur bo‘lganda jo‘natmalarni o‘rab joylash bo‘yicha xizmatlar yoki boshqa qo‘shimcha xizmatlar to‘lovi oldindan kelishiladi.

Buyurtmaga o‘zgartirish kiritilganda jo‘natuvchi buyurtma berilgan joydagi pochta aloqasi obyektini bu haqda zudlik bilan ogohlantirishi kerak.

Jismoniy shaxslardan ichki kuryerlik xizmatlari aloqa xodimi (kuryer) tomonidan joylanmani tekshirish uchun ochiq holda qabul qilinadi.

Yuridik shaxslardan ichki kuryerlik jo‘natmalari ham ochiq, ham yopiq holda qabul qilinadi. Agar kuryerlik jo‘natmalari yopiq holda qabul qilinganda aloqa xodimi (kuryer) jo‘natish uchun taqiqlangan predmet va moddalar mavjudligi to‘g‘risida taxmin qilsa, aloqa xodimi (kuryer) ushbu jo‘natmani topshiradigan yuridik shaxsning vakolatlangan vakili ishtirokida joylanmani tekshirish uchun jo‘natmani ochish huquqiga ega. Ushbu kuryerlik jo‘natmasida jo‘natish uchun taqiqlangan joylanma aniqlanganda, u jo‘natmadan olib qo‘yiladi. Aloqa xodimi bunday holatda, ushbu joylanmani pochta jo‘natmalarining tegishli turi bilan jo‘natishni taklif etishi kerak.

Muddatli xizmat harbiylari, shuningdek, jazoni o‘tash muassasalarida jazo o‘tayotgan shaxslar manziliga yo‘llangan ichki kuryerlik jo‘natmalari qabul qilinmaydi.

Ichki kuryerlik jo‘natmalarining o‘rovi turi aloqa xodimlari (kuryerlar) tomonidan joylanmaning xususiyatiga bog‘liq holda aniqlanadi. O‘rov joylanmaning saqlanishini ta‘minlash lozim.

Yuridik shaxslardan ichki kuryerlik jo‘natmalari joylanma xususiyatiga bog‘liq holda soddalashtirilgan o‘rovda yoki o‘rovsiz, agar ushbu shart kuryerlik xizmatlarini ko‘rsatish uchun shartnomada mavjud bo‘lsa, qabul qilinishi mumkin.

Kuryerlik jo‘natmalari o‘rovining manzil tomonida «*Kuryerlik*» — «*Курьерская*» belgisi, agar uning o‘rovda yozish imkoni bo‘lsa, qo‘yiladi. Ushbu belgini qo‘yish imkoni bo‘lmaganda, qo‘yilmaydi.

Ichki kuryerlik posilkalarni qabul qilishda har bir posilka uchun jo‘natuvchi 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankini tuzadi, unda «*Kuryerlik*» — «*Курьерская*» belgi qo‘yiladi.

Ichki kuryerlik jo‘natmalarini qabul qilishda jo‘natuvchiga 1, 3-shakldagi daftarlardan kvitansiya yoki SHKda rasmiylashtirilgan kvitansiyalar beriladi.

To‘plamli ichki kuryerlik jo‘natmalari ichki pochta jo‘natmalarining tegishli turlari uchun belgilangan shakl bo‘yicha tuzilgan 103-shakldagi ro‘yxat bo‘yicha qabul qilinadi. Ro‘yxatlar ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Ro‘yxatning birinchi nusxasi kvitansiya daftarlariga yoki SHK operatsion kundaliklariga qo‘shib qo‘yiladi, ikkinchisi — kvitansiya bilan birga jo‘natuvchiga beriladi.

Ichki kuryerlik jo‘natmalarini qabul qilishda aloqa xodimi (kuryer) quyidagilarga majburdir:

a) manzilning to‘g‘ri yozilganligini tekshirish, zarur bo‘lganda 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida va jo‘natma o‘rovda ko‘rsatilgan oluvchi va jo‘natuvchining manzillarini solishtirish, «*Kuryerlik*» — «*Курьерская*» belgisining mavjudligini tekshirish. Ushbu belgi mavjud bo‘lmaganda, uni qo‘yish;

b) jo‘natuvchining ishtirokida jo‘natiladigan joylanmani jo‘natishga taqiqlangan joylanmalar yuzasidan tekshirish;

d) jo‘natmani o‘rab joylash, jo‘natmaning o‘rovda va ilova qilinadigan manzilda belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektini nomining tagiga rang bilan (qalam, ruchka, marker)da ajratib qo‘yish. Kuryerlik jo‘natmasini bir aholi punktida jo‘natishda belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektini nomini rang bilan ajratish shart emas;

e) jo‘natuvchining ishtirokida kuryerlik jo‘natmasini bog‘lash, zarur hollarda muhrlash va tarozida tortib ko‘rish. Kuryerlik

posilkalarini qabul qilishda 2-shakldagi yorliqni rasmiylashtirish, 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida og‘irlik, jo‘natish uchun to‘lov summasini ko‘rsatish va imzo qo‘yish. Bundan tashqari, 2-shakldagi yorliq va 116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankida tegishli joylarda qabul qilish sanasi bo‘lgan taqvim shtempeli izini qo‘yish;

f) ichki pochta jo‘natmalari uchun belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan 1-shakldagi yoki 3-shakldagi daftardan kvitansiyani nusxa ko‘chiruvchi qog‘oz yordamida yozib olish. Ichki kuryerlik jo‘natmalarini qabul qilish pochta jo‘natmalarini qabul qilishdan alohida 1, 3-shakllardagi daftarlar bo‘yicha amalga oshiriladi. «Alohida belgisi» ustunida «*Kuryerlik*» — «*Курьерская*» belgisi ko‘rsatiladi. Kuryerlik jo‘natmasining qabul qilinishini SHKda rasmiylashtirishda ushbu belgi kvitansiyaga aloqa xodimi (kuryer) tomonidan qo‘lda yozib qo‘yiladi.

6.3. Ichki kuryerlik jo‘natmalariga ishlov berish va jo‘natish

Pochta aloqasi obyektlaridagi ish joylarida yoki aloqa xodimi (kuryer) qabul qilingan ichki kuryerlik jo‘natmalari jadval bilan belgilangan muddatlarda 11-shakldagi reyestrlarda, 16-shakldagi yukxatlarda nomma-nom tekshirib, imzo qo‘ydirib ishlov berishga va jo‘natishga beriladi.

11-shakldagi reyestrlar, 16-shakldagi yukxatlar ikki nusxada tuziladi va bir oy davomida tartib raqamlari bilan raqamlanadi, 11-shakldagi reyestr, 16-shakldagi yukxatning yuqori qismiga «*Kuryerlik*» — «*Курьерские*» belgisi qo‘yiladi.

Aholi yashaydigan punktlar o‘rtasida jo‘natiladigan ichki kuryerlik jo‘natmalari oldindan yig‘indilarga shakllantiriladi va jo‘natiladi.

Ichki kuryerlik jo‘natmalarini pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog‘lamalari) o‘rtasida jo‘natish ikki nusxada tuziladigan 16-shakldagi yukxatga yozilib ajratilgan sug‘urta qoplarda amalga oshiriladi. 10,17-shakldagi manzil yorliqlariga «*Kuryerlik*» — «*Курьерские*» belgi qo‘yiladi. Kuryerlik posilkalari ichki posilkalar uchun belgilangan tartibda, 16-shakldagi yukxatga «*Kuryerlik*» — «*Курьерские*» belgi qo‘yilgan holda yuboriladi.

Qabul qilish joyidagi pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi)ning xizmat ko‘rsatish zonasi doirasida yetkazib

berish uchun qabul qilingan ichki kuryerlik jo‘natmalari aloqa xodimi (kuryer)ga yetkazib berish uchun 11-shakldagi reyestrlarga, 16-shakldagi yukxatlarga nomma-nom yozilib yetkazib berish uchun aloqa xodimlari (kuryerlar)ga topshiriladi.

6.4. Belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlarida ichki kuryerlik jo‘natmalariga ishlov berish va yetkazib berish (topshirish)

Pochta aloqasi obyektiga kelib tushgan ichki kuryerlik jo‘natmalariga ajratilgan ish joylarida va ustuvor tartibda ishlov beriladi («*HUKUMATGA OID*» belgili pochta jo‘natmalariga va ustuvor pochta jo‘natmalariga ishlov berilgandan keyin).

Ichki kuryerlik jo‘natmalarining ishlov berish, jo‘natishda buzilishlarga yoki ularni o‘rab joylashda nosozliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlanganda 30-shakldagi xabarnoma yoki 51-shakldagi dalolatnoma tuziladi.

Har bir ichki kuryerlik jo‘natmasiga 22-shakldagi xabarnoma tuziladi, unga adresatning manzili, ismi (adresatning familiyasi, ism-sharifi yoki yuridik shaxsning nomi), kuryerlik jo‘natmasining turi, jo‘natish joyi va 1, 3-shakldagi daftari bo‘yicha raqami yoziladi. Yuridik shaxs tomonidan kuryerlik jo‘natmasi oluvchi tomonidan yoziladigan tilxatning maxsus blanklari bilan jo‘natilganda 22-shakldagi xabarnoma yozilmaydi.

Besh va undan ortiq ichki kuryerlik jo‘natmalari bir yuridik shaxsning manziliga kelib tushganda, ular uchun bitta 22-shakldagi xabarnoma yoziladi va 16-shakldagi yukxat bir nusxada tuziladi, unga jo‘natmalar nomma-nom yoziladi. Bunda 22-shakldagi xabarnomada kuryerlik jo‘natmalarining umumiy soni ko‘rsatiladi.

Keluvchi ichki kuryerlik jo‘natmalari 22-shakldagi xabarnomalar yoki oluvchi tilxatining maxsus blanklari bilan birga yetkazib berish uchun maxsus ajratilgan aloqa xodimi (kuryer)ga turlari bo‘yicha alohida miqdorda 55-shakldagi daftarga imzo qo‘ydirilib beriladi. Kuryerlik jo‘natmalari o‘tishining hisobi kelib tushgan jo‘natmalar uchun 16-shakldagi yukxatlar bo‘yicha yoki 11-shakldagi reyestrlar bo‘yicha olib boriladi.

Ichki kuryerlik jo‘natmalarini yetkazib berish uchun qabul qilishda aloqa xodimi (kuryer) ularning o‘rovi, muhri, plombasi, bog‘lovi, tasmalarini sinchiklab tekshiradi, og‘irligining to‘g‘riligini

tekshiradi va 55-shakldagi daftarga qabul qilgan kuryerlik jo'natmalarining sonini ko'rsatib imzo qo'yadi.

Ichki kuryerlik jo'natmalari adresatlarga 22-shakldagi xabarnomalarga yoki oluvchi tilxatining maxsus blanklariga imzo qo'ydirilib beriladi. 22-shakldagi xabarnomaga yoki oluvchi tilxatining maxsus blankiga imzo qo'yishdan tashqari, adresat familiyasini bosh harflarda yozishi yoki imzo qo'ygan shaxsni xatosiz aniqlab olish imkonini beradigan har qanday aniq va tushunarli yozuvni qo'shimcha tarzda yozib qo'yishi kerak. Kuryerlik jo'natmalarining torshirilishi, ularni topshirgan aloqa xodimi (kuryer) imzosi bilan tasdiqlanadi.

Ichki kuryerlik jo'natmasini adresatga uyda topshirishning imkoni bo'lmaganda (adresat uyda bo'lmaganda), aloqa xodimi (kuryer) topshirilmaganlik sababini ko'rsatgan holda 20-shakldagi ma'lumotnomani tuzadi. Jo'natmani takroran yetkazib berishda topshirilmagan holatda aloqa xodimi (kuryer jo'natmani pochta aloqasining yetkazib berish obyektida olish uchun adresatni taklif etgan holda, unga 22-shakldagi xabarnoma qoldiriladi, shuningdek, topshirish amalga oshiriladigan pochta aloqasi obyektining manzili va ish vaqti ko'rsatiladi.

Ichki kuryerlik jo'natmalarini olishni rad etganligi, ko'rsatilgan manzil bo'yicha istiqomat qilmaganligi, adresatning o'limi sababli topshirish mumkin bo'lmaganda, kuryerlik jo'natmasi 20-shakldagi ma'lumotnomaga tegishli yozuvni yozgan holda jo'natuvchiga qaytariladi.

Yetkazib berishdan qaytib kelgan aloqa xodimi (kuryer) topshirilgan ichki kuryerlik jo'natmalari va topshirilmagan jo'natmalariga 22-shakldagi xabarnomalarni yoki oluvchi tilxatining maxsus blanklarini ularga 20-shakldagi ma'lumotnoma biriktirgan holda topshiradi.

Hisobotni qabul qiluvchi aloqa xodimi topshirilmagan kuryerlik jo'natmalarining o'rovi, muhrlari, plombalari, bog'lamlari, tasmlari butligini, zarur bo'lganda esa, og'irligini ham tekshiradi. Hisobotni qabul qilishda yetkazib beruvchi pochta aloqasi obyektining boshlig'i (o'rinbosari) yoki nazorat qiluvchi shaxs 55-shakldagi daftarni to'ldiradi.

Pochta aloqasi obyektlarida ichki kuryerlik jo'natmalari xuddi manzili bo'yicha yetkazib berilgan tartibda, lekin kuryerlik jo'natmalarining o'rovida ko'rsatilgan og'irligi uning haqiqiy

og'irligiga muvofiq kelishini tekshirib topshiriladi. Zarur holatlarda ularni saqlaganlik uchun to'lov undiriladi.

Yuridik shaxslarga ichki kuryerlik jo'natmalarini bitta xabarnoma bo'yicha topshirishda taqdim etilgan hujjat to'g'risidagi, olingan jo'natmalarning umumiy soni to'g'risidagi ma'lumotlar 11-shakldagi reyestrda yoki 16-shakldagi yukxatda vakolatlangan vakillar tomonidan ko'rsatiladi va imzolanadi.

Ichki kuryerlik jo'natmalari shaxsan adresatga 22-shakldagi xabarnomaga (116-shakldagi ilova qilinadigan manzil blankining orqa tomoniga) yoki tilxatning maxsus blankiga ko'rsatilgan hujjatlardan biri taqdim etilganda, olish sanasi va vaqti ko'rsatilgan holda imzo qo'ydirilib topshiriladi.

Adresat bo'lmagan holatda ichki kuryerlik jo'natmalari shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlarni taqdim etish bilan ishonchnomasiz va ularning adresatga yaqin qarindoshchilik munosabatini tasdiqlaydigan hujjatsiz voyaga yetgan oila a'zolariga topshirilishi mumkin, bu haqda tilxatda qo'shimcha tarzda yozib qo'yiladi.

Nazorat savollari

1. Ichki kuryerlik jo'natmalariga nimalar kiradi?
2. Ichki kuryerlik jo'natmalari uchun qanday o'lcham va og'irliklar o'rnatilgan?
3. Ichki tezkor pochta jo'natmalarini qabul qilish tartibini bayon eting.
4. Ichki kuryerlik jo'natmalarini qabul qilishda aloqa xodimi (kuryer)ning majburiyatlarini sanang.

7-BOB. PUL O‘TKAZMALARI OPERATSIYALARINI TASHKIL ETISH

7.1. Pul o‘tkazmalari bo‘yicha umumiy qoidalar

Pul o‘tkazmalari ichki va xalqaro o‘tkazmalarga bo‘linadi.

Jismoniy shaxslardan ichki pul o‘tkazmalari barcha pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog‘lamalari, aloqa bo‘limlari)da qabul qilinadi.

Yuridik shaxslardan ichki pochta o‘tkazmalari hamda yuridik va jismoniy shaxslardan xalqaro pul o‘tkazmalari pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog‘lamalari)da va elektron pul o‘tkazmalarining avtomatlashtirilgan tizimi (EPO‘ AT)ga ulangan ajratilgan aloqa bo‘limlarida qabul qilinadi.

Xalqaro pul o‘tkazmalari faqat «O‘zbekiston pochta» aksiyadorlik jamiyati pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog‘lamalari, aloqa bo‘limlari)da qabul qilinadi.

EPO‘ tizimiga ulangan pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi, aloqa bo‘limi)ning (pochta aloqasining avtomatlashtirilgan obyekt) xodimi EPO‘ tizimida pochta aloqasi manzilli obyektning indeksi bo‘yicha uning avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmaganligini aniqlaydi. Agar pochta aloqasining manzilli obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi, aloqa bo‘limi) avtomatlashtirilgan bo‘lsa, elektron pul o‘tkazmasi sifatida, agar aloqa bo‘limi avtomatlashtirilmagan bo‘lsa — gibridd pul o‘tkazmasi sifatida rasmiylashtiriladi.

Yuridik shaxslardan har qanday miqdorda pul o‘tkazmalarini qabul qilish naqd pulsiz hisob-kitob (to‘lov topshiriqlari) bo‘yicha amalga oshiriladi.

Bitta pul o‘tkazmasining summasi va ichki pul o‘tkazmalari bilan jo‘natish uchun qabul qilinadigan pullarning umumiy summasi cheklanmaydi.

Umumjahon pochta ittifoqiga a‘zo-mamlakatlarning pochta aloqasi operatorlari o‘rtasida ikki tomonlama tuzilgan shartnomalarda belgilangan bitta xalqaro pul o‘tkazmasining maksimal summasi pochta aloqasi obyektlari (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamalari)ga buyruq orqali yetkaziladi.

Pul o'tkazmalari (ichki va xalqaro) milliy valutada qabul qilinadi va to'lanadi.

Ichki pul o'tkazmalari 114-shakldagi blankda qabul qilinadi, 115-shakldagi blank bo'yicha to'lanadi.

Xalqaro pul o'tkazmalari MP-1 shakldagi blankda qabul qilinadi, MP-1e shakldagi blank bo'yicha to'lanadi.

Jo'natuvchi jismoniy shaxs 114-shakldagi, MP-1 shakldagi blanklarda zarur bo'lganda «yozma xabar» satrida to'lov turini (alimentlar, nafaqa) ko'rsatishi va xabar yozishi mumkin.

Nomuvofiq shakldagi blanklarda pul o'tkazmalarini qabul qilish taqiqlanadi.

114-shakldagi, MP-1 shakldagi blanklarda yozilgan matnни tuzatishga, o'chirishga va ustidan qayta yozishga yo'l qo'yilmaydi.

Qoidalar talablarini buzgan holda rasmiylashtirilgan 114-shakldagi, MP-1 shakldagi blanklar jo'natishga qabul qilinmaydi va jo'natuvchilarga qaytariladi.

Pul o'tkazmalari jismoniy va yuridik shaxslardan «*Olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma bilan*» va «*Eltib berish bilan*» qabul qilinishi mumkin.

Harbiy qismlarga, jazoni ijro etish muassasalariga, abonement pochta javoniga manzillangan pul o'tkazmalari faqat «*Olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma bilan*» qabul qilinishi mumkin.

Pul o'tkazmalari jismoniy shaxslar manziliga yetkazib berilishi uchun haq to'langan holda eng kam oylik ish haqining o'n barobaridan ko'p bo'lmagan summada qabul qilinishi mumkin, pensiyalar, nafaqalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni to'lash bo'yicha pul o'tkazmalari bundan mustasno.

Pul o'tkazmasi to'langanligi to'g'risidagi axborotni olish uchun jo'natuvchi 119-shakldagi bildirishnoma (oddiy yoki buyurtma) blankini to'ldiradi.

Pul o'tkazmasining yetkazib berilganligi uchun haq pul o'tkazmasini jo'natish to'lovining umumiy summasiga kiritiladi.

Olinganligi to'g'risidagi bildirishnomalar (oddiy yoki buyurtma) haqi markalar bilan to'lanadi.

Pul o'tkazmalarini qabul qilishda aloqa xodimlari tomonidan pul o'tkazmalarining jo'natuvchilari va oluvchilari identifikatsiya qilinadi va lozim darajada tekshiriladi.

7.2. Pul o‘tkazmalarini qabul qilishda 5-shakldagi kvitansiya daftarlarini yuritish tartibi, kvitansiyalarni rasmiylashtirish

Pul o‘tkazmasini qabul qilishda jo‘natuvchiga 5-shakldagi kvitansiya beriladi, ushbu kvitansiya nusxa ko‘chirish qog‘ozi orqali to‘ldiriladi va aloqa xodimi tomonidan imzolanadi.

Pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog‘lamalari, aloqa bo‘limlari)da ichki va xalqaro pul o‘tkazmalari uchun 5-shakldagi yagona kvitansiya daftari yuritiladi.

Pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi, aloqa bo‘limi)da 5-shakldagi kvitansiya daftariga NGMning izi, joriy oy ichidagi 5-shakldagi kvitansiya daftarining tartib raqami, pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog‘lamasi, aloqa bo‘limi) nomi, yil va oy qo‘yiladi.

Har kuni 5-shakldagi kvitansiya daftariga birinchi berilgan 5-shakldagi kvitansiya nusxasiga taqvim shtempeli (TSH)ning izi tushiriladi.

Pul o‘tkazmalarini qabul qilishda 5-shakldagi kvitansiyalarni raqamlash oy davomida 5-shakldagi kvitansiya daftari bo‘yicha yuritiladi.

Pul o‘tkazmalarini qabul qilishda:

a) jismoniy shaxslardan:

1) avtomatlashtirilmagan aloqa bo‘limlarida pul o‘tkazmasiga tartib raqami 5-shakldagi kvitansiya daftari bo‘yicha beriladi;

2) avtomatlashtirilgan pochta aloqasi obyektlarida pul o‘tkazmasiga raqam 5-shakldagi kvitansiya daftari bo‘yicha hamda EPO‘ tizimi orqali beriladi va raqam kasrdan iborat bo‘ladi, bunda surati — 5-shakldagi kvitansiya daftari bo‘yicha tartib raqami, maxraji esa — EPO‘ tizimi orqali berilgan raqam. EPO‘ tizimi orqali berilgan raqam 5-shakldagi daftardagi kvitansiyaga va 114-, MP-1 shakllardagi blanklarga yoziladi;

b) yuridik shaxslardan:

1) 103-B shakldagi ro‘yxat bo‘yicha har bir pul o‘tkazmasiga 5-shakldagi kvitansiya daftari bo‘yicha tartib raqami beriladi, bu raqam EPO‘ tizimiga kiritiladi.

Pul o‘tkazmalarini qabul qilishda jismoniy shaxslarga avtomatlashtirilmagan aloqa bo‘limida (55-rasm), avtomatlashtirilgan pochta aloqasi obyektida (55-rasm) qabul qilingan har bir pul o‘tkazmasiga 5-shakldagi kvitansiya beriladi.



«O‘zbekiston pochta» aksiyadorlik jamiyati
47-son KVITANSIYA

pul o‘tkazmasini qabul qilish to‘g‘risida yetkazib berish bilan

(alohida vazifasi)

Naqd

Summa **Ikki yuz ming so‘m**

(so‘m so‘zlar, tiyinlar raqamlar bilan)

so‘m	tiyin
200000	—

Qayerga 170307, Haqiqat, Andijon vil.

Baliqchi tumani

Kimga **Jumayevga**

To‘lov 12200 so‘m 00 tiyin

Qabul qildi **Jo‘rayev**

(imzo)

a) avtomatlashtirilmagan aloqa bo‘limida



«O‘zbekiston pochta» aksiyadorlik jamiyati
17/3978714-son KVITANSIYA

pul o‘tkazmasini qabul qilish to‘g‘risida yetkazib berish bilan

(alohida vazifasi)

Naqd

Summa **Ikki yuz ming so‘m**

(so‘m so‘zlar, tiyinlar raqamlar bilan)

so‘m	tiyin
200000	—

Qayerga 170307, Haqiqat, Andijon vil.

Baliqchi tumani

Kimga **Jumayevga**

To‘lov 12200 so‘m 00 tiyin

Qabul qildi **Jo‘rayev**

(imzo)

b) avtomatlashtirilgan pochta aloqasi obyektida

55-rasm. Avtomatlashtirilmagan aloqa bo‘limida va avtomatlashtirilgan pochta aloqasi bo‘limida 5-shakldagi kvitansiyaning to‘ldirish namunasi.

5-shakldagi kvitansiyada quyidagilar ko'rsatiladi:

a) to'lov shakli: naqd pul bilan — «naqd», jo'natish uchun plastik kartochka bo'yicha — «plast/kart»;

b) «Alohida vazifasi» satrida tegishli «*Olinganligi to'g'risida bildirishnoma bilan*», «*Yetkazib berish bilan*» belgisi qo'yiladi;

d) «Summa» satrida pul o'tkazmasining summasi ko'rsatiladi, pul o'tkazmasining summasi so'zlar bilan yozilganda, qolgan bo'sh joyga chizib qo'yiladi;

e) «Qayerga» satrida pochta aloqasi obyektini (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi, aloqa bo'limi)ning indeksi va belgilangan joydagi aholi punktining manzili ko'rsatiladi, agar pul o'tkazmasida tuman darajasidan past bo'lgan aholi punkti belgilangan joy bo'lsa, viloyat va tuman nomi ko'rsatiladi, xalqaro pul o'tkazmasini qabul qilishda belgilangan mamlakat ko'rsatiladi;

f) «Kimga» satrida — oluvchining familiyasi ko'rsatiladi;

g) «To'lov» satrida jo'natish va qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov summasi ko'rsatiladi;

h) «Qabul qildi» satriga imzo qo'yiladi.

103-B shakldagi ro'yxatlar bo'yicha yuridik shaxslardan qabul qilingan pul o'tkazmalariga bitta 5-shakldagi kvitansiya (56-rasm) yozib beriladi, ushbu kvitansiyalarga quyidagilar yoziladi:

a) 5-shakldagi daftar bo'yicha o'tkazmalar raqamlari (...dan ...gacha);

b) to'lov shakli ko'rsatiladi: naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha — «naqdsiz»;

d) «Alohida vazifasi» satriga tegishli «*Olinganligi to'g'risida bildirishnoma bilan*», «*Yetkazib berish bilan*» belgisi qo'yiladi;

e) «Summa» satriga pul o'tkazmalarining umumiy summasi (yozuv va raqamlar bilan) yoziladi;

f) «Qayerga» satrida ro'yxat bo'yicha qabul qilingan pul o'tkazmalari summasi so'zlar bilan ko'rsatiladi;

g) «Kimga» satriga «*Ro'yxat bo'yicha*» belgisi qo'yiladi;

h) «To'lov» ustuniga jo'natish uchun olingan to'lovning umumiy summasi yoziladi;

i) «Qabul qildi» satriga imzo qo'yiladi.

5-shakldagi kvitansiyaning orqa tomoniga pul o'tkazmasi qabul qilingan sana ko'rsatilgan TSH izi qo'yiladi.

5-shakldagi kvitansiyalarda va ularning nusxalarida o'chirishlarga va tuzatishlarga, shu jumladan, izoh berilgan tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, 5-shakldagi



«O‘zbekiston pochtasi» aksiyadorlik jamiyati
8-1-2-son KVITANSIYA

naqdsiz

pul o‘tkazmasini qabul qilish to‘g‘risida Yetkazib berish bilan

(alohida vazifasi)

Summa **Ikki million uch yuz ellik ming so‘m**

(so‘m so‘zlar, tiyinlar raqamlar bilan)

so‘m	tiyin
2350000	—

Qayerga **Olita o‘tkazma**

Kimga **Ro‘yxat bo‘yicha**

To‘lov **235000** so‘m **00** tiyin **Qabul qildi** **Mahkamova**

(imzo)

56-rasm. Yuridik shaxslardan pul o‘tkazmalarini qabul qilishda
 5-shakldagi kvitansiyaning to‘ldirish namunasi.

kvitansiya va nusxasi diagonal bo‘yicha ruchka bilan o‘chiriladi va aloqa xodimi tomonidan imzolanadi. O‘chirilgan kvitansiyalar va ular nusxalari 5-shakldagi kvitansiya daftaridan yirtib olinmaydi. 5-shakldagi yangi kvitansiya bekor qilingan kvitansiya raqami beriladi.

Qabul qilingan pul o‘tkazmalari 5-shakldagi kvitansiya daftariga yozilishi sayin ushbu daftarda ish kuni davomida qabul qilingan pul o‘tkazmalari summalarining har sahifadagi o‘sib boruvchi yakunlari va jo‘natish uchun olingan to‘lov summasi alohida hisoblab boriladi. Summaning har sahifadagi yakunlari naqd pullar bilan, naqd pulsiz hisob-kitob bo‘yicha qabul qilingan summalar alohida va jo‘natish uchun olingan to‘lov summasi naqd pullar bilan, naqd pulsiz hisob-kitob bo‘yicha va plastik kartochkalar bo‘yicha alohida chiqariladi. Summa yakunlari har bir sahifaning oxirida raqamlar bilan yoziladi.

Ish kuni yakunida oxirgi 5-shakldagi kvitansiyaning nusxasida (agar ikki va undan ko‘p pul o‘tkazmalari qabul qilingan bo‘lsa) yoki ishlatilmagan kvitansiyalarning nusxalarida qabul qilingan pul

o'tkazmalari miqdori va summasining, shuningdek, jo'natish uchun to'lovning umumiy yakunlari chiqariladi, bunda 5-shakldagi kvitansiyaning asl nusxasi ustidan xochsimon ravishda chiziladi. So'ng bu yakunlar naqd pullar bilan, naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha qabul qilingan summalar alohida va jo'natish uchun olingan to'lov summasi naqd pullar bilan, naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha va plastik kartochkalar bo'yicha alohida raqamlar bilan ko'rsatiladi.

Yakunlar pul o'tkazmalarini qabul qilgan aloqa xodimi va pochta aloqasi obykti (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ning nazorat qiluvchi shaxsi yoki aloqa bo'limi boshlig'i tomonidan imzolanadi.

Avtomatlashtirilgan pochta aloqasi obyektlarida 5-shakldagi kvitansiya daftari bo'yicha ish kuni mobaynida qabul qilingan pul o'tkazmalari yakunlarini chiqarganda pochta aloqasi obykti (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ning nazorat qiluvchi shaxsi yoki aloqa bo'limi boshlig'i qabul qilingan pul o'tkazmalariga 11-shakldagi reyestrni chiqarib, ularni 5-shakldagi kvitansiya daftariidagi yakunlar bilan solishtiradi, so'ng 5-shakldagi daftarning oxirgi kvitansiya nusxasining bo'sh joyida o'tkazma miqdori, summasi va jo'natish uchun to'langan to'lov to'g'risida yozib qo'yadi va imzosini qo'yadi.

Oy tugagandan keyin har bir 5-shakldagi kvitansiya daftariga bir kun davomida qabul qilingan pul o'tkazmalari yakunidan so'ng, 5-shakldagi daftarning ishlatilmagan kvitansiyalari nusxalarida (ular bo'lmasa — 5-shakldagi kvitansiya daftari muqovasining ichki tomonida) bir oy ichida quyidagilar ko'rsatiladi:

a) o'tkazmalar miqdori raqamlar bilan;

b) pul o'tkazmalari summasining umumiy yakunlari raqamlar va so'zlar bilan;

d) jo'natish uchun to'lov summalarini raqamlar va so'zlar bilan.

So'ngra oy yakunlari naqd pullar bilan, naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha qabul qilingan summalar alohida va jo'natish uchun olingan to'lov summasi naqd pullar bilan, naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha va plastik kartochkalar bo'yicha alohida ko'rsatiladi.

Yakunlar pul o'tkazmalarini qabul qilgan aloqa xodimi va pochta aloqasi obykti (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ning nazorat qiluvchi shaxsi yoki aloqa bo'limi boshlig'i tomonidan imzolanadi.

Aloqa bo'limlari bo'yicha oy yakunlari hamda 5-shakldagi kvitansiya daftaridagi yakunlar muvofiqligi tekshirilgandan so'ng, pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ning nazorat qiluvchi shaxsining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Oy tugagandan keyin 5-shakldagi kvitansiya daftarlarida foydalanilmay qolib ketgan kvitansiyalar ustidan pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ning nazorat qiluvchi shaxsi yoki aloqa bo'limining boshlig'i tomonidan diagonal bo'yicha ruchka bilan xochsimon ravishda chiziladi.

Tekshirilgan 5-shakldagi kvitansiya daftarlari PO'NQMGa jo'natilguncha ular butligi ta'minlangan holda, pochta aloqasi obyekt (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)ning nazorat qiluvchi shaxsida saqlanadi.

Bir vaqtning o'zida bir nechta 5-shakldagi kvitansiya daftarlari tutiladigan pochta aloqasi obyektlari (pochtamt, pochta aloqasi bog'lamasi)da asosiy 5-shakldagi kvitansiya daftarida oy uchun yakun chiqarilgandan so'ng, boshqa 5-shakldagi kvitansiya daftarlari bo'yicha qabul qilingan pul o'tkazmalari miqdori, summasi, jo'natish uchun olingan to'lov ko'rsatiladi. Shundan so'ng, barcha 5-shakldagi kvitansiya daftarlari bo'yicha umumiy yakun chiqariladi.

Nazorat savollari

1. Pul mablag'lari pochta o'tkazmasi bu nima?
2. Pul mablag'lari pochta o'tkazmasi turlarini aytib bering.
3. Oddiy va tezkor pul o'tkazmalari o'rtasidagi farqi nimalardan iborat?
4. Ichki va xalqaro pul o'tkazmalari qaysi valutada qabul qilinadi va to'lanadi?
5. Ichki va xalqaro pul o'tkazmalari qabul qilishda qaysi shakldagi blanklardan foydalaniladi?
6. Pul mablag'lari pochta o'tkazmasi blankining old tomoniga qo'yiladigan barcha xizmatga oid belgilarni aytib bering.
7. Qabul qilinayotgan pul mablag'lari pochta o'tkazmasining summasi cheklanganmi? Cheklangan bo'lsa, cheklangan summasini aytib bering.
8. Pul o'tkazmasini qabul qilishda qaysi shakldagi kvitansiya daftaridan kvitansiya yozib beriladi va unda nimalar ko'rsatiladi?
9. Pul o'tkazmasini jismoniy shaxslardan qabul qilish tartibini aytib bering.
10. Pul o'tkazmasini yuridik shaxslardan qabul qilish shartlari qanday?
11. 103-B shakldagi ro'yxatlarni rasmiylashtirish tartibi qanday?

Ushbu o‘quv qo‘llanmada quyidagi qisqartmalardan foydalanilgan:

AT — avtomatlashtirilgan tizim;

AIJ — avtomatlashtirilgan ish joyi;

MXSH — maxsus xotira shtempeli;

PO‘NQM — pul o‘tkazmalarini nazorat qilish markazi;

SHK — shaxsiy kompyuter.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari. (O'zAAA bosh direktorining 2011-yil 22-fevraldagi 1-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2011-yil 18-aprelda 2219-raqam bilan ro'yxatga olingan).

2. Pochta qoidalari. 1-qism. Pochta, kuryerlik jo'natmalari. (O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining 2013-yil 31-dekabrda 499-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).

3. Pochta qoidalari. 2-qism. Pul mablag'larining pochta o'tkazmalari. (O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2015-yil 8-iyundagi 128-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).

4. TSH 45-005:2005 Nomli buyumlar va pochta shtamlari. Texnik shartlari. (O'zbekiston Respublikasi Aloqa va axborotlashtirish agentligining 2004-yil 26-oktabrdagi 348-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zstandart agentligida 2004-yil 13-sentabrda 112/005647-raqam bilan ro'yxatga olingan).

5. O'z DSt 2939:2015 Pochta blanklari. Umumiy texnik talablar. (O'zbekiston Respublikasi Aloqa va axborotlashtirish agentligining 2005-yil 24-maydagi 111-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zstandart agentligida 2015-yil 27-fevralda 05-626-raqam bilan ro'yxatga olingan).

6. «Pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanishda afzalliklar beriladigan foydalanuvchilarning ayrim toifalariga pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida» Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan, 1-ilova).

7. O'z DSt 1020:2002 Pochta konvertlari. Texnik shartlar («O'zstandart» agentligining 2002-yil 14-iyundagi 12-27-son qarori bilan tasdiqlangan).

8. O'z DSt 1143:2013 Pochta kartochozalari. Texnik shartlar («O'zstandart» agentligining 2013-yil 25-dekabrda 05-509-son qarori bilan tasdiqlangan).

9. O‘z DSt 1099:2006 Pochta qoplari. Texnik shartlar («O‘zstandart» agentligining 2006-yil 9-yanvardagi 05-02-son qarori bilan tasdiqlangan).

10. O‘z DSt 1225:2009 Pochta aloqasi. Atamalar va ta’riflar («O‘zstandart» agentligining 2009-yil 30-iyuldagi 05-156-son qarori bilan tasdiqlangan).

11. Q 056:2006 Ekspres-pochtaning xalqaro jo‘natmalarini qabul qilish, jo‘natish va berish qoidalari (O‘zbekiston Respublikasi Aloqa va axborotlashtirish agentligining 2006-yil 30-iyundagi 197-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan).

12. O‘zbekiston Respublikasi pochta to‘lovining davlat belgilari to‘g‘risida Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 22-noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2529).

13. Pochta aloqasida frankirlash mashinasidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Aloqa va axborotlashtirish agentligining 2009-yil 25-avgustdagi 266-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 19-sentabrda 19-raqam bilan ro‘yxatga olingan).

MUNDARIJA

<i>1-BOB.</i> Milliy operator pochta aloqasi obyektlarining nomli buyumlari.....	3
<i>2-BOB.</i> Pochta jo‘natmalarini jo‘natish uchun idish (tara)	8
<i>3-BOB.</i> Ichki pochta, kuryerlik jo‘natmalarini qabul qilishning umumiy tartibi.....	10
<i>4-BOB.</i> Ichki pochta jo‘natmalarini qabul qilish, ishlov berish va yetkazib berish (topshirish)	27
4.1. Ichki oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, sekogrammalar, tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar.....	27
4.1.1. Xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, sekogrammalar, tegishli o‘rovdagi bosma nashrlarni qabul qilish	27
4.1.2. Jo‘natiluvchi va tranzit xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, sekogrammalar, tegishli o‘rovdagi bosma nashrlarga ishlov berish	31
4.1.3. Belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog‘lamalari)da keluvchi xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar, tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar, mayda paketlarga ishlov berish	39
4.1.4. Pochta aloqasining yetkazib berish obyektlarida keluvchi xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar, tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar, mayda paketlarga ishlov berish	41
4.1.5. Xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, sekogrammalar, tegishli o‘rovdagi bosma nashrlar, mayda paketlarni yetkazib berish (topshirish).....	49
4.2. Ichki qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollar	55
4.2.1. Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarni qabul qilish	55
4.2.2. Jo‘natiluvchi va tranzit qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarga ishlov berish	62
4.2.3. Keluvchi qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarga ishlov berish	65
4.2.4. Qiymati e‘lon qilingan xatlar va qiymati e‘lon qilingan banderollarni yetkazib berish (topshirish)	67
4.3. Ichki posilkalar	70
4.3.1. Posilkalarni qabul qilish	70

4.3.2. Jo‘natiluvchi va tranzit posilkalarga ishlov berish	76
4.3.3. Keluvchi posilkalarga ishlov berish	81
4.3.4. Posilkalarni yetkazib berish (topshirish)	82
4.4 «HUKUMATGA OID» belgili ichki pochta jo‘natmalari	84
4.4.1. «HUKUMATGA OID» belgili pochta jo‘natmalarini qabul qilish, ishlov berish va jo‘natish	84
4.4.2. «HUKUMATGA OID» belgili pochta jo‘natmalarini topshirish.....	88
4.5. Olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomali ichki pochta jo‘natmalari	89
4.5.1. Olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomali pochta jo‘natmalarini qabul qilish	89
4.5.2. Olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomali pochta jo‘natmalarini topshirish. Pochta jo‘natmalarini bergan pochta aloqasi obyektlarida 119-shakldagi bildirishnomalarni rasmiylashtirish.....	93
4.5.3. Olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomalarga ishlov berish va topshirish.....	97
4.6. Ichki ustama to‘lovli ichki pochta jo‘natmalari	97
4.7. Ichki harbiy pochta jo‘natmalari	100
4.7.1. Chiquvchi ichki harbiy pochta jo‘natmalarini qabul qilish va ishlov berish	100
4.7.2. Harbiy qismlarga va ularning shaxsiy tarkibiga pochta jo‘natmalarini topshirish	101
4.8. Ichki ustavor va aviajo‘natmalar	104
4.9. To‘plamli ichki pochta jo‘natmalari.....	106
4.10. Xizmatga oid pochta jo‘natmalari va pul o‘tkazmalari	111
5- <i>BOB</i> . Ichki tezkor pochta jo‘natmalarini jo‘natish va yetkazib berish (topshirish).....	113
6- <i>BOB</i> . Ichki kuryerlik jo‘natmalari	115
6.1. Kuryerlik xizmatlari	115
6.2. Ichki kuryerlik jo‘natmalarini qabul qilish va ishlov berish	116
6.3. Ichki kuryerlik jo‘natmalariga ishlov berish va jo‘natish.....	119
6.4. Belgilangan joydagi pochta aloqasi obyektlarida ichki kuryerlik jo‘natmalariga ishlov berish va yetkazib berish (topshirish)	120
7- <i>BOB</i> . Pul o‘tkazmalari operatsiyalarini tashkil etish.....	123
7.1. Pul o‘tkazmalari bo‘yicha umumiy qoidalar.....	123
7.2. Pul o‘tkazmalarini qabul qilishda 5-shakldagi kvitansiya daftarlarini yuritish tartibi, kvitansiyalarni rasmiylashtirish.....	125
Foydalanilgan adabiyotlar	132

A-18 Abdulazizova G. S. va boshq. Pochta aloqasi texnologik jarayonlari (1-qism. Ichki pochta jo‘natmalari va pul o‘tkazmalari). Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. / — T.: «ILM ZIYO», 2016. — 136 b.

UO‘K:656.8(075)
KBK:65.38-2

ISBN 978-9943-16-234-1

**G.S. ABDULAZIZOVA, G.N. NAZAROVA,
R. ADXAMOV, A.A. ABDULAZIZOV**

**POCHTA ALOQASI TEXNOLOGIK JARAYONLARI
(1-QISM. ICHKI POCHTA JO‘NATMALARI
VA PUL O‘TKAZMALARI)**

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

Muharrir *T. Mirzayev*
Badiiy muharrir *M. Burxonov*
Texnik muharrir *D. Hamidullayev*
Musahhah *M. Ibrohimova*

Nashriyot litsenziyasi №AI 275, 15.07.2015-y.

2016-yil 8-fevralda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60×90¹/₁₆.
«Times» harfida terilib, ofset usulida chop etildi.
Bosma tabog‘i 8,5. Nashr tabog‘i 8,0. 171 nusxa.
Buyurtma № 19.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.